


O'zbekiston Respublikasi Oliy va  
O'rta maxsus ta'lif Vazirligi

Namangan Davlat Universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasи

# PSIXOLOGIK XIZMAT

## *FANIDAN*

( Amaliy mashg'ulotlar uchun testlar to'plami)



7.08.2013

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etilayotgan ushbu uslubiy ko'rsatmalar psixologik xizmat kursining deyarli barcha mavzularini qamrab olgan. Tavsiya qilingan metodikalarning soni o'quv rejasida ko'zda tutilgan vaqt doirasidan ortib qoladi. O'qituvchi sharoitga qarab ba'zi bir mavzularni o'zgartirishi yoki ularni boshqasi bilan almashtirishi, ba'zilarini esa talabalarga mustaqil ish tariqasida topshirishi ham mumkin.

Tavsiya etilayotgan amaliy mashg'ulotlar uchun metodikalar to'plami pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalari hamda o'z psixologik bilimlarini mustaqil ravishda oshirayotgan o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

NamDU O'quv - uslubiy kengashining 20113 yil 29 noyabrdagi № 3 sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi :

YO. Jumanazarov

onova

10.000  
taksova

## 1- mashg'ulot.

### MAVZU: KO'RUV – HARAKAT KOORDINATSIYASINI BAHOLASH.

**Maqsad:** "ILON IZI" metodikasi asosida ko'ruv-harakat koordinatsiyasini baholash (Ozerskiy bo'yicha

**Jihoz:** Test blanklari, flomaster, sekundomer.

**Ko'rsatma:** Doirachalar o'rtasiga tezda nuqtalar qo'yib chiqasan. "To'hta" desam darrov to'htaysan.

**Tekshirishning borishi:** Tekshirish "To'hta" buyrug'igacha 30 sekund davom etadi.

**Natijalar taxlili:** 30 sekund davomida nuqtalarning umumiyligi miqdori va xatolar soni aniqlanadi. Doiradan tashqaridagi nuqtalar xato hisoblanadi. Vazifani bajarishning muvafaqqiyat koeffitsenti quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$\frac{P - P_1}{P}$$
; P – nuqtalar soni, P<sub>1</sub> – xatolar soni. Vazifaning bajarilish muvaffaqiyati darajasi koeffitsentdan aniqlanadi.

1. – 1.00
  2. – 0.99-0.76
  3. – 0.75-0.51
  4. – 0.50-0.26
  5. – 0.25 -0.00
- 

## 2 - mashg'ulot.

### MAVZU: O'QUV PREDMETLARIGA MOYILLIKNI ANIQLASH

**Maqsad:** Frantsiyalik olim J.Kelli metodikasi asosida o'quvchi — yoshlarning o'quv predmetlariga bo'lgan moyilliklariga qarab, ularning kasbiy yo'nalganligi, biron bir kasb sohasiga mosligini o'rganish.

**Jihoz:** Test blanklari, sekundomer.

Ushbu metodikani yakka tartibda ham, guruhiy tadqiqotlarda ham o'tkazish mumkin. Guruhiy tadqiqotlarda o'tkaziladigan sinfga kirgach, bolalarga kasbiy yo'nalganlikni aniqlash repertuar jadvalining tasviri tushirilgan javob varaqalari tarqatib chiqiladi. So'ngra javob varaqasining orqasida keltirilgan tushuntirish xati (ko'rsatmani)ni o'qishga da'vet etiladi. O'quvchilar birin — ketin o'qib bo'lgach, 2-3 kishidan o'z tushunganlarini gapirib berishlarini so'rash lozim. Hamma bajarilishi kerak bo'lgan vazifani tushunganidan so'ng, vazifa yana bir marta dona —dona qilib tushuntiriladi:

**Ko'rsatma:** «Qo'lingizdagи javob varaqasining satrlarida 16 ta o'quv predmeti aks ettirilgan. Ustunlar (A, V, S, D, E, G', G, N, I) esa Sizning mazkur predmetlar

doirasidagi shaxsiy nazaringiz, ularga bo'lgan munosabatingizni aniqlashga qaratilgan.

Sizdan har bir ustunda uning mazmuniga ko'ra o'quv predmetlarini tartiblab chiqish talab etiladi. Masalan, «A» ustunida («Qiziqaman, yaxshi ko'raman») ushbu fanlardan eng ko'p qiziqadigan, Sizga eng ko'p yoqadigan predmetni tanlab, uning yonidagi katakchaga «1» sonini qo'ying. So'ngra qolgan fanlar ichidan ikkinchi navbatda qiziqadigan predmetningizni topib, uning yonidagi katakchaga «2» sonini yozib qo'yiig, uchinchisiga - «3» va h. SHu tarzda 16 ta predmetning tartib raqamlarini (qiziqishlaringizga ko'ra) yozib chiqqach, keyingi («Kelajagim bilan bog'liq») ustuniga o'ting. Unda va undan keyingi ustunlarda ham qo'yilgan vazifalarni adashmay, izchillik bilan tartiblab chiqishingiz talab qilinadi.

Masalaga jiddiy yondashishingizni so'raymiz. SHoshmay, o'ylab javob bering. Marhamat, boshladik!»

Tushuntirish xati(ko'rsatma)ni o'quvchilar bilan to'liq muxokama etilishi va barcha o'quvchilar qanday ish bajarishlarini aniq tasavvur qilishlariga erishish lozim. Jadvalni to'ldirish juda oson va qiziqrarli bo'lib, yuqori sinf o'quvchilarini 15-20 daqiqa vaqt davomida metodika savollariga javob berish bilan mashg'ul bo'ladilar. O'quvchilar barcha ustunlarni to'ldirgach javob varaqasini topshirib, o'z ishlarida davom etishlari mumkin.

### Birlamchi ma'lumotlarni qayta ishlash

O'quvchi tomonidan to'ldirilan javob varaqasining o'ng tomonida xomaki ballarni hisoblab chiqish uchun yana 4 ta ustun keltirilgan.

1. Tadqiqotchi ma'lumotlarni qayta ishlashi uchun ajratilgan ustunlarning birinchisida, har bir predmetning «ISTAK» turkumidagi (A, V va S) ustunlaridan olingan ma'lumotlarnint yig'indilari hisoblab chiqiladi va qayd etiladi.
2. Keyingi ustunda har bir predmetning »IMKONIYAT» turkumidagi (O, E, va G') ustunlarida keltirilan ma'lumotlarining natijalari jamlanib, qayd etiladi.
- 3.Uchinchi ustunda «IJTIMOIY MUHIT» (G, N, I) ustunlarining ma'lumotlari jamg'arilib, yozib chiqiladi.
- 2.To'rtinchi ustunda esa mazkur uch ko'rsatgichning ma'lumotlari yana bir marta jamlanadi, ya'ni har bir predmet uchun umumlashtirilgan yig'indi qiymatlar hisoblab chiqiladi.

SHunday qilib, har bir predmet bo'yicha chiqarilgan barcha xomaki ballar qanchalik "kichik" bo'lsa, sinaluvchi shaxsining ushbu predmetga shaxsan shunchalik yaqin ekanligini va aksincha, ko'rsatgichlar qanchalik "katta" sonda ifodalangan bo'lsa, shunchalik uzoq ekanligini bildiradi. Oxirgi jamlangan ko'rsatgich o'quvchining kasbiy yo'nalgaligi haqida umumlashtirilgan, ya'ni ham shaxsiy motivlari, ham qobiliyat va layoqatlari, ham atrofdagi odamlarga maqbulligini ko'rsatadigan ma'lumotdir. Bunda har bir fanning o'quvchi ongidagi, hayotidagi qadr —qimmati haqida umumiyl tasavvurga ega bo'lish mumkin. Lekin yakkama — yakka suhbat paytida olingan ma'lumotlar mazkur ko'rsatgich bilan mos kelmagan hollarda «SHAXSIY ISTAKLAR», «SHAXSIY IMKONIYATLAR», «IJTIMOIY MUHIT» ko'rsatgichlari bilan taqqoslash

sharoiti bor. Ushbu qiyatlarning bir —biriga nisbatan katta — kichikligiga e'tibor berilsa, oxirgi yig'indining mazmuni yanada oydinlashib qoladi

### 3- mashg'ulot.

#### MAVZU: DIQQATNING XARAKTERLI XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

**Maqsad:** Landolt testi asosida o'quvchi — yoshlar diqqatining xarakterli xususiyatlarini o'rghanish

**Jihoz:** Landolt halqalari chizilgan javob varaqasi, flomaster, sekundomer.

**Ko'rsatma:** 1 minut oralig'ida faqat bir hildagi halkalarni, 2 –chi vaqt oralig'ida ikkinchi tipdag'i bir xil halqalarni chizib borishing kerak. 3-4- chi vaqt oralig'ida ham shu holat takrorlanadi.

**Natijalar taxlili:** Bola 5 minut vaqt oralig'ida vazifani bajarishi kerak. Bola har bir minut tugashi bilan o'sha erga belgi qo'yib so'ng halqalarni tipini almashtirib davom etishi kerak. Tadqiqotchi bola tamonidan 1 minutda belgilangan natijalarni hisoblaydi va undan keyin 2-3-4-5 natjalar hisoblab chiqiladi. Bola 1 minutda va jami 5 minutda yo'l qo'ygan xatolari hisoblanadi. Bola diqqatining ko'chishi quyidagi formula asosida aniqlanadi. Noto'g'ri chizilgan va chizilmay qoldirilgan shakllar soni hisoblanadi. Har 1 minutda vazifani bajarish hajmi va vazifani to'la bajarish uchun sarflangan vaqt aniqlanadi. Ish unumdarligining koeffsenti quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$S = \frac{0.5N - 2.8n}{l} \quad \text{Bunda : } S -$$

barcha ko'rib chiqilgan belgilar soni ; N — 1 – minut mobaynida ko'rib chiqilgan shakllar soni; n — o'chirilmagan yoki noto'g'ri o'chirilgan belgilar soni

Ishlash qobiliyatining darajasi: 1 daraja -10 ball S - dan katta.

2 daraja – 8-9 ball S – 0.75 – 1;

3 daraja – 6-7 ball S – 0.50 – 0.75;

4 daraja – 4-5 ball S – 0.25 – 0.50;

5 daraja – 0-3 ball S – 0.00 – 0.25;

### 4 - mashg'ulot.

#### MAVZU: O'QUVCHILARNI KASBIY YO'NALISHINI ANIQLASH

**Maqsad:** YA.Xolland testi asosida o'quvchi — yoshlarning kasbiy yo'naliishini aniqlash

**Jihoz:** YA.Xollandning moslashtirilgan testi, javob varaqasi, sekundomer.

Sinaluvchilarga oldindan tayyorlangan savlonoma, javob varaqalari va kasbiy lug'at tarqatiladi. Bu metod A.N. Vorobyov , I. G. Senin , V. I. Chirkovlarning hammullifligida yozilgan «Oprosnik professionalinx

**predpochteniy» Y Aroslavl, 1993, nomli kitobdan olingen.**

Ushbu metodika o'quvchilarning qaysi kasb sohasini afzal ko'rishini aniqlashga imkon beradi. Kasbiy muhit sohalari olti turga ajratiladi: realistik yoki amaliy; intellektual; ijtimoiy; konventsional yoki standart, uddaburon; artistik.

Ushbu metodika ayni bir vaqtida ham diagnostik, ham faollashtiruvchi hisoblanadi: unga ilova qilinadigan kasb-hunar lug'ati o'quvchilarning kasb-hunar haqidagi tasavvurini kengaytiradi, o'quvchilarga ayni bir kasb doirasida xilma-xil kasbiy muhit mavjudligini his qilish imkonini beradi (masalan, «huquqshunos» kasbi advokat, tergovchi, notarius, huquqshunos maslahatchi, jinoyat qidiruv inspektori, sudyani birlashtiradi).

Metodikaning afzal jihatlaridan biri shundan iboratki, bunda olingen natijalarni osonlik bilan qayta ishlash mumkin. Bu esa olingen natijalar asosida o'quvchi bilan uning kasbiy maqsadlari va shaxsidagi ustuvor yo'nalishlar haqida darhol suhbatlashish imkonini beradi.

**Ko'rsatma:** Deylik, siz tegishli yo'nalishda ta'lim olganingizdan keyin har qanday ishni bajara olasiz. Quyida taqdim etilgan kasblar juftidan siz o'zingizga eng ma'qul kelganlarini tanlang (kasblarni qobiliyat va imkoniyatingizdan kelib chiqqan holda tanlang). Kasb nomi qatorida qavsda kod ko'rsatilgan Javoblar blankasida tanlangan kasb kodi qarshisiga «+, ishorasini qo'ying (kasblar ro'yhatiga qarang). O'quvchilarning qiziqishi kasb kodlari bo'yicha to'plangan «+» lar soniga qarab baholanadi.

**Tajribaning borishi:** O'quvchilar e'tiboriga 42 juft kasb havola etiladi. Bundan o'quvchilar har juftlikdan faqat bitta, ya'ni o'zi istagan yoki unchalik «yomon» bo'limgan kasbni tanlashga majbur.

1. Muhandis	(1)	Sotsiolog	(2)
2. Qandolatchi	(1)	Taqvodor	(3)
3.Oshpaz	(1)	Statist	(4)
4.Suratkash	(1)	Savdo zali ma'muri	(5)
5.Mexanik	(1)	Bezakchi	(6)
6.Faylasuf	(2)	SHifokor	(3)
7.Ekolog	(2)	Hisobchi	(4)
8.Dasturchi	(2)	Advokat	(5)
9.Kinolog	(2)	Badiiy adabiyot tarjimoni	(6)
10.Sug'urta agenti	(3)	Arxivshunos	(4)
11.Murabbiy	(3)	Telereportyor	(6)
12.Tergovchi	(3)	San'atshunos	(6)
13.Notarius	(4)	Broker	(5)
14. EHM operatori	(4)	Manekenshik	(6)
15.Fotomuxbir	(5)	Ta'mirlovchi	(6)
16.Ko'kalamzorlashtiruvchi	(1)	Biolog-tadqiqotchi	(2)
17.Avtotransport haydovchisi	(1)	Bortkuzatuvchi	(3)
18.Metrolog	(1)	Kartografi	(3)
19.Radiomontajchi	(1)	YOg'ochga ishlov beruvchi	(6)
20.Geolog	(2)	Gid-tarjimon	(3)

21.Muxbir	(5)	Rejissyor	(6)
22.Bibliograf	(2)	Auditor	(4)
23.Dorishunos	(2)	Huquqshunos maslahatchi	(3)
24.Irsiyatchi	(2)	Me'mor	(6)
25.Sotuvchi	(3)	Pochta aloqasi operatori	(4)
26.Ijtimoiy xodim	(3)	Tadbirkor	(5)
27.Oliy o'quv yurti o'qituvchisi	(3)	Musiqachi-ijrochi	(6)
28.Iqtisodchi	(4)	Menejer	(5)
29.Musahhih-Korrektor	(4)	Dirijyor	(6)
30.Bojxona inspektori	(5)	Modeler	(2)
31.Telefonist	(1)	Omitolog	(2)
32.Agronom	(1)	Topograf	(4)
33.O'rmonchi	(1)	Direktor	(5)
34.Kiyim kechak bo'yicha usta (chevar)	(1)	Xoreografi	(6)
35.Tarixchi	(2)	DAN inspektori	(4)
36.Antropolog	(2)	Ekskursovod	(3)
37.Virusolog	(2)	Aktyor	(6)
38.Ofitsiant	(3)	Tovarshunos	(5)
39.Xisobchi(bugalter)	(4)	Jinoyat qidiruv inspektori	(5)
40.Sartarosh-modeler	(6)	Psixolog	(3)
41.Asalarichi	(1)	Savdogar	(5)
42.Hakam (sudya)	(3)	Stenografi	(4)

### Kasbiy toifalar

#### 1. Realist yoki amaliyotchi

Ushbu toifadagi kasb egalari aniq masalalar bilan mashg'ul bo'ladi va aniq narsalardan foydalanadi. Ular chaqqonlik va jismoni kuchni talab etuvchi mashg'ulotlami yoqtiradi. Asosan amaliy mehnat qilishni va o'z faoliyatda natijaga tez erishishni afzal bilishadi. Intellektual sohada ko'proq matematik qobiliyatga ega. Ularda odamlar bilan muloqotga kirishish, o'z fikrlarini erkin bayon etish qobiliyati ancha sust rivojlangan bo'ladi. Bu toifadagi odamlar ko'pincha mexanik, elektrik, muhandis, agronom, bog'bon, qandolatchi, oshpaz bo'lib ishlashni ma'qul ko'radir va aniq vazifalarni hal etishni, ko'p harakatlanishni, tirishtoqligini taqozo etuvchi, texnika bilan bog'liq kasblarni tanlaydi. Ular faoliyatida muloqotga kirishish etkachi o'rinn egallamaydi, ularning faoliyati ko'proq ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishslash bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

#### 2. Intellektual

Bu toifadagi kasb egalari boshqa kishilardan masalalarni chuqur tahlil qilishi, oqilona ish yuritishi, mustaqilligi va o'ziga xosligi bilan alohida ajralib tursalar-da, lekin ular ijtimoiy me'yorlarga qa'tiy amal qilishga unchalik moyil emaslar. Ularda matematikaga bo'lgan qobiliyat yaxshi rivojlangan, ular o'z fikrlarini juda yaxshi bayon eta oladi, mantiqiy va mavhum masalalarni echa biladi. Bu toifadagi insonlar ilmiy-tadqiqot yo'nalishidagi, ya'ni ijodiy qobiliyat va nostandart fikrlashni talab etuvchi kasblarni afzal bilishadi: botanik, fizik, faylasuf, dasturchi va boshqalar.

#### 3. Ijtimoiy tip

Ushbu toifadagi kasb egalari insonparvar, hissiyotli va faol shaxslar bo'lib, ijtimoiy me'yirlarga ko'proq amal qiladi. Ular o'zgalarga hamdard bo'la oladi, boshqalarning ichki kechinmalarini yaxshi tushunadi va ularning qalbiga yo'l topa oladi. Odamlar bilan oson muloqotga kirishadi, o'z fikrlarini bayon etishda qiyalmaydi.Ularda matematikaga bo'lgan qobiliyat ancha sust rivojlangan. Bu toifadagi insonlar faoliyati asosan boshqa kishilar bilan hamkorlikda ishlash, odamlarga ta'lim berish va ularning xulq-atvorlarini nazorat qilishga qaratiladi. Ular asosan ta'lim, davolash, xizmat ko'rsatish sohalarida va odamlar bilan doimo munosabatda bo'lishni talab etuvchi boshqa yo'naliishlarda xizmat qiladi.

#### **4. Konvensional yoki standart tip**

Bu toifadagi kasb egalari amaliy faoliyatni, aniqlikni yoqtiradi. Ular ijtimoiy me'yirlarga amal qiladi, o'ylagan ishini oxiriga etkazmasdan qo'ymaydi, tirishqoq va shiddati va baquvvat bo'ladi. Belgilar olamiga qiziqadi, ko'pincha tevarak-atrofning xususiyatlarini belgilar tizimida ifodalay oladi. Ular aniq faoliyat yo'naliishini afzal biladi, maqsad va vazifalarni shart-sharoitga qarab belgilaydi. Ularning kasbiy faoliyati asosan idora va hisob-kitob ishlari, hujjatlar tuzish va ulami rasmiylashtirish, sonlar, shartli belgilar tizimi o'ttasidagi miqdoriy va sisatiy munosabatlarni aniqlash bilan uzviy bog'liq bo'ladi; ular hisobchi, agent, notarius, topograf, korrektor bo'lib faoliyat ko'rsatishni, shartli belgilar, raqamlar, for-mulalar, matnlar tarzda berilgan axborotlami qayta ishlashni ma'qul ko'radilar.Faoliyatning bunday turlarida muloqot sohasi ancha cheklangan. Ularda kommunikativlik va tashkilotchilik qobiliyati sust, ammo ijrochilik sifatlari yaxshi rivojlangan.

#### **5. Uddaburon tip**

Bu toifadagi kasb egalari topqir, amaliyotchi, murakkab sharoitlarda tez yo'naliish ola biladi, mustaqil qarorlar qabul qilishga, ijtimoiy faollik ko'rsatishga, etakchilik qilishga moyil, sarguzashtlarga juda qiziqadi. Ularda boshqalar bilan muloqot qila bilish qobiliyati kuchli rivojlangan bo'ladi.Diqqat-e'tibor va sabr-toqatni talab etadigan ishlarga xohishlari yo'q. Ular tashkilotchilik qobiliyatini, kuch-qudratini namoyish etishga imkon beradigan faoliyat turlarini afzal bilishadi. Tovarshunos, direktor, jurnalist, telereportyor bo'lib ishlash va har xil sharoitlarda turli toifadagi odamlar bilan muloqot qilishni, boshqarishni, rahbarlik qilishni talab etuvchi kasblar ana shunday faoliyatni taqozo etadi.Bunday toifadagi kasb egalari odamlarga o'z e'tiqodi bilan ta'sir ko'rsata oladi. Ular har doim o'z ishlaridan qoniqmaydilar.

#### **6. Artistik tip**

Ushbu toifadagi kasb egalari o'ziga xos, mustaqil qaror qabul qiladi, kamdan kam hollarda ijtimoiy me'yirlarni qo'llab-quvvatlaydi va ma'qullaydi, ko'pincha hayotda juda murakkab o'z shaxsiy qarashiga ega, xayollar niyuksak, tez fikrlaydi, yuqori hissiy sezgirlikka ega.Atrofidagi shaxslar bilan o'z sezgisi, his-tuyg'usi, tasavvur va intuitsiyasiga asosan munosabat o'matadi. YAxshi reaktsiyaga, munosabat o'mata olish va idrok etish qobiliyatiga ega. Boshqalar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyati ancha rivojlangan.Ularning kasbiy mahorati ko'p darajada aktyorlik-sahna ishlari, musiqa yaratish va ixtirochilik faoliyati bilan uzviy bog'liq.

1. *Muhandis,( injener)* — loyihalarga, qurilishga, har xil tizimlardan foydalanish ishiga (ish turiga qarab) rahbarlik qiladi, ishchilarni ishlab chiqarish topshiriqlari bilan ta`minlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.
2. *Sotsiolog,(sotsiolog)* — sotsiologik tadqiqotlar dasturini tuzadi va sotsiologik tadqiqotlar o'tkazadi, ularning natijalarini tahlil etadi, dastlabki axborotlami qayta ishlaydi, olingan ma'lumotlarni umumlashtiradi, tavsiyalar ishlab chiqadi.
3. *Qandolatchi,(konditer)* — tort, bo'g'irsoq, keks, rulet, har xil xomashyodan pechenelar, turli xil pishiriqlar, kremlar, belgilangan retsept asosida xom ashylar tayyorlaydi va tayyorlangan mahsulotlarning og'irligini tekshirib ko'radi.
4. *Dindor, taqvodor(svyatennostlujitel)* — har xil diniy, marosimlar, tartib-qoida va amallarni bajaradi (nomoz o'qish, nikohlash, diniy bag'ri kenglikka, hidoyatga chorlash, tavba-tazzaru ishlari va boshqalar).
5. *Oshpaz,(povar)*—xom ashylarni qabul qilib oladi va ularni qayta ishlaydi; yaxna ichimliklar, issiq va sovuq taomlar tayyorlaydi, ularni rasmiylashtiradi.
6. *Statist,(statist)* — har xil yo'naliishdagi statistik ma'lumotlami qayta ishlaydi va tahlil qiladi, statistik hisoblar asosida dalillarga tayanib, ma'lumotlar tuzadi, statistik hisobotlar olib boradi.
7. *Suratkash,(fotografi)* — odamlarni alohida yoki guruh holida rasmga tushiradi, «rasmiy» va badiiy fotolavhalar tayyorlaydi, negativlarni yoritadi, suratlarni chiqaradi, suratlarni ishslash uchun qorishmalar tayyorlaydi.
8. *Savdo zali ma'muri,(administrator)* — savdo zalini tartibga keltiradi, zaldagi mahsulotlar zahirasini va ularning o'z vaqtida to'ldirib borilishini nazorat qiladi, zaldagi xaridorlar oqimini kuzatadi va tezkorlik bilan ularga yo'l-yo'rqliar ko'rsatadi, mijozlarga o'zlarini qiziqtiргan ma'lumotlarni taqdim etadi va maslahatlar beradi, nizoli holatlarni bartaraf etadi.
9. *Mexanik,(mekanik)* — sanoat korxonalarida, loyihalash va konstrukturlik tashkilotlarida ishlovchi mutaxassis. Mexanik jihozlar, mashinalar, apparatlar, avtomatik ravishda boshqariladigan texnik vositalarni ishlatish va ularni boshqarish bilan shug'ullanadi. Jihozlarni o'matish, sinash, montaj qilish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlарini tashkil etadi. Texnologik jarayonni ishlab chiqadi, rejalashtiradi va tashkil etadi.
10. *Bezakchi,(dizayner)* — rassom-loyihachi bo'lib, sanoat mahsulotlari, mebellar, xonardonlar, ishxona va boshka ob'ektlarga ijodiy ishlov beradi, ularning foydali, qulay va chiroyli bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi.
11. *Faylasuf,(filosof)* — tabiat va jamiyatda, kishilar ongida kechadigan jarayonlarni bilish borasida ish olib boradi, dunyoqarash masalalarini ishlab chiqish bilan mashg'ul bo'ladi.
12. *SHifokor,(vrach)* — bemorlar kasalliklarini aniqlash, ularni davolash va proflaktika ishlari bilan shug'ullanadi. Ish faoliyati tibbiyot sohasiga qarab belgilanadi: pediatr, terapevt, nevropatolog, psixiatr, dietolog, infektionist, onkolog, reanimatolog, jarroh, tish duxtiri va boshqalar.
13. *Ekolog,( ekolog)* — biologik tizimlarning tuzilishi va vazifalarini, sanoat ishlab chiqarishi chiqindilarining atrof-muhitga ta'sirini o'rganuvchi, ekologik ma'rifat va atrof-muhitni muhofaza etish tadbirlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

- 14. Hisobchi( buxgalter)** — buxgalteriyaga oid barcha hisob-kitob ishlarini bajaradi, xo`jalik vositalariningtarkibi va manbalarini, ularning harakatini qayd etib boradi, birlamchi hujjatlarni qabul qiladi, ular ustidan nazorat olib boradi.
- 15. Dasturchi (programmist)** — iqtisodiy hamda boshqa masalalarni hal etishda matematik modellar va algoritmik tahlillar asosida kompyuter dasturlarini ishlab chiqadi, ishlab chiqilgan dasturlarning tatbiq etilishini kuzatadi va zarur hollarda ularga tegishli o`zgartirishlar kiritadi.
- 16. Advokat( advokat)** — tashkilot va fuqarolar manfaatini qonuniy va huquqiy jihatdan himoya qiladi, huquqiy maslahatlar beradi, tashkilot va fuqorolar ishini sudga hamda davlat tashkilotlariga taqdim etadi, jinoiy ishlarni ko`rishda sudda himoyachi sifatida qatnashadi.
- 17. Kinolog (kinolog)** — itlarni o`rganuvchi, ularning naslini boyituvchi, ularni ishga (ma`lum buyruq, harakat, amallarni bajarishga) o`rgatuvchi va parvarish qiluvchi mutaxassis.
- 18. Badiiy adabiyot tarjimonи(perevodchik)-** badiiy adabiyotlarni bir tildan ikkinchi tilga yozma ravishda tarjima qiladi, ularga o`zicha mazmun bag`ishlaydi, ularni tahrir qiladi, chet el adabiyotlarini nashr etish bo`yicha annotatsiya va referatlar tayyorlaydi.
- 19. Sug`urta agenti( straxovoy agent)** — sug`urta qilish haqida shartnoma tuzish va ularni sug`urta masalalariga qiziqirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarni izlab topadi, ularga amaliy xizmat ko`rsatadi, xavf-xatar darajasi va mezonlarin hisobga oлган holda keltirilgan zararni belgilangan tartibda baholaydi.
- 20. Arxivchi(arxivist)** — saqlanayotgan hujjatli materiallarni qayta ishlash bilan shug`ullanadi, ma`lumotnomalar yaratadi, hujjatlarni hisobga oladi, ulardan foydalananadi, u yoki bu tarixiy hodisalar bo`yicha materiallarni ajratib ko`rsatadi.
- 21. Murabbiy(trener)** — xohlovchilarни aniq sport turi bo`yicha texnik-taktik malakalarga o`rgatadi, sportchilar bilan mashg`ulot va musobaqa larga boradi.
- 22. Telereportyor(telereportyor)** — voqeа yuz bergen joyga borib, guvohlardan intervyu oladi, odamlar bilan suhbatlashadi, vaziyatni tahlil etadi, ma`lumotlarning eng muhimlarini ajratib olib, televideniega taqdim etadi.
- 23. Tergovchi(sledovatel)** — dalil va holatlarni o`rganib, ularni huquqiy jihatdan asoslaydi, sodir etilgan jinoyatlarni ochadi, dalillar to`playdi va ularni mustahkamlaydi, prokurorga ayblov xulosalarini taqdim qiladi.
- 24. San`atshunos(iskusstvoved)** — tasviriy san`at, me`morchilik (rivojlanish qonuniyatları, badiiy shakllar, san`at janri va turlarining o`ziga xosligi, ularning o`zaro ta`siri) muammollarini tadqiq etadi.
- 25. Notarius(notarius)** — oldi-berdi shartnomasini, fuqarolarning huquqiy meroslarini rasmiylashtiruvchi, shartnomalar, hujjatlar, yuridik aktlar nuxsalarini tasdiqlovchi mas`ul shaxs.
- 26. Broker( broker)** — manfaatdor tomonlar uchun oldi-sotdi ishlarini tashkil etadigai vositachi, alohida shaxs yoki firma bo`yruqlariga ko`ra ish tutadi va amalga oshirilgan oldi-sotdi natijasiga ko`ra ma`lum foiz ustama haq oladi.
- 27. EHM operatori** — mashina holatini va uning ishga tayyorligini, chop etilgan belgilarning aniqligini, qayta ishlanadigan materiallarda belgilarning mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi, olingan ma`lumotlarni qayta ishlaydi (arifmetik hisoblashlarni amalga oshiradi, ro`yxatlar va jadvallar tuzadi).

- 28. Menikenshik (manikenshitsa)** — kiyimlar modelini namoyish etadi, ularning yaxshi tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi, reklama uchun suratga olishda, narsalarni tayyorlash jarayonida , kiyimlar uchun andoza olishda ishtirok etadi.
- 29. Fotomuxbir(fotokorrespondent)** — tahririyatning topshirig'iga ko'ra yoki o'zi mustaqil ish olib borishi mumkin. Muharirlar fotomuxbirlar bilan birqalikda fotolavhalar, yoritilayotgan mavzu bo'yicha ocherk, maqola tayyorlaydi, ularni foto surat-lar bilai mazmunan boyitadi. Voqeа ishtirokchilari bilan suhbatlashadi, tasvirga tushirish uchun qulay bo'lган joylarni tanlaydi.
- 30. Ta'mirlovchi( restavrator)** — buyum yoki uning bo'laklarini qayta tiklaydi, maxsus elimlar, bo'yoqlar tayyorlab, ularni bir-birlariga elimlaydi, buyumlar sirtiga yozuvlar yozadi, naqshlar chizadi va boshqa ishlovlar beradi.
- 31. Ko'kalamzorlashtiruvchi(ozelenitel)** — ko'chat o'tqazish uchun erni, o'g'il va materiallarni tayyorlaydi, tuproqqa ishlov beradi, o't va nihollar ekadi, ularni o'ndiradi va parvarishlaydi.
- 32. Biolog-tadqiqotchi(biolog-issledovatel)** — jonli tabiatni, uning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, tabiiy resurslardan oqilonha foydalanish va ularni tizimlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarni rejalshiradi, tashkil etadi va amalga oshiradi.
- 33. Avtotransport haydovchisi(voditel)** — avtotransportni boshqaradi, kichik nosozliklarni tuzatadi, yo'lovchilarining transportda yurish, transportga chiqish va undan tushish qoidalariiga rioya etishini, kuzovga yuklarning to'g'ri yoki noto'g'ri mustahkamlanganini nazorat qiladi
- 34. Bortkuzatuvchi(bortprovodnik)**—kabina va salonlarning sanitар holatini, samolyotning elektr jihozlari ishlashini, yo'lovchilarining salonda qanday joylashganini tekshiruvchi, yo'lovchilarni ovqatlantiruvchi va ularga shaharning ko'rkmajoylari haqida ma'lumot beruvchi xodim.
- 35. Metrolog(metrolog)** — mahsulot sifatini nazorat qiladi, birinchi marta ishlab chiqarilgan o'Ichov asboblarini sinab ko'radi va tekshiruv ishlarni bajaradi, ularni ko'p sonda ishlab chiqarishga ruxsat beradi.
- 36. Kartograf (kartiograf)** — xarita tuzuvchi bo'lib, xaritalarni bosmaxonada ko'p nuxsada nashr ettirish uchun joy(kengliklar)ning oq-qora rangdagi chizmasini tayyorlaydi.
- 37. Radiomontajchi(radiomontajnik)** — sxema bo'yicha asbobni yig'adi, montaj simlarini ulaydi, sxema elementlarini payvandlaydi, ishning sifatini tekshiradi. asboblarni nazorat sinovidan o'tkazadi va ishlatishga tayyorlaydi.
- 38. Yod'ochga ishlov beruvchi russom** — yog'ochga ishlov berish asosida buyumlar tayyorlovchi mutaxassis: buyumlarga yozuvlar, naqshlar, o'simliklar rasmi va syujetli rasmlarni chizadi. Ularni bezaydi va lak bilan bo'yaydi.
- 39. Geolog( geolog)** — foydali qazilmalar joyini izlaydi va aniqlaydi, ularning o'mini belgilaydi, tasvirga tushiradi, foydali qazilmalar hajmini baholaydi. geologik xarita tuzadi, tog' jinslarining texnologik xususiyatlari va geologik ixtisosliklarni e'tiborga olgan holda ularning namunalarini to'playdi.
- 40. Tarjimon-gid(perevodchik-gid)**—turistlar, savdo va tijorat tashkilotlari vakillariga milliy madaniyat bilan tanishishga yordam beruvchi, turistlarning dam olishini tashkil etish, ayrim zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish bilan mashg'ul bo'luvchi shaxs.

- 41. Muxbir(jurnalist)** — ommabop asarlar yaratadi, kichik hajmdagi maqolalar yozadi, voqealarni bo'lgan joyga borib, guvohlardan intervju oladi, odamlar bilan suhbatlashadi, vaziyat bilan bog'liq masalalarni tahlil etadi va ulardan eng ahamiyat-lilarini alohida ajratib, matbuotda yoritadi.
- 42. Rejissyor** — spektakl, film, radio va teleeshittirishlar, estrada dasturlari va boshqalar uchun materiallar, ijodiy guruhlar tanlovchi va tayyorgarlik ishlarini olib boruvchi, aktyorlarni ijodiy jarayonga yo'naltiruvchi ijodkor shaxs.
- 43. Bibliograf** —ma'lumotnomalar, bibliografik axborotlar tayyorlaydi (kutubxonada mayjud bo'lgan har bir asarga qisqacha annotatsiya tuzadi), uchrashuvlarda mavzu bo'yicha nutq so'zlaydi, ko'rgazmalarda ishtirop etadi.
- 44. Auditor** — revizor, mulkchilik shakli turlicha bo'lgan korxonalarining moliyaviy faoliyatini ichki va tashqi tekshiruvdan o'tkazadi hamda tahlil qiladi. hisobotlarning ishonchiligidini, amalga oshirilgan amallarning qonuniyligini baholaydi, korxona yoki tashkilotning to'lov qobiliyati yo'qligi haqida qaror qabul qilishda ishtirop etadi.
- 45. Dorishunos(farmatsiev)**—shifokorning ko'rsatmasiga asoslanib dori tayyorlaydi, dori-darmonlarni begilangan qoidalar asosida saqlaydi, bemorlarga tayyor dorilarni retsept bilan beradi, dori-darmon tayyorlash uchun buyurtma qabul qiladi, bemorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadi.
- 46. Huquqshunos maslahatchi(yuriskonsultant)** — turli xil tashkilotlarda ishlovchisi huquqshunos-mutaxassis. SHartnomalar tuzish, bayonnomalar yuritish, kelishmovchiliklari bo'yicha ish olib boradi, da'vo va arizalarni ko'rib chiqadi. Uning asosiy vazifasi tashkilotda nizoli ishlar kelib chiqishining oldini olish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogoh etish.
- 47. Irsiyotchi(genetik)**— organizmlarning irsiy va o'zgaruvchanlik qonunlarini o'rGANADI, eksperi mental ishlarda hayvon hamda o'simliklar turlari, mikroorganizmlar va viruslar shtammidan foydalanadi.
- 48. Me'mor(arxitektor)** — inshootlar, binolar, bog'-rog'lar loyihi larini chizadi, me'moriy yodgorliklarning, binolarning ichki va tashqi qismini qayta tiklash bo'yicha loyihi lar ishlab chiqadi, loyihi lar echimi bilan bog'liq tadqiqotlar olib boradi, muallif sifatida qurilish ishlarini kuzatadi.
- 49. Sotuvchi(prodavets)**—do'kon, palatka, boshqa savdo rastalarida xaridorlarga xizmat ko'rsatadi, tovarlarni tanlaydi, ularni namoyish etadi, qog'ozga o'raydi, tarozida tortadi va baholaydi.
- 50. Pochta aloqasi operatori(operator pochtavoy svyazi)** — xatlar, banderollar, jo'natmalar, telegrammalar, pul jo'natmalarini qabul qiladi va jo'natadi, nafaqa va yordam pulini beradi, pochta to'lov markalarini sotadi va pochta xodimlari ishini tashkil etadi.
- 51. Ijtimoiy xodim(sotsialny rabotnik)** — nafaqaxo'rlar, nogironlar, yolg'iz va qari kishilar, etim-esirlami va iqtisodiy jihatdan nachor bo'lgan boshqa kishilarni moddiy-maishiy va ma'naviy-huquqiy qo'llab-quvvatlaydi, reabilitatsiya tadbirlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.
- 52. Tadbirkor(predprinimatel)** — savdo (biz-nes) ishlarini hamkorlikda tashkil etadi, biznesni boshqaradi, talab va taklif, tovar va xizmatlar bozoridagi vaziyatni o'rganish uchun marketologiya tadqiqotlarini o'tkazadi, tijorat sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun mustaqil qarorlar qabul qiladi va u bilan bog'liq

oqibatlarni o'z zimmasiga oladi.

53. *Oliy o'quv yurti o'qituvchisi( prepodavatel vuza)* — o'qitishning samarali shakllari, usullari, vositalari va ta'lim texnologiyalaridan foydalaniib, talabalarga yuqori ilmiy va uslubiy darajada bilim beradi, ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakkantiradi.

54. *Musiqachi-ijrochi(muzikant-ispolnitel)* — musiqiy asarlarni ijro etadi, kompozitor g'oyalarni, ijrochining his-tuyg'ularini musiqa orqali tinglovchilarga etkazib berishga, ma'nosini tushuntirishga intiladi, ijrochilik qobiliyatini sinab ko'radi.

55. *Iqtisodchi(ekonomist)* — ishlab chiqariladigan mahsulotlarni yangilash orqali korxonaning ma'lum iqtisodiy natijalarga erishishini rejalashtirish va iqtisodiy holatini tahlil qilish bilan shug'ullanadi, korxona hisob raqamiga kelib tushadigan pullar, uning tovar-moddiy boyliklari hisobini olib boradi.

56. *Menejer (menedjer)* — korxonadagi xodimlar faoliyatini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi, ular faoliyatini baholaydi va rag'batlanadir, bozordagi talab va taklifni o'rganadi, mahsulotlarni yangilash bo'yicha takliflar beradi, biznes-reja ishlab chiqadi va uni amalga oshirish ishiga rahbarlik qiladi, xodimlarni ishga qabul qilish, tanlash va mansab pog'onalarini bo'yicha ko'tarilish jarayonini boshqaradi.

57. *Musahhihih( korrektor)* — qo'lyozma matnni asl nusxasi bilan solishtirib o'qiysi, matn teruvchilar yo'l qo'ygan harfiy xatolarni to'g'rilaydi va tinish belgilarni o'z o'miga qo'yadi, matnni terishda yo'l qo'yilgan texnik xatolarni bartaraf etadi, sxema, diagramma, suratlar ostidagi yozuvlarni, qatordagi harflar orasidagi masofani tekshiradi.

58. *Dirijyor(dirijyor)* — qo'l, barmoq, bosh harakati yordami bilai musiqachilar ijrosini boshqaradi, repertuar tanlaydi, partituralar bilan tanishadi, jamaa bilan musiqa asarini birgalikda ijro etadi.

59. *Bojxona inspektori( inspektor tamojni)* — davlat chegaralari kesishgan joyda yo'lovchilarning yuklari,narsalari,transport vositalarini bojxona ko'riganidan o'tkazadi, kontrabanda tovarlarini izlaydi, boshqa maxsus xizmat vakillari bilan hamkorlik qiladi, chegarada xavfsizlikni ta'minlaydi.

60. *Rassom-modeler(xudojniki-modeler)* — kiyimlar modellarini, uning kompozitsiyalarini yaratadi, namoyish etiladigan zaruriy materiallarni tanlaydi, kiyimlar modellari ko'rgazmasida ishtiroy etadi.

62. *Telefonchi (telefonist)* - aloqa stantsiyasida ishlovchi xodim.

63. *Ornitolog* - parrandashunos,parrandachilik ishi bilan shug'ullanuvchi xodim.

64. *Agronom* - qishloq ho'jaligi va zirotatchilik ilmi bilan shug'ullanuvchi xodim.

65. *Topografi* - er sathini kartaga olish, o'lchash.chizish va xisobga olib chizish ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

66. *O'rmonchi (lesnik)* - o'rmon uchastkasi xodimi.

67. *Direktor* - muassasa rahbari.

68. *Xoreograf* - raqs san'atini saxnalashtiruvchi mutaxassis.

69. *DAN xodimi(GAI)* – davlat avtoinspeksiya nazoratchisi.

70. *Antropolog* - odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, jismoniy tuzilishi va irqlarning paydo bo'lishi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

71. *Ekskursovod* - ekskursiya raxbari, ekskursiyani olib boruvchi.

72. *Virusolog* - yuqumli kasalliklar (viruslar)kelib chiqishini o'rganuvchi

**mutaxassis**

**73. Aktyor** - teatr va kino artisti

**74. Psixolog** - psixologiya mutaxassis

**75. Stenografist** - og'zaki nutqni (so'zni) ma'lum shartli belgilarni asosida yozib oluvchi mutaxassis

**76. Jinoyat qidiruv inspektori** - sodir etilgan jinoyatlarni dalil va isbotlar asosida o'rGANIB, kelib chiqish manbalarini qidiradi.

**77. Tovarshunos** - savdo jarayonida mollarning xaridorgir, o'ziga xos jihatlarini o'rGANIB buyurtmalar beradi

**78. Hakam(sudya)** – yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan jarayon va xarakatlarni qonun-qoidalar asosida nazorat qiladi

**79. Sartarosh-modeler** - Sochni zamonaviy turmaklarini o'ylab topish

## 5 - mashg'ulot.

### MAVZU: OQUVCHILARNI KASBGA YO'NALGANLIGINI ANIQLASH

**Maqsad:** Maktab o'quvchilarining kasbiy yo'nalishini aniqlash

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

Quyida Sizga turli kasblarga oid mehnat vazifalari haqidagi 88 ta savol havola etilmoqda. Savollar tartiblangan bo'lib, javoblar varaqasidagi raqamlarga o'zar o'tshadi. Siz o'z qiziqishlaringizni hisobga olgan holda har bir savolga bo'lgan javobingizni 1, 2, 3 yoki 4 ball miqdorida baho lashingiz lozim bo'ladi. Qo'yiladigan ballarning ma'nosini quyidagicha izohlanadi:

- Umuman qiziqarli emas - 1 ball;
- Unchalik qiziqarli emas - 2 ball;
- Qiziqarli - 3 ball;
- Juda qiziqarli - 4 ball.

Savollar ichida Sizga notanish bo'lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda Siz: "Ushbu kasblar haqida nimalarni bilishingizni?" taxminan javob tarzida berishingiz lozim. Uzoq o'ylamang. Ko'proq hayolingizga ilk bor kelgan fikrlaringizni javob varaqasiga tushiring.

#### Menga yogadi:

1. Mashina va mexanizmlar bilan ishlash	45. Ob-havoni oldindan aniqlash
2. Metroda sayr qilish	46. Avto-Ralli musobaqalarida qatnashish
3. Radiohavaskorlik	47. O't o'chirish
4. Binolar maketini tayyorlash	48. Metallni payvandlash
5. Vodoprovodni tuzatish	49. Aholini suv bilan ta'minlash
6. Rivojlanishi sust bolalarga yordam berish	50. Doya-enagalik faoliyati
	51. Erga ishllov berish
	52. Suvda suzish, cho'milish

7.Traktorlarga texnik xizmat ko'rsatish	53.SHe'r yodlash va ifodali o'qish
8.Bolalarni mактабга тайярлаш	54.Matematik misollar echish va hisob-kitob qilish
9.Film ko'rish	55.Sochni zamonaviy turmaklarini o'ylab topish
10.Pul, foyda va zararni hisoblash	56.Bichish, tikish
11.Radioteleapparaturnami tuzatish	57.Daryoda yuklarni tashish
12.Velosiped tuzatish	58.Akkumulyator tuzatish
13.Parashyutdan sakrash	59.Bino poydevorini quyish
14.Kompyuterda ishlash	60.O'rin-joy, xonadonni yig'ishtiruvchi robot yaratish
15.Rangli rasm solish	61.Bemorlarni parvarishlash
16.Gaz plitalarini tuzatish	62.Mashinada paxta terish
17.Bemorlarni tinchlantirish va ularga yordam ko'rsatish	63.Bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtinarni tashkil etish bilan shug'ullanish
18.Ekskavator bilan ariq va zovurlarni kavlash	64.Latifa aytish va eshitish
19.Bolalar bilan ishlash	65.Hujjatlar bilan ishlash
20.Kuy chalish	66.Dazmol, kir yuvish mashinasiga kabilarni tuzatish.
21.Jamoat tartibini saqlash	67.Mebel yasash
22.Oziq ovqatlarni bezash, garnirlar tuzish	68.Poezdda sayohat qilish
23.Mashinalarni "kavlashtirish"	69.Pochta aloqasi operatori bo'lish
24.Avtobus haydash	70.Oyna qirqish
25.Radiodetallarni almashtirish	71.Liftda qavatga ko'tarilish
26.G'isht terish	72.Nuqsonli bolalarga yordam berish
27.Obodonlashtirish	73.O'simlik va hayvonlarni parvarishlash
28.Dorishunoslik	74.Sport musobaqalarini tashkil qilish
29.O'mmon kesish.daraxtlarni tartibga solish	75.Loydan qo'g'irchoq yasash
30.To'garak ishini tashkil qilish	76.Tejamkorlik
31.Raqsga tushish	77.SHirinliklar tayyorlash
32.Aktsiya bozorini kuzatish	78.Er osti boyliklarini izlab topish
33.Ko'pchillikka taom pishirish	79.Avtopoygalarni tomosha qilish
34.Metallarni biriktirish	80.Kuygan lampochkalarni yangilash
35.Samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish	81.Devorga gulqog'oz yopishtirish, bo'yash
36.Hovliga chiroq tushirish	82.Elektr-gaz payvandlash ishlari bilan shug'ullanish
37.YOg'ochga ishlov berish	
38.Rezba,gayka,bolt chiqarish	
39.Bemorlarga yordam ko'rsatish	
40.Mevali ko'chatlar etishtirish	

41.Bolalarga kurash usullarini o'rgatish	83.Dezinfektsiyalash
42.Ashula aytish	84.Akvariumda baliq boqish
43.Tejamkorlik bo'yicha maslahatlar berish	85.Bolalarga o'qishni,yozishni o'rgatish
44.Haridni rejalashtirish	86.A fisha va e'lонlar chizish
	87.Bozordagi narx navoni kuzatib borish
	88.Dasturxon tuzash, mehmon kutish

## O' KYA TESTINING NATIJALAR TAXLILI

Savollarga javob berib bo'lganingizdan so'ng har bir qatordagi savollarga berilgan javob ballarining yig'indisi 3-ustunga yoziladi. Yig'ilgan ballarning eng yuqori qaysi guruhga mos kelsa sizdagi qiziqish va moyillik darajasi shu soha yo'nalishi atrofida bo'ladi.

T/	Savol №	Ballar yig'indisi	Kasblar	Sohalar
1	1 12 23 34 45 56 67	No1 guruh	Sanoat	
2	2 13 24 35 46 57 68	No2 guruh	Transport	
3	3 14 25 36 47 58 69	No3 guruh	Aloqa	
4	4 15 26 37 48 59 70	No4 guruh	Qurilish	
5	5 16 27 38 49 60 71	No5 guruh	Uv.j.k. x.	
6	6 17 28 39 50 61 72	No6 guruh	Tibbiyot	
7	7 18 29 40 51 62 73	No7 guruh	Oish.o'rmon x.	
8	8 19 30 41 52 63 74	No8 guruh	Ped-ka	
9	9 20 31 42 53 64 75	No9 guruh	San'at va mad.	
10	10 21 32 43 54 65	No10 guruh	Ijt. Iqtisod.	
11	11 22 33 44 55 66	No11 guruh	Savdo	

### 1-guruh. Sanoat

Sizda sanoat sohasiga mansub bo'lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyotsozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo va engil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari shuningdek, matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

### 2-guruh. Transport

Sizda avtomobilarni boshqarish, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga moyillik yuqori. SHu bois Siz transport vositalari bilan bog'liq bo'lgan kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarda yoki matematika va fizika fanlari yo'nalishidagi akademik litseylarda tahsil olishingiz mumkin.

### 3-guruh. Aloqa

Sizda aloqa bilan bog'liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikatsiya, radio, pochta, elektron uskunalarini boshqarish, xalqaro aloqa, telefon, telegraf va boshqa sohalar bo'yicha kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o'rgatuvchi akademik litseylarga o'qishga borishingiz mumkin.

### 4-guruh. Qurilish

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish mavjud. Sizga qurilish avtomobilari va mashinalarini boshqarish, sanitariya-texnik tizimlar, temir-beton mahsulotlari va

konstruktsiyalar, duradgorlik kabi kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishga tavsiya etiladi.

**5-guruh. Uy-joy, kommunal xo'jalik**

Sizda suv, gaz ta'minoti, turar joy va jamoat binolariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga qiziqish mavjud. Siz uy-joy va kommunal xo'jaligi sohasi uchun kasblar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejida yoki aniq fanlar yo'nalishidagi akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

**6-guruh. Tibbiyat**

Sizda sog'liqni saqlash sohasining umumiy amaliyot, stomatologiya, ortopediya, farmatsiya, tibbiy optika va laboratoriya tashhisi sohalaridagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyat yo'nalishidagi kasb-hunar kollejida yoki kimyo va biologiyaga ixtisoslashgan akademik litseylarda o'qishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

**7-guruh. Qishloq va o'rmon xo'jaligi**

Sizga qishloq xo'jaligi va o'simlikshunoslik bilan bog'liq bo'lgan kasblar yoxadi. Sizga qishloq xo'jaligi texnikalarini boshqarish, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, gidromelioratsiya, fermer xo'jaligi, agronomiya, zootexnika, o'simlikshunoslik, chorvachilik sohalar bo'yicha kasblar tayyorlaydigan yoki biologiya fanini chuqur o'rgatuvchi akademik litseylarda tahsil olishni tavsiya etiladi.

**8-guruh. Pedagogika**

Sizda bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish va ularni qo'llab-quvvatlashga bog'liq kasblarga moyillik mavjud. Siz maktabgacha ta'lim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, boshlang'ich sinflarda sport va musiqa ta'limiga oid kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlardan ta'lim olishingiz mumkin.

**9-guruh. San'at va madaniyat**

Sizni tasviriy san'at, rassomchilik, xoreografiya, teatr hamda madaniy oqartuv ishlari qiziqiradi. Sizga mada niyat va san'at yo'nalishidagi kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlardan ta'lim olishni tavsiya etiladi.

**10-guruh. Ijtimoiy, iqtisodiy soha**

Sizda moliya, buxgalteriya, menejment-marketing, bank, huquqshunoslik, yong'in xazfsizligi, avtoinspekteysi, ijtimoiy ta'minot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish mavjud. Sizga ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlardan va aniq fanlar yoki ijtimoiy yo'nalishidagi akademik litseyda ta'lim olishni tavsiya etiladi.

**11-guruh. Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish**

Sizda umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko'rsatish, radiotexnika va teleapparaturalarni ta'mirlash, maishiy gaz va mashinalarni ta'mirlash, kino-fototexnika xizmatlari ko'rsatish sohalariga qiziqish mavjud.

Sizga savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish bo'yicha kasb-larga tayyorlovchi kasb-hunar kollej yoki aniq fanlar akademik litseylarda o'qish tavsiya etiladi.



## MAVZU: O'QUVCHIJAR JAMOASIDA SINF FAOLLARINI ANIQLASH.

**Maqsad:** Prof. B.R.Qodirovning "Sinf zukkolari" metodikasi asosida o'quvchilar jamoasida sinf faollarini aniqlash.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Tajribaning bajarilishi.** Tekshirish muvaffaqiyatli o'tishi uchun osoyishta, ishchan sharoit zarur. O'qituvchi o'quvchilar bajarishi kerak bo'lган topshiriqni aniq tushuntiradi:

**Ko'rsatma:** "Hurmatli o'quvchilar, quyidagi xar – bir so'rovnoma ga bиринчи navbatda sihfdoshlaringizning orasidan eng zukkosini familiyasini yozing, undan keyin ikkinchi o'rindagisi va uchinchi o'rindagisini familiyasini yozing. Basharti o'zingiz shu o'rnlarni biriga mos bo'lsangiz familiyangizni yozing.

A. Kimlar sinfda matematika, informatika, texnik uskunalar bilan shug'ullanishni yoqtiradilar yoki fizikadan eng yaxshi biladilar?

B. Kimlar sinfda biologiya, ximiya yoki geografiyadan eng yaxshi biladilar, tabiat va odam organizmiga qiziqadilar?

V. Kimlar sinfda eng ko'p badiiy, yoki tarixiy adabiyot o'qiydilar, yozma ishlar va insholarni yaxshi, xatosiz yoza oladilar?

G. Kimlar sinfda san'at sohasida katta yutuqlarga erishgan, masalan yaxshi rasm chiza oladi, musiqa asboblarini katta mahorat

bilan chala oladi, kuchli badiiy did va xavasga ega, she'rlar mashq qiladi?

D. Kimlar sinfda jamoat ishlari bilan ko'proq shug'ullanadi, jamiyatshunoslik, tarix, iqtisod, huquq masalalarini yoqtiradi?

E. Kimlar sinfda eng dono, o'qimishli va tillarni o'rganishga katta havas bilan intiladi, o'z ustida ko'p ishlaydi?

J. Darslardan qiyinchilik tug'ilganda sinf doshlaringizdan kimlarga murojaat qilgan bo'lardingiz (kimlardan maslahat so'ragan bo'lardingiz), yani kimlar barcha predmetlardan juda yaxshi biladilar va yaxshi tushuntira oladilar?

10—15 minutdan so'ng talabalardan javob varaqlari yig'ishtirib olinadi. Olingan ma'lumotlarning to'g'rilingiga ishonch hosil qilish uchun bu ishni bir necha marta takrorlash kerak. Takroriy tekshiruv sun'iy bo'lib qolmasligi uchun uni boshqacharoq formada, masalan, savol-javob tarzida og'zaki o'tkazsa ham bo'ladi.

Nº	F.I.O.	Tanlov o'rni, Ko'rsatgichlar, Ballar	N Ovozlar soni	M Yig'indi	K Kooeft sent
1.					
2.					
3.					

**Natijalar tahlili.** Natijalarni ishlab chiqish turlicha, ya'ni tanlash miqdorini ishlash oddiy, jo'n hisoblashdan to keng statistik analizgacha bo'lishi mumkin. Buning uchun bir-birini o'zaro to'ldiradigan grafik usuli mavjud:

No	F.I.O.	Tanlov o'rni Ko'rsatgichlar Ballar	N Ovozlar soni	M Yig'indi	K Kooeft sent
1.	Axmedov	1,2,1,3,1,2,1,3,1,1,2,1,3,2,1,1	18	31	1.7
2.	Valiev	2,3,2,3,2,2,2,			
3.	Dolimov	3,3,3,2,			

O'quvchilarni tekshirishning birinchi natijalariga yakun yasayotib, quyidagilarni aniqlashlari lozim:

1. Shaxslararo munosabatning shakllanishida u yoki bu o'quvchilarning ma'lum bir o'rinda bo'lishini nima ta'minlaydi?
2. Ayrim o'quvchilarning mavqeji jamoaga to'la ta'sir ko'rsatadimi?
3. Yulduz (zukko) shu sindfa haqiqatan peshqadamlik qiladimi?
4. Hech kim tanlamaganlarning jamoadagi mavqeini qanday aniqlasa bo'ladi?
5. Ajralib qolgan guruhlar (kichik gruppalar) borligini qanday tushuntirish kerak?

#### 7 - mashg'ulot.

### MAVZU: O'SMIRLARDA SHAXSIY HOVOTIRLIK DARAJASINI OLCHASH

**Maqsad:** A.Prixojan testi asosida o'smirlarda shaxsiy hovotirlikni darajasini aniqlash.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

Mazkur shkala – so'rovnama A.M.Prixojan tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 8 – 9 sinf o'quvchilarining xavotirlanuvchanlik darajasini o'rganishda qo'llanilishi mumkin. Metodikaning e'tiborli jihat shundaki, uning yordamida o'quvchi hayotining qaysi sohasi unda ko'proq xavotir uyg'otishini aniqlash mumkin. So'rovnama matnida 30 xil vaziyat tasvirlangan. Tekshiriluvchi ushbu vaziyatlar uning uchun qanchalik yoqimsiz ekanini bildirishi kerak.

**Ko'rsatma.** Quyida siz hayotda uchratadigan turli vaziyatlar sanab o'tilgan. Ularning ba'zilari sizga yoqimsiz bo'lishi, sizda xavotir, tahlika, qo'rquv uyg'otishi mumkin. Vaziyatlar sizga qanchalik yoqimsiz ekanini 0,1,2,3,4 raqamlaridan foydalanib belgilang. Bunda: 0 – vaziyat sizga hech ham yoqimsiz emas; 1 – vaziyat sizni biroz xavotirga soladi; 2 – vaziyat shunchaki, siz undan nariroq bo'lishni istaysiz; 3 – vaziyat sizga judayam yoqmaydi, sizda kuchli xavotir uyg'otadi; 4 – vaziyat sizda kuchli qo'rquvni uyg'otadi, siz unga chiday olmaysiz.

## Metodikaning matni

1	Doska oldida javob berganiningda	0, 1, 2, 3, 4
2	Notanish kishilar uyiga borganingda	0, 1, 2, 3, 4
3	Musobaqalarda, konkurslarda qatnashganingda	0, 1, 2, 3, 4
4	Maktab direktori huzuriga chaqirilganingda	0, 1, 2, 3, 4
5	O'z kelajaging haqida o'ylaganiningda	0, 1, 2, 3, 4
6	O'qituvchi kimni chaqirmsam ekan deb jurnalni varaqlaganda	0, 1, 2, 3, 4
7	Seni nimadadir ayblashganda	0, 1, 2, 3, 4
8	Biror ish qilayotganingda senga tikilib turishganda	0, 1, 2, 3, 4
9	YOzma nazorat ishi yozayapganingda	0, 1, 2, 3, 4
10	O'qituvchi yozma ish natijalarini o'qib berayoitganda	0, 1, 2, 3, 4
11	Senga e'tibor berishmay qo'yishganda	0, 1, 2, 3, 4
12	Sen o'yagan narsalar amalga oshmayotgan bir payida	0, 1, 2, 3, 4
13	Ota-onangni ota-onalar yig'ilishidan qaytishini kutayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
14	Seni muvaffaqiyatsizlik, mag'lubiyat kutayotganda	0, 1, 2, 3, 4
15	Ortingdan kulgi eshitganingda	0, 1, 2, 3, 4
16	Maktabda (kollejda) imtihon topshirayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
17	Sababsiz sendan hafa bo'lishganida	0, 1, 2, 3, 4
18	Ko'pchilik o'rtasida so'zga chiqqaniningda	0, 1, 2, 3, 4
19	Muhim qaror qabul qilayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
20	O'qituvchining tushuntirishlarini tushunmayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
21	Seni tushunmay, qarshilik ko'rsatishganida	0, 1, 2, 3, 4
22	O'zingni o'zgalarga solishtirayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
23	Seni qobiliyatning tekshirishayotganida	0, 1, 2, 3, 4
24	Senga yosh boladek munosabatda bo'lishganida	0, 1, 2, 3, 4
25	Darsda o'qituvchi senga to'satdan savol bergenida	0, 1, 2, 3, 4
26	Sen kelgach, bolalar gaplarini to'xtatib qo'yishganida	0, 1, 2, 3, 4
27	Sen bajargan ish baholanayotganida	0, 1, 2, 3, 4
28	O'z ishlaring haqida o'layayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
29	O'zing uchun muhim bo'lgan biror qaror qabul qilayotganingda	0, 1, 2, 3, 4
30	Uy vazifalarini bajaraolmayapganingda	0, 1, 2, 3, 4

### Xavotirlanish turlari va ularga mos keluvchi vaziyatlarning tartib raqamlari

Xavotirlanish turi	Xavotirlanish turiga mos keluvchi vaziyatlar tartib raqami
Maktab bilan bog'liq xavotirlanish	1 4 6 9 10 13 16 20 25 30
O'z-o'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanish	3 5 12 14 19 22 23 27 28 29
SHaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlanish	2 7 8 11 15 17 18 21 24 26

Natijalarni hisoblash va baholashda avval xavotirlanishning har bir turi bo'yicha ballar yig'indisi hisoblab chiqiladi Xavotirlanishning har bir turi bo'yicha to'plangan ballarni o'zaro qo'shish bilan umumiy ball topiladi. So'ngra olingen ko'rsatkichlar I – jadvaldagi standartlar asosida baholanadi.

Xavotirlanish turi	Xavotirlanuvchanlik darajalari (ballarda)				
	Me'yorda	Biroz yuqori	YUqori	O'rta yuqori	Xaddan tashqari
Maktab bilan bog'liq xavotirlanish	5 – 18	19 – 24	25 – 30	31	5 dan kam
O'z – o'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanish	7 – 19	20 – 25	26 – 31	32	7 dan kam
SHaxslararo munosabatlar bilan sog'liq xavotirlanish	6 – 18	19 – 25	27 – 32	33	6 dan kam

### 8 - mashg'ulot.

#### MAVZU: O'SMIRLARDA KASBIY USTANOVKALARNI ANIQLASH

Maqsad: I.M.Kondakov testi asosida o'smirlarda kasbiy ustanovkalarni aniqlash

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer

Ko'rsatma: Berilgan jumlalarni diqqat bilan (lozim bo'lsa, qayta-qayta) o'qib chiqing. Har bir topshiriq kasb tanlayotgan yoshlarning ruhiy holatini tavsif etuvchi 5 ta jumladan iborat. Ularning ba'zilari Sizdag'i vaziyatga ko'proq mos kelsa, boshqalari Sizdan uzoqroq yoki Sizni tafsif etmaydi. Sizdan mazkur jumlalarni o'zingizga yaqin - uzoqligiga ko'ra tartiblab chiqish so'raladi. YA'ni Sizni eng ko'p xarakterlaydigan jumlaning tartib raqami javob varaqasining 1-katakchasiiga, ikkinchi navbatda mos keladigan jumlaning tartib raqami esa 2-katakchaga yozib qo'yiladi va hokazo. Demak, Sizga nisbatan eng "uzoq" fikr ifoda etilgan jumlaning tartib raqami - 5-katakchaga kiritiladi.

	1- ustun	2-ustun	3-ustun	4-ustun	5-ustun	Um.yig'indi
1-lar soni	$0 \times 5 = 0$	$0 \times 4 = 0$	$1 \times 3 = 3$	$2 \times 2 = 4$	$5 \times 1 = 5$	12
2-lar soni	$1 \times 5 = 5$	$0 \times 4 = 0$	$1 \times 3 = 3$	$5 \times 2 = 10$	$1 \times 1 = 1$	19
3-lar soni	$2 \times 5 = 10$	$3 \times 4 = 12$	$3 \times 3 = 9$	$0 \times 2 = 0$	$0 \times 1 = 0$	31
4-lar soni	$2 \times 5 = 10$	$4 \times 4 = 16$	$1 \times 3 = 3$	$0 \times 2 = 0$	$1 \times 1 = 1$	30
5-lar soni	$3 \times 5 = 15$	$1 \times 4 = 4$	$2 \times 3 = 6$	$1 \times 2 = 2$	$1 \times 1 = 1$	28

## NATIJALARINI HISOBBLASH

Kasbiy u stanokalar	Hom ball	YAkuniy ball								
		1	2	3	4	5	6	7	8	9
1. Qat'iyatsizlik		-7	8-	11-	13-	16-	183	213	243	26+
2. Ratsionallik(oqilona)		-20	21-	23-	25	26-	283	30-	32-	34+
3. Optimistik munosabat		33	24	233	27	283	30	31-	33	34+
4.O'zini yuqori baholash		-17	18-	20-	22-	24-	273	29-	31-	33+
5.Boshqalarga bog'liqlik		-14	15-	17	18-	203	22	233	25	26+

### 9 - mashg'ulot.

#### **MAVZU: O'QUVCHI — YOSHLARNI KASBIY QIZIQISHLARINI O'RGANISH**

**Maqsad:** A.E.Golomshtokning «Qiziqishlar xaritasi» metodikasi asosida o'quvchi — yoshlarni kasbga yo'naltirishda ustvor kasbiy qiziqishlarini , ularning layoqat yo'nalishlarini, moyilliklarini aniqlash

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

#### Metodikaning ishlatalishi

Ushbu so'rvnoma sinaluvchnlarning u yoki bu faoliyat turiga qiziqish darajasini aniqlashga mo'ljallangan. Uning yordamida olingan ma'lumotlarga asoslangan holda yuqori sinf o'quvchilariga (8-9 sinflar) kasb tanlash, kasbga yo'llash masalalariga oid maslahatlar berish maksadga muvofiq bo'ladi.

Bu so'rvnoma bilan ishslashda psixolog oldindan barcha sinaluvchilarga etadigan mikdorda javob varaqasi (I shakl) tayyorlab olishi kerak bo'ladi. So'ng tadqiqotni sinaluvchilarga beriladigan quyidagi ko'rsatma bo'yicha amalga oshiradi So'rvnoma matnini har bir sinaluvchiga alohida qilib berish ham mumkin, lekin ularni javob berish vaqtি chegaralanganligi haqida ogohlantirib qo'yish kerak (15-20 daqiqagacha). Tadqiqot davomida sinaluvchiga qulay sharoitni yaratish, unga xalakit beruvchi omillarni bartaraf etish, psixodiagnostik tadqiqotlar olib borish talablariga qat'iy amal kilish lozim.

#### **Ko'rsatma:**

«Sizing e'tiboringizga havola etilayotgan ushbu savollarnnng birontasini ham qoldirmay barchasiga kuyidagi tartibda javob bering:

- agar sizga savolda berilgan mashg'ulot bilan shug'ullanish juda yoqsa, unda javoblar uchun berilgan varaqadagi anketani shu savolning tartib raqami keltirilgan joy ostiga ikkita plyus «+ +» belgisini qo'ying;
- agar shunchaki yoqsa bitta plyus «+»;

- savolda aytilgan mashg'ulotga besarq bo'lsangiz yoki biron nima deyishga qiyalsangiz - nol «0»ni;

- agar u mashg'ulot sizga yoqmasa - bitta minus « - » belgisini qo'ying.
- Agar u mashg'ulot sizga umuman yoqmasa « - - » belgisini qo'ying.

### SIZ YOQTIRASIZMI? SIZGA YOQADIMI?

1. «qizikarli fizika», «Fiziklar kulishganda» kabi qiziqarli kitoblarni o'qish.
2. «qiziqarli fizika», «Matematik dam olish» kabi kitoblarii o'qish.
3. Radiotexnika sohasidagi yutuqlar haqida yozadigan ilmiy-ommabop jurnallar bilan tanishib chiqish.
4. «YOSH texnik», «Texnika va yoshlar» kabi texnikaga oid jurnallarni o'qish.
5. Ximiyadagi kashfiyotlar haqida, buyuk (mashxur) ximiklar xayoti va faoliyati haqida o'qish.
6. O'simliklar va xayvonlar xayoti haqida o'qish.
7. Odamlar kasalliliklarga qarshi kurashishni qanday o'rganganliklari haqida, tabiblar, vrachlar haqida, tibbiyot soxasidagi yutuklar haqida o'qish.
8. Kitoblar orqali, birovlarning hikoyasi orqali va geografik xaritalar bo'yicha turli mamlakatlar bilan tanishib chiqish.
9. Tarixiy shaxslar va voqeа, hodisalar haqida o'qish.
10. Jahon adabiyoti klassiklari asarlarini o'qish.
11. San'atning rivojlanishi tarixi bilan qiziqish, opera, simfonik, jaz musiqalarini tinglash.
12. Maktab hayoti haqida (tarbiyachi, o'qituvchi, etakchilar haqida) kitoblar o'qish.
13. Pazandalik san'ati, kiyimlarning fasonlarini yaratish, mebellarni yaratishga qiziqish.
14. Urushlar va janglar haqida kitoblar o'qish.
15. Sportga oid gazeta-jurnallarni o'qish, sport va mashxur sportchilar haqidagi kitoblarni o'qish.
16. Fizikadagi kashfiyotlar, mashxur matematiklar xayoti va faoliyati haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlarga qiziqish.
17. Matematikadagi kashfiyotlar, mashhur matematiklar hayoti va faoliyati haqidagi adabiyotlarni o'qish.
18. Elektr va radio asboblarining tuzilishini aniqlash.
19. Texnika ko'rgazmalariga borish yoki texnika yangiliklariga oid ko'rsatuvlarni tomosha qilish.
20. Tabiatdagi ximiyaviy xodisalarni topish (aniqlash, kuzatish), ximiya bo'yicha tajribalar o'tkazish, ximiyaviy reaktsiyalarining borishini kuzatish.
21. Botanika, zoologiya, biologiyani o'rganish.

22. Odam organizmining tuzilish xususiyatlari va vazifalari (funktsiyalari) bilan tanishish.
23. Yangi foydali qazilma konlarini qidirib topish haqida bilish, o'rganish.
24. Respublikamizda va chet ellarda ro'y berayotgan siyosiy voqealarni muhokama qilish.
25. Badiiy-tanqidiy makolalarni o'qish.
26. Kinofilmlar, teatr asarlari, badiiy kurgazmalarni muhokama qilish
27. Bolalar va o'smirlar tarbiyasiga oid masalalarni muhokama qilish, o'z do'stingiz, sinfdoshlariningiz, kichik yoshdag'i bolalardan biron-bir kishiga o'z xulqini tuzatish borasida kanday yordam berish mumkinligini bilish.
28. Uyda, mакtabda, sinfda qulaylik yaratish haqida o'ylash (qayg'urish), o'z xonangizni tartibga keltirish.
29. Xarbiy texnika bilan tanishish.
30. Sport musobakalari bellashuvlariga borish, ularda ishtirok etish.
31. Fizika bo'yicha tajribalar o'tkazish.
32. Matematik masalalar (vazifalar)ni echish.
33. Radioapparatlar sxemalarni o'rganish.
34. Texnik chizmalar va sxemalarni o'rganish o'qish.
35. Ximiyaviy aralashmalarni tayyorlash, reaktivlarni o'lchash.
36. Bog'da, tomorqada ishlash, o'simliklar, xayvonlarga qarash, ularni parvarish qilish, boqish.
37. Turli xastaliklarning (kasalliklarning) yuzaga kelish sabablarini o'rganish.
38. Minerallar kollektiviyasini yig'ish
39. Xalqlar va davlatlarning yuzaga kelish tarixini o'rganish.
40. Chet tili (tillari)ni o'rganish.
41. Sahnada o'ynash (rol o'ynash), qo'shiq aytilish, tomosha ko'rsatish.
42. Kichkintoylarga kitob o'qib berish, ularga nimanidir kilishda yordam berish, ularga ertaklar ayтиб berish.
43. Kiyimlarii tikish, to'qish yamash, ovkat tayyorlash, uydagi maishiy asboblar va qurilmalar, mebel va shu kabilalarin tuzatish, takomillashtirish va tayyorlash.
44. Harbiylashtirilgan o'yinlarda, yurishlarla, poxodlarda, mashg'ulotlarda ishtirok etish.
45. Sport o'yinlarini o'ynash.
46. Fizika to'garaklarida shug'ullanish.
47. Matematika to'garaklarida shug'ullanish.
48. Elektr asboblarini tuzatish va elektr simlarini ularash.
49. Turli xil mexanizmlarni tuzatish va yig'ish
50. Ximiya to'garaklarida shug'ullanish (ximiya bo'yicha fakultativlarni o'rganish).
51. Biologiya to'garaklarida shug'ullanish (biologiya bo'yicha fakultativlarni o'rganish).
52. Meditsina hamshirasi va vrach ishlari bilan tanishish.
53. Geologik va geografik xaritalar tuzish.

54. Tarix muzeylariga borish, madaniy yodgorliklar bilan tanishish, arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etish.
55. O'z fikringiz, kuzatishlaringizni yozma bayon etish, kundalik yuritish (kundalik daftар tutish).
56. Drama to'garagida shug'ullanish.
57. Agar o'rtoqlaringiz o'quv vazifalarini bajarishda qiynalishayotgan bo'lsalar, ularga o'quv vazifalarini qanday bajarish lozimligini tushuntirib berish.
58. Odamlarga turli xizmatlarni ko'rsatish (oyoq kiyimlarini tuzatib berish, suratini olib berish, sochini chnroyli qilib tarash, turmaklashga yordam berish va sh. k.).
59. Harbiy o'yinlarda, mashqlarda ishtirok etish.
60. Sport musobakalarida ishtirok etish.
61. Fizikadan olimpiadalarda ishtirok etish.
62. Matematikadan ko'rikarda, olimpiadalarda ishtirok etish.
63. Radio apparatlarini yig'ish va tuzatish.
64. Samolyotlar, uchuvchi apparatlar, kemalar yoki shunga o'xshash narsalarning modellarini yasash.
65. Ximiyanadan olimpiadalarda ishtirok etish.
66. Biologiyadan olimpiadalarda ishtirok etish.
67. Bemorlarga qarash.
68. Biron bir geografik joyning topografik tasvirini (s'jomkasini) olishda kattalarga yordam berish yoki uni o'zingiz kilishingiz.
69. Tarix bo'yicha ma'ruza qilish, tarix (yoki arxeologiya) to'garagida shug'ullanish.
70. Adabiyot yoki lingvistika to'garagida shug'ullanish.
71. Musiqa asbobida o'ynash, rasm chizish, yog'ochdan kesib narsalar tayyorlash.
72. Guruh etakchisi ishini bajarish.
73. Oila byudjetini rejalashtirish (iqtisod qilish) ni o'yplash.
74. O'yingohlarda, sayr-sayoxatlarda (poxodlarda) tashkilotchi etakchi (komandir) bo'lism.
75. Sport sektsiyasida shug'ullanish.
76. Fizikadagi yangi kashfiyotlar haqida ma'ruzalar qilish, fizika bo'yicha «quvnoqlar va zukkolar» konkursini (QZK, KVN) tashkil etish.
77. Matematikadan konkurslar tashkil kilish.
78. Radio to'garaklarida shug'ullanish.
79. Texnika ko'rgazmalarini, texnik ijodkorlik ko'riklarini tashkil kilishda ishtirok etish va qatnashish.
80. «Ximiya atrofimizda» kabi kechalarni tashkil qilishda ishtirok etish va qatnashish.
81. Biologiyadan tajriba ishlarini o'tkazish.
82. Hamshiralardan (sanitarlar) to'garagida ishtirok etish.
83. Geografik va geologik ekspeditsiyalarda ishtirok etish

84. YAshab turgan joyingizni o'rganpsh maqsadida o'tkaziladigan sayoxatlarni tashkil qilishda qatnashish va ularda ishtirok etish.
85. Adabiy kechalarining stsenariysini yozish, adabiy yubileylar, bayramlarni tashkil qilish.
86. Badiiy havaskorlik konkurslarida, olimpiadalarida ishtirok etish.
87. Bolalar uchun uyinlar va bayramlar tashkil kilish.
88. Sayoxatlar vaqtida ovqat tayyorlash yoki barcha sayoxatchilar (sayoxatda ishtirok etayotganlar) uchun zarur bo'lgan barcha qulaysiliklarga ega bo'lган dam olish joylarini jihozlash, suratga olish, suratlarini chiqarish.
89. Harbiy ishni o'rganish.
90. Kichik yoshdagи bolalarni sektsiyalarda, sport jamoalarida shug'ullantirish.

#### Natijalarni qayta ishlash.

Sinaluvchilar so'rovnoma javob berib bo'lganlardidan so'ng javob varaqasi bo'yicha natijalar qayta ishlab chiqiladi. Bunda har bir ustun bo'yicha (vertikal) va qator (gorizontal) bo'yicha «+»lar yig'indisi hisoblab chiqiladi.

U yoki bu ustun bo'yicha «+»lar miqdorining ko'pligi sinaluvchida shu sohaga qiziqishning ustun ekanligini bildiradi.

Bunda: I - fizika, 2 - matematika, 3 - elektroradiotexnika, 4- texnika, 5- ximiya, 6 - biologiya va qishloq xo'jaligi, 7 - tibbiyot, 8- geografiya va geologiya, 9 - tarix, 10 - jurnalistika, 11 - san'at, 12 - pedagogika, 13- maishiy xizmat soxasidagi mehnat, 14 - harbiy ish, 15 - sport.

Qiziqishlarning turg'unlik darajasini javob varaqasining ko'ndalang (gorizontal) qatorlaridagi «+»lar miqdori bilan aniqlanadi. Agar ularning soni I-II - qatorlar bo'yicha eng ko'p bo'lsa, unda bu sinaluvchida faoliyatning u yoki bu sohasi bilan tanishib chiqish xoxishi mavjud ekanligini bildiradi; agar III-IV qatorlar bo'yicha «+»lar miqdori ko'p bo'lsa, bu sinaluvchida o'zi qiziqqan predmet bo'yicha yanada chuqurroq bilishga intilish mavjudligini bildiradn; agar V-VI - qatorlar bo'yicha «+»lar miqdori oldingi juftliklardagilardan ko'p bo'lsa, bu sinaluvchining o'zi qiziqqan sohasi bo'yicha faol amaliy ishlarga (mashg'ulotlarga) kirishganligidan, uning qiziqishlari moyillikka aylanganligidan dalolat beradi.

Amaliyotchi psixolog mazkur so'rovnoma yordamida olingen natijalarning validligini sinaluvchining qiziqishlari va moyilligi xususiyatlarini aniqlash nmkoniyatini beradigan boshqa psixodiagnostik vositalar yordamida tekshirib ko'rishi mumkii. Bunday vositalarga E.A. Klimov tomonidan taklif etilgan «Differentsial-diagnostik so'rovnoma» kabi metodikalar misol bo'la olishi mumkin.

**MAVZU: O'QUVCHILARNING TARBIYALANGANLIK  
DARAJASINI O'RGANISH**

**Maqsad:** YOsh avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash, tarbiyasi og'ir o'quvchi-yoshlar tarbiyasidagi salbiy burulishlarni o'z vaqtida oldini olish, ularning shaxsi, o'ziga, jamiyat va odamlarga bo'lgan munosabatlarini o'rganish.

So'rovnomada natijalarini, analitik taxlil etish hamda ijtimoiy muhit(oila, maktab, ommaviy axborot vositalari, maktabdan tashqari)ning shaxs ta'lim tarbiyasi jarayoniga ta'sirni o'rganish, intellektual rivojlanishda yangicha jahon talablariga hamda milliy mentalitetimizga mos keladigan tarbiya usullarini tanlash va ish jarayonida unumli foydalanishdan iborat.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

No	1 - BO'LIM SAVOLLARI
1	Har - xil avlod vakillari, haqiqatdan ham, bir – birini tushunishi qiyin, deb o'ylaysizmi?
2	Ota-Onangizni fikrini doim inobatga olasizmi?
3	Sizda ota-onangiz va opa-akalaringizning fikrlarini rad etish holatlari ham uchrab turadimi?
4	Biron-bir ish qilishdan oldan siz ota – onangiz (oila a'zolaringiz) bilan maslahat qilasizmi?
5	Siz tufayli oilangizda yoki maktabda turli nizolar paydo bo'lib turadimi?
6	Ota – onangiz oldida farzandlik burchingizni ado etishda doimo ma'sulyatni his qilasizmi?
7	Ota – onangizdan shaxsiy xarajatlarining ortiq pul talab qilasizmi?
8	Sizda vaziyatdan chiqish uchun oila a'zolaringiz (ota-ona, opa- singil, aka-uka)ga yolg'on gapirish holatlari uchrab turadimi?
9	Muammolaringiz yuzasidan oila a'zolaringiz bilan o'rtoqlashasizmi?
10	Oilangizda sizning fikringiz inobatga olinadimi?
No	2 - BO'LIM SAVOLLARI
1	Ota – Onangiz o'quv faoliyatizingiz xususida sizga tanbex berishadimi yoki maktabga ular ning qistovi bilan borasizmi?
2	Fanlardan beriladigan uy vazifalarini mustaqil, o'z vaqtida va muntazam bajarasizmi?
3	Ustozlaringizni siz xaqingizdagи fikrlarini har doim ham to'g'ri deb hisoblaysizmi?
4	Siz maktabda bo'ladijan tadbirdarga, jamoat ishlariда qatnasha sizmi?
5	Maktabda o'qish birinchi vazifam va maktabdagи yutuqlaringiz tirishqoqligizinga bog'liq deb o'ylaysizmi?
6	Sizning bilimingiz o'qituvchi tomonidan haqqoniy baholanadimi?
7	O'z bilimingizni oshirish maqsadida maktab to'garaklariga va qo'shimcha kurslarga qatnashishga ehtiyoj sezasizmi?

8	O'z bilimingizni oshirish uchun aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar Sizga yoqadimi?
9	O'quv fanlarini bo'sh o'zlashtirishda o'zingizni aybdor deb hisoblaysizmi?
10	Bilimli inson omadli bo'ladi deb o'ylaysizmi?
<b>3 - BO'LIM SAVOLLARI</b>	
1	O'rtoqlaringiz bilan dam olish vaqtlaningizni mazmunli o'tkazishga harakat qilasizmi?
2	Tengdoshlaringiz erishgan yutuqlaridan xursand bo'lasizmi?
3	Atrofdagilar bilan kelishgan holda barcha masalalarni maslahat lashib hal etasizmi?
4	Yutuq va muvaffaqiyatsizliklaringiz boshqalar tomonidan to'g'ri baholanadimi?
5	O'z kechinmalaringizni tengdoshlaringiz bilan u kim bo'lishidan qat'iy nazar o'rtoqlashasizmi?
6	Tengdoshlaringiz biror ish yoki o'qish yuzasidan muammoni hal etishda yordam berishingizni iltimos qilganda, ensangiz qotadimi?
7	Tengqurlaringiz o'tasida mas'uliyatni o'z zimimangizga olishda o'zingizni olib dochish hollari ham uchraydimi?
8	Tengqurlaringiz erishgan yutuqlarga Siz ham qanday qilib yaxshiroq, tezroq, kam vaqt va kuch sarflab bajarish mumkinligi haqida o'ylab ko'rganmisiz?
9	Tengdoshlaringiz yolg'on gapirganini sezsangiz, o'g'irlilik qilsa yoki giyoxvand modda istemol qilganini bilsangiz o'rtoq'ingiz yoki dugonangizga tanbeh berasizmi?
10	Do'stlaringiz bilan (diskoteka, tungi klub) va shunga o'xshash joylarga borish sizga yoqadimi?
<b>4 - BO'LIM SAVOLLARI</b>	
1	Sizda kelajakka umidsizlik hissi paydo bo'lgan holatlар uchraydimi?
2	Kayfiyatning o'zgarib, shodlik o'rnini g'am egallashi hollari uchraydimi
3	Muvaffaqiyatsizlikka uchraganagingizda maqsadga erishishning osonroq yo'llarini qidirishga kirishasizmi?
4	Tanbejni xotirjamlik bilan qabul qilib, xatolarni tezda to'g'rilashga harakat qilasizmi?
5	Sizda ba'zida o'zingizni boshqara olmaslik holatlari uchrab turadimi?
6	Sizda yolg'iz qolish istagi tug'ilib turadimi?
7	O'zingizni keraksiz odamday his qilasizmi?
8	Ertalab uyqudan o'yg'onganda o'zingizni og'ir his qilasizmi?
9	O'rtoqlaringiz (dugonangiz) orasida sizga nisbatan ko'raolmaslik, g'arazgo'ylik borligini sezasizmi?
10	Ko'pincha qo'rquv, qayg'u hislарidan ozor chekasizmi?
<b>5 - BO'LIM SAVOLLARI</b>	
1	Gazeta va jurnallarda, jinoiy voqeada beayb inson javobgarligini o'qisangiz, o'sha insonga befarg bo'la olasizmi?
2	Sizning hayotiningizda internet muhim o'rin tutadimi?

3	Axborot vositalarida (televideenie, radio) yoshlarning hayoti va dunyo qarashlari to'la aks ettirilmogdami?
4	Sizning kompyuter o'yinlariga qiziqishingiz turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
5	Ko'p miqdorda namoyish etilayotgan jangari va qo'rqinchli kinofilm lar inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysizmi?
6	Sizga gazeta yoki kitob o'qishdan ko'ra, kino hamda videofil'm(kino seriallar)lar tomosha qilish yoqadimi?
7	Siz biror bir film tomosha qilayotganda shu film voqealari, qahramon lari kechinmalari bilan birga bo'lasizmi?
8	Siz har bir ko'rsatuva eshittirishdan, gazeta sahifalaridagi maqolalardan o'zingiz uchun xulosa chiqara olasizmi?
9	Shaxsnинг shakllanishida ommaviy axborot vositalarining o'rni kata deb o'ylaysizmi?
10	Siz hayot saboqlarini ta'lim muassasalaridan ko'ra ko'proq ommaviy axborot vositalaridan olasizmi?

#### **6 - BO'LIM SAVOLLARI**

1	Doim "etti o'lchab, bir kesish" «Avval o'ylab, keyin so'ylash» qoidalariga rioya etasizmi?
2	Dunyoda bo'layotgan global muammolar (spid, narkomaniya) ning oldini olishga yordam bera olaman deb o'ylaysizmi?
3	Inson hayotidagi erinchoqligi, malaka, ko'nikma va bilimga ega bo'lmay turib kelajakda muvaffaqiyatga erishishi mumkinmi?
4	Tug'ilib o'sgan joyingizni rivojlanishi uchun o'z hissangizni qo'shishga tayyormisiz?
5	Inson tarbiyasi uchun diniy bilimga ega bo'lish kerak deb o'ylaysizmi?
6	Sizningcha insonlar doimo bir-birlariga ko'mak berishlari kerak deb o'ylaysizmi?
7	Sport to'garaklariga qatnashish Sizning jismoniy chiniqishingizga yordam beradi deb hisoblaysizmi?
8	Xulq-atvor me'yorlari va qonun-qoidalariga rioya qilasizmi?
9	Ijtimoiy hayotning rivojlanishiga putur etkazuvchi har qanday vaziyatga qarshilik ko'rsata olasizmi?
10	Milliy urf-odatlar va qadriyatlarga amal qilish har bir insonning burchi deb o'ylaysizmi?

#### **7 - BO'LIM SAVOLLARI**

1	O'z so'zingiz va va'dangizni bajarishga qodirman deb o'ylaysizmi?
2	O'z zimmangizdagi majburiyat va vazifalarni to'la-to'kis bajarayapman deb o'ylaysizmi?
3	Hech qachon, hech narsada adashmayman deb o'ylaysizmi?
4	Shaxsiy mansaatlaringizni o'zgalar manfaatlaridan ustun qo'yasizmi.
5	O'zaro munosabatlarda o'zingizni madaniyatli tutasizmi?
6	Har qanday xarakter xususiyatga ega bo'lgan insonlarga to'g'ri baho bera olasizmi?
7	O'z-o'zingizga va hatti-harakatingizga to'g'ri baho bera olasizmi?

8	Har bir ishga qo‘l urish uchun faqat o‘z kuchingiz va bilimingizni, zarur deb hisoblaysizmi?
9	Muvaffaqiyatsizlikka uchraganingizda o‘zingizni aybdor deb hisoblaysizmi?
10	Yorqin taassurotlarni va ularni tez – tez almashinishini yoqtirasiz-u, lekin bunga jon – jahdingiz bilan intilmasligingiz rostmi?

**O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish metodikasini qayta ishlash va sharxlash.**

O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o‘rganish metodikasi 7 ta toifaga bo‘linadi:

1. **Oila** – tarbiyalanganlik darajasiga oilaviy muhitning ta’siri (ota-onा va farzand, aka-uka va opa-singil munosabatlari)ni
2. **Maktab** – ta’lim olish jarayoni ta’siri (o’qituvchi – o‘quvchi, o’qituvchi – ota-onা, o‘quvchi – ota-onা munosabatlari, ma`naviy ma’rifiy tadbirlarga munosabatlari).
3. **Tengdoshlari** – tengdoshlarining (sinfdoshlari, mahalladoshlari, shaxslararo munosabat) ta’sirini.
4. **Suitsid** – o‘quvchilarning ruhiy holatlari (stress, affekt, zo’riqish, siqilish va x.k)ni o‘rganish orqali o‘z jonimga qasd (suitsid) qilishga moyilligini aniqlash hamda ular uchun korreksion, psixologik-pedagogik tadbirlar ishlab chiqish va amalga tadbiq etish.
5. **Ommaviy axborot vositalari** – o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasiga (radio, televidenie, internet) ommaviy axborot vositalarining ta’siri .
6. **Ijtimoiy fikr** – o‘quvchilarning ijtimoiy fikrini o‘rganish (vatanga, oilaga, bilim olishga, dinga, turli sohalarga bo‘lgan munosabatlari)
7. **O‘z-o‘ziga baho** – o‘quvchi shaxsning kundalik faoliyatida ro‘y beradigan voqeа-xodisalarga nisbatan munosabati orqali o‘z-o‘zini anglashi va o‘z imkoniyatlariga to‘g’ri va holisona baho berishlarini o‘rganish.

*Baholash tartibi:* Javob varaqasidagi <<Ha>> javobi uchun 3 ball, <<Yo‘q>> javobi uchun 1 ball va <<ba’zida>> javobi uchun 2 ball qo‘yiladi. 30-25 - ball – yuqori, 20-24 – ball – o’rtा, 19 - balgacha- past ball. Har bir olingan javob varaqasi o‘quvchilarning jinsi (o‘g’il, qiz) bo‘yicha ajratib olinadi, metodikada qayd etilgan (ha, yo‘q yoki bilmayman) javoblari bali hisoblanib, maktab, sinflar bo‘yicha quyida ko‘rsatilgan maxsus jadvalga soni va foizi kiritiladi.

**MAVZU: O'SPIRINLAR SHAXSINING O'ZIGA XOSLIGI**

**Maqsad:** T.Liri so'rovnomasining sifat tavsisi u yoki bu shaxslararo munosabatlarning ustuvor tiplarini aniqlash o'spirinlar shaxsining o'ziga xosligi o'rganishni ko'zda tutadi.

**Jihoz:** T.Liri so'rovnomasi , javob varaqasi, sekundomer.

SHaxs atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirning dolzarblastishgan jarayonidagi xatti-harakatlarda namoyon bo'lishiga asoslanib Timoti Liri empirik kuzatishlarni shaxslararo o'zaro ta'sirining 8 ta umumiyl, yoki 16 ta tobora konkretlashtirilgan oktantlari - variantlari ko'rinishida sistemalashtirgan. SHaxslararo xulq-atvor tiplariga muvofiq jami 128 ta anchagina oddiy tavsif-epitetlardan iborat so'rovnoma ishlab chiqilgan. Sifat tavsisi u yoki bu shaxslararo munosabatlar variantini aks etiruvchi ustuvor tiplarni aniqlashni ko'zda tutadi. Oktantlarning ifodalanganlik darajasi tegishli ballar va shaxsning ma'lum tavsiflari bilan belgilanadi. Oktantlarning qutbiy tavsiflariaga to'xtalib o'tamiz.

SHaxslararo munosabatlarning dastlabki (1, -2, -3, -4) to'rtta tipi nokonform tendentsiyalar ustunligi va dezyuktiv (konfliktli) ko'rinishlarga moyillik (3 - 4), fikrlarning ko'proq mustaqilligi va o'z nuqtai nazarini himoyalashda qatiylik, liderlik va ustuvorlik tendentsiyalari (1 - 2) bilan xarakterlanadi. Qolgan to'rtta (5, -6, -7,-8) oktant aksincha kartinani namoyon etadi: konform tendentsiyalar ustunligi, atrofdagilar bilan aloqalarda kongruentlik (7, 8), o'ziga ishnomaslik, atrofdagilar fikriga yon bosish, murosaga moyillik (5,6)ni bildiradi.

Psixogrammada oktantlar berk tuzilma sifatida berilib, uning chegaralarida shaxslararo munosabatlardagi xulq-atvor uslubiga xos xususiyatlar joylashtirilgan. Ana shu shaxslararo munosabatlardagi xulq-atvor tiplariga muvofiq tarzda 128 ta sodda, turli xarakterli xususiyatlarni aks etiruvchi epitetlar tuzilgan. Metodikaning modifikasiyalashtirilgan variantida maxsus javob varaqasi mavjud bo'lib, unda 1 dan 128 gacha bo'lgan raqamlar shunday joylashtirilganki, har bir oktant bo'yicha ballarni hisoblash deyarli avtomatlashtiriladi.

So'rovnoma bandlari bo'yicha o'z-o'zini baholar ekan, sinaluvchi tegishli xususiyatni o'zi uchun xos deb bilganida, javob varaqasida unga mos raqamni o'chirib qo'yishi, mos emas» degan fikrda bo'lsa, raqamga tegmay o'tishi kerak.

**Ko'rsatma:** "Sizning oldingizda insonga xos turli xususiyatlarni o'zida jamlagan so'rovnoma berilgan. Undagi har bir hukmni o'qib, so'ng u sizga, sizning o'zingiz haqingizdagi tasavvurlaringizga mos yoki mos emasligi tug'risida o'ylab ko'ring. Agar mos deb hisoblasangiz, javob varaqasidagi tegishli raqamni «doira» ichiga oling, mos emas deb hisoblasangiz, javob varaqasida hech qanday belgi qo'y mang. E'tiborli bo'ling!"

T. Liri so'rovnomasi.

SHunday qilib, Siz qanday odamsiz?

1. Yoqishni biladigan.
2. Atrofdagilarda taassurot qoldira oladigan.

3. Buyruq berish va ishlatishni biladigan.
4. O'z gapini o'tkaza oladigan.
5. O'z qadrini biladigan.
6. Mustaqil.
7. O'zini o'zi eplay oladigan.
8. Beparvo (e'tiborsiz).
9. Qatiyatli bo'la oladigan.
10. Qattiqqo'l lekin adolatli.
11. Samimiy bo'la oladigan.
12. Boshqalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladigan.
13. Xasrat qilishni yoqtiradigan.
14. Ko'pincha g'amgin.
15. SHubhalanadigan.
16. Ko'pincha xafsalasi pir bo'ladigan (ko'ngli qoladigan).
17. O'ziga nisbatan tanqidiy qaray oladigan.
18. O'zining nohaqligini tan oladigan.
19. Bajonidil bo'y sunadigan.
20. Ko'ngilchan.
21. Minnatdor bo'ladigan.
22. Qoyil qoluvchi va taqlidchilikka moyil.
23. Ilifotli.
24. Manzur bo'lishni xohlaydigan, ma'qullashga intiladigan.
25. Hamkorlik va yordamga tayyor.
26. Atrofdagilar bilan chiqishib ketishga intiladigan.
27. Hayrihohroh.
28. E'tiborli va muloyim.
29. Xushmuomala.
30. Ruhlantiruvchi.
31. Yordam so'raganda yordam berishga tayyor.
32. Beg'araz.
33. Maftunkor (mahliyo qila oladigan).
34. Atrofdagilar hurmatiga sazovor.
35. Rahbarlik qilish, boshqarish iste'dodiga ega.
36. Javobgarlikni yoqtiradigan.
37. O'ziga ishongan.
38. O'ziga ishongan va tirishqoq.
39. Uddaburon, (epchil va tadbirdor).
40. Raqobatchiroq.
41. Chidamli, kerak joyda qattiqligini ko'rsatadigan.
42. Qattiq qo'l, biroq beg'araz.
43. Badjahl.
44. Ochiq va bir so'zli (tug'riso'z).
45. Buyruq berishlarini ko'tara olmaydigan.
46. Skeptik, shubhaqilaveradigan.
47. Ta'sir ko'rsatishlari qiyinroq.

48. Arazchi.
49. Uyatchan.
50. O'ziga ishonmaydigan.
51. Ko'nuvchan (bo'sh keladigan).
52. Kamtar.
53. Boshqalar yordamidan ko'p foydalanadigan.
54. Martabali kishilarni juda hurmat qiladigan.
55. Maslahatlarni bajoni dil qabul qiladigan.
56. Ishonuvchan va boshqalarni xursand qilishga intiladigan.
57. Hamisha xushmuomala.
58. Atrofdagilar fikrini qadrlaydigan.
59. Muloqotga kirishuvchan.
60. Rahmdil.
61. Xushfe'l, ishonch uyg'otadigan.
62. Mayin va yumshoqko'ngil.
63. Boshqalarga g'amxo'rlik qilishni yoqtiradigan.
64. Sahiy.
65. Maslahat berishni yoqtiradigan.
66. Salobatli (hukmronlikni yoqtiradigan).
67. Kattalik - buyruqbozlik (buyruq berishni yoqtiradigan).
68. Hukmronlikka moyil.
69. Maqtanchoq.
70. Takabbur va o'ziga bino qo'ygan.
71. Faqat o'zi haqida o'ylaydigan.
72. Ayyor.
73. Boshqalar xatosini kechira olmaydigan.
74. Manfaatparast.
75. Sofdil.
76. Ko'pincha g'arazgo'y.
77. Alamzada.
78. SHikoyatchi.
79. Rashkchi.
80. Uzoq kek saqlab yuradigan.
81. O'zini-o'zi tanqid qilib qiynashga moyil.
82. Tortinchoq.
83. Tashabbussiz.
84. Beozor.
85. Mute (erksiz), nomustaqil.
86. Bo'ysunishni yoqtiradigan.
87. Hal qilishni boshqalarga qo'yib beradigan.
88. Noqulay ahvolga tushib qolishi oson.
89. Do'stlari ta'siriga berilishi oson.
90. Har kimga ham ishonaveradigan.
91. Odam tanlamay, hammaga yordam beradigan.
92. Barchani yoqtiradigan.

93. Hamma narsani kechiradigan.
94. Haddan tashqari rahmdil
95. Muruvvatli va kamchiliklarga nisbatan chidamli.
96. Barchaga yordam berishga intiladigan.
97. Muvaffaqiyatga intiluvchan.
98. Barchaning qoyil qolishini xohlaydigan.
99. Boshqalarni ishga soladigan.
- 100.Zulmkor.
- 101.Atrofdagilardan o'zini ustun qo'yadigan.
- 102.Shuhratparast.
- 103.Xudbin.
- 104.Sovuq, toshbag'ir.
- 105.Zahar, mazax qiluvchi.
- 106.Qahri qattiq, shavqatsiz.
- 107.Tez-tez jahli chiqib turadigan.
- 108.Hissiz, loqayd
- 109.Kek saqlovchi.
- 110.Hamma narsaga qarshi bo'ladijan.
- 111.O'jar.
- 112.Gumonsiraydigan va shubhalanuvchan.
- 113.Tortinchoq.
- 114.Uyatchan.
- 115.Iltifotli.
- 116.Bo'shang (landavur).
- 117.Deyarli hech kimga e'tiroz bildirmaydigan.
- 118.Shilqim.
- 119.G'amxo'rlik (homiylik) qilishlarini yoqtiradigan.
- 120.Haddan tashqari ishonuvchan.
- 121.Barchaga yoqishga (hurmat qilishlariga) intiladi.
- 122.Hammaning gapiga qo'shiladigan.
- 123.Har doim hamma bilan do'stona munosabatda.
- 124.Hammani yaxshi ko'radigan.
- 125.Atrofdagilarga o'ta muruvvatli.
- 126.Barchaning ko'nglini ko'tarishga intiladigan.
- 127.O`ziga zarar etkazsa ham boshqalarga g'amxo'rlik qiladigan.
- 128.Ortiqcha ko'ngilchanligi bilan odamlarni buzadigan.

### Natijalarni qayta ishlash.

Sinaluvchi o'zini baholab, javob varaqasini to'ldirganidan so'ng, natijalarni sakkizta oktant bo'yicha qayta ishlab ballar yig'indisi hisoblanadi va ustivor oktant aniqlanadi. Har – bir belgilangan javobga 1 (bir) ball beriladi.Oktantlar bo'yicha umumiy hisoblash «kalit» orqali amalga oshiriladi. Sifat tavsifi u yoki bu shaxslararo munosabatlar variantini aks ettiruvchi ustivor tiplarni aniqlashni ko'zda tutadi.

Oktantlarning ifodalangan darajasi tegishli ballar va shaxsning ma'lum

tavsiflari bilan belgilanadi. Oktantlarning qutbiy tavsiflarga to'xtalib o'tamiz.

1. **Hukmron - liderlik.** 0-8 ball. O'ziga ishongan, matonatli, qat'iy, yaxshi ustoz va tashkilotchi bo'lishi mumkin. Rahbarlik hislatlariga ega.  
9-12. Dominant, g'ayratli, ishlari yurishgan, maslahat berishni yaxshi ko'radi, o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lishlarini talab qiladi, tanqidga chidamsiz bo'lishi mumkin, unga o'z imkoniyatlarni ortiqcha baholash hislati xos.  
13-16. Hokimona, diktator-buyruqvoz, zulmkor xarakterga ega, hammaga o'rgatadi, gaplari didaktik shaklda, odatda birovlarning aqli va maslahati bilan yurmaydi, etakchilik qilishga, birovlarga ko'rsatma berishga, ularni boshqarishga intiladi, zulmkorlik xususiyatga ega bo'lган, birov bilan hisoblashmaydigan kuchli shaxs.
2. **Mustaqil - ustuvorlik.** 0-8 ball. O'ziga ishongan, mustaqil, o'ziga yo'nalgan, raqobatchilikka moyil tip.  
9-12. O'zidan qoniqqan, O'zini yaxshi ko'rgan, o'z qadrini biladigan shaxs. O'zini atrofdagilardan ortiq ko'radi, doimo ko'pchiliknikidan farq qiladigan o'z fikriga ega, shunga ko'ra guruhda alohida o'mi bor.  
13-16. Hammadan ustun, yuqori bo'lishga intiladi, o'ziga bino qo'ygan, hisobkitobi. Atrofdagilarga yotsirab qaraydi. Arazchi, maqtanchoq.
3. **To'g'ri - tajovuzkor.** 0-8 ball, tirishqoq, maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlari, g'ayratli, to'g'ri.  
9-12. Talabchan, dangalchi, ochiq, boshqalarni baholashda talabchan va keskin, murosasiz, hamma narsada boshqalarni ayblaydi, istehzoli, masharalashga moyil, asabiy.  
13-16. Haddan tashqari qaysar-qat'iyatlari, g'arazli, qattiq, atrofdagilarga ko'pincha nodo'stona munosabatda, o'zini bosa olmaydi, jizzaki-qiziqqon, ijtimoiy noma'qul darajada zo'ravonlik qilishi mumkin.
4. **Ishonchsizlik - skeptiklik.** 0-8 ball. Mulohazalari va harakatlarida haqqoniy, atrofidagilarga tanqidiy munosabatda, shubhalanuvchi, konformli emas( o'z fikrida qoladi)  
9-12. Boshqalarga tanqid bilan qarash kuchli ifoda etilgan. Odamlardan hafsalasi pir bo'lgan, arazchi, ochiq emas. Atrofidagilarga ishonchsizlik bilan qaraydi, boshqalar bilan munosabatida birovlarga ishonchsizligi va o'ziga yomon munosabatda bo'lishlaridan cho'chigani uchun bir qator muammolarga ega. O'zining salbiy munosabatini verbal zo'ravonlikda namoyon etadi.  
13-16. «Unga dashman, zulmkor va munofiq bo'lgan dunyoga» yotsirash bilan munosabatda bo'ladi, juda shubhalanuvchi va arazchi, hamma narsaga ishonchsizlik bilan qaraydi, kekchi va qasoskor, doimo hammadan nolib yuradi.
5. **Itoatkor - tortinchoqlik.** 0-8 ball. Kamtar, jur'atsiz, yon bosuvchan, hissiy bosiq, itoatgo'ylik hislati bor, o'z fikriga ega emas, o'z burchlarini itoatgo'ylik va halollik bilan ado etadi.  
9-12. Tortinchoq, yuvoshi-beozor, tez hijolat bo'ladi, o'zidan kuchliroq kishiga vaziyatni hisobga olmagan holda itoat etishga moyil.  
13-16. Itoatgo'y, o'zini pastga urishga va yomonlashga moyil, irodasiz, hamma narsada va hammaga yon bosishga intiladi, hamma vaqt o'zini ohirgi o'ringa

qo'yadi va tanqid qiladi, aybni bo'yniga oladi, o'zini gunohkor hisoblaydi, passiv, boshqa kuchliroq odamning panohiga va homiyligiga intiladi.

6. **Bog'liqlik - bo'ysunuvchanlik.** 0-8 ball. Konformli, yumshoq, yordam va maslahat kutadi, ishonuvchan, atrofidagilardan zavqlanishga moyil, muloyim, e'tirof etilishga (uni hisobga olishlariga) muhtoj.

9-12. Itoatli, jur'aatsiz, havotirli, ojiz, qarshilik ko'rsata olmaydi, boshqalar har doim haqligiga sidqidildan ishonadi.

13-16. O'ziga hech ishonmaydi, vasvasali hadiksirashga, qo'rquvlariga ega, har narsadan havotirlanadi, shuning uchun boshqalarga tobe, ishonuvchan, o'ta konformli(o'z fikriga ega emas).

7. **Hamkorlik - konventsiallik.** 0-8 ballov. Hamkorlikka, birlashishga moyil. Muammolarni echishda va nizoli vaziyatlarda egiluvchan va murosali, atrofidagilar bilan hamfikr bo'lishga intiladi, ongli holda konformli, odamlar bilan muloqatda yaxshi odob, muomala shartlariga, qoidalariga amal qiladi, ko'pchilik mansaati va maqsadi yo'lida tashabbuskor va jonkuyar, yordam berishga, o'zini ko'pchilikning diqqat markazida ko'rsatishga, yaxshi ko'rinishga, birovlarining ko'nglini olishga, muloqatchan, munosabatlari iliq va do'stona.

9-16. Hamma bilan do'stona va nazokatli munosabatda, ijtimoiy e'tirof etilishga va ma'qullanishga yo'nalgan, hammaning talabini qondirishga intiladi, vaziyatni hisobga olmagan holda hammaga yaxshi ko'rinishga intiladi, o'zi mansub kichik guruhning maqsadlariga intiladi, birovlarini siqib chiqarish va tiyishning rivojlangan mexanizmiga ega, hissiy turg'un.

### 8. **Mas'uliyatli - bag'ri kenglik..**

0-8 ballov. Odamlarga nisbatan mas'uliyatli, nazokatli, yumshoq, mehribon, odamlar bilan munosabatda hissiy hamdardlik, yoqimlilik, g'amxo'rlik, erkalashni namoyon etadi, odamlarning ruhini ko'tarishni va tinchlantirishni biladi, beminnat, holis, ko'ngilchan-kuyinchak.

9-16. O'ta mas'uliyatli, doimo o'z manfaatlaridan kechishga ularni qurban qilishga tayyor, hammaga yordam berishga, hamdard bo'lishga intiladi, xiralik yoki zo'rlik bilan bo'lsa ham yordamni o'tkazishga harakat qiladi, vaziyatga mos bo'limgan holda boshqalarning aybi uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi (bu teskari tipdag'i shaxsga xos niqoblangan hislat bo'lishi ham mumkin).

8 balldan kam ballga ega xususiyatlar har tomonlama rivojlangan shaxslarga xosdir. Muayyan xususiyatlarning 8 balldan ortiq ball to'plashi tegishli oktant bo'yicha aktsentuatsiya mavjudligini ko'rsatadi. 14-16 ballga teng ko'rsatkichlar ijtimoiy moslashish sohasida muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Barcha oktantlar bo'yicha past ko'rsatkich (0 - 3 ball) natijalar ishonchsiz, sinaluvchi samimi javob bermagan bo'lishi mumkinligidan dalolat.

Metodika ko'rsatkichlarini talqin etishda asosiy e'tibor ayrim ko'rsatkichlarning boshqalardan ustunligiga qaratilishi kerak. Ammo ba'zida ichki mazmuni bir-biriga qarama-qarshi oktantlar (masalan 1- va 5- oktantlar)ning ustunlik holati ham uchraydi. Bunday holat o'zini o'ta sevadigan va avtoritar insonlarga xos, 4-8 oktantlarning ustunlik holati guruh tomonidan tan olinish istagi va bostirilgan dushmanlik o'rtasidagi nizodan darak berishi, 3- va 7- oktantlarning parallel ustunligi o'z imkoniyatlarini ko'rsatib qo'yish motivi va affiliatsiya motivi (hamkorlikka intilish) o'rtasida kurash mavjudligini ko'rsatishi, 2- va 6-

oktatlarning bir vaqtida ustunligi mustaqillik - bo'ysunmaslik muammosi, ichki qarshilikka qaramay, ayrim paytlarda bo'ysunishga majburlikdan guvohlik berishi mumkin.

## 12 - mashg'ulot.

### MAVZU: O'SMIR VA OTA-ONA MUNOSABATLARI

**Maqsad:** Ota-onalar bola tarbiyasida amal qilayotgan asoslar, ularning bu boradagi hatti-harakatlari va bola tarbiyasida amal qilayotgan metodlarini bolalar o'smirlilik davrida qanday qabul qilishi yoki tushunishini o'rganish.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

«Ota-onalarning fe'lvi va o'smirlarning ularga munosabatlari» savolnomasi (qisqacha - ADOR) ota-onalar bola tarbiyasida amal qilayotgan asoslar, ularning bu boradagi hatti-harakatlari va bola tarbiyasida amal qilayotgan metodlarini bolalar o'smirlilik davrida qanday qabul qilishi yoki tushunishini o'rganadi.

Asos sifatida S.Hafer 1965 yilda tuzgan savolnoma hizmat qiladi. Bu metodika negizida SHaferning quyidagi mulohazasi yotadi: ota-onalarning tarbiyaviy ta'sirini (buni bolalar qanday tasvirlashsa, shunday ko'rinishda) uchta o'zgaruvchan omilning yordamida tavsiflash mumkin: *qabul qilish (ma'qullah)* — *hissiy rad etish. psixologik nazorat* — *psixologik avtonomiya. yashirin nazorat* — *ochiq (oshkora) nazorat*.

Bunda qabul qilish deganda, ota-onalar bunda oldindan nimani kutishlaridan qat'iy nazar, boladagi so'zsiz ijobji munosabat tushuniladi.

Hissiy rad etishda esa bolaga salbiy munosabat, unga hurmat va muhabbatning yo'qligi, ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri g'arazlilik (dushmanlik) nazarda tutiladi.

Psixologik nazorat bolaga muayyan tayziq va unga ongli ravishda rahbarlik qilishni hamda tarbiyaviy printsiplarni amalga oshirishdagi ketma-ketlik va bularning darajasini nazarda tutadi.

Savolnomani CHexoslovakiyada tanlab olingan yoshlar guruhida sinab ko'rildi. Uni qayta ishlash va ijtimoiy-madaniy muhitlarga moslashtirish zarurligi aniqlandi. Savolnomaning takomilashtirilgan varianti 1983 yilda Z.Mateychik i P.Rjichanlar tomonidan taklif etildi.

V.M. Bexterov nomli institutning klinik psixologiya laboratoriysi va psixodiagnostika instituti (Bratislava, Slovakiya) o'tasidagi xalqaro hamkorlik natijasida bu metodika, mualliflar nazarda tutganidek, Rossiya sharoitida 13-18 yoshli o'smirlarda sindan o'tkazib ko'rildi. U shifokorlar, psixologlar (pedagoglar), shuningdek ota-onalarning nazaridan yashiringan oilaviy tarbiya omillarini aniqlash va aks ettirishda juda katta foyda berdi.

### Tadqiqotni o'tkazish tartibi.

Ishni boshlashdan oldin o'quvchilarni Testning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiriladi hamda ularga quyidagicha yo'riqnomasi beriladi:

«Sizdan o'z tajribangizga asoslangan holda berilgan ta'kidlarning qaysilari ota-onangizga xosligini belgilash so'raladi. Buning uchun har qaysi ta'kidni diqqat

bilan o'qib chiqing, birortasini ham qoldirmang. Agar muayyan ta'kidlash otangiz (onangiz)ning tarbiya sohasidagi printsiplariga to'liq mos kelsa, «2» raqamini doira bilan belgilang. Muayyan ta'kidlash otangiz (onangiz)ning tarbiya sohasidagi printsiplariga faqat qisman mos kelsa, «1» raqamini doira bilan belgilang. Agar ta'kid ota-onangizga mutlaqo xos bo'lmasa (to'g'ri kelmasa) «0» raqamini doira bilan belgilang.»

So'ngra o'smirga savolnoma teksti va ota-onaning har qaysinisi uchun alohida bo'lgan javob varaqalari beriladi. Javoblar ota uchun alohida, ona uchun alohida beriladi, lekin ta'kidlar har ikkala holda ham bir hil bo'ladi. Bunda shunga e'tibor berish kerakki, o'smir avval ota yoki ona yuzasidan javob varaqasini to'liq belgilab va tadqiqotchiga topshirib bo'lgandan so'nggina keyingisini to'ldirishni boshlashi mumkin. Bunda oldin kimdan (otadan yoki onadan) boshlashning printsipial ahamiyati yo'q.

### O'smirlar uchun ADOR savolnomasi.

Ismi-sharifi \_\_\_\_\_ Sinfi \_\_\_\_\_ Sana \_\_\_\_\_

No	Mening otam (Mening onam):	Xa	Ba'zan	Yo'q
1	Ko'pincha menga iilmayib qaraydi	2	1	0
2	Nima qilishim mumkin-u nima qilishim mumkin emasligini qat'iv bilishimni talab qiladi	2	1	0
3	Menga nisbatan etarli darajada sabr-bardoshli emas	2	1	0
4	Biror joyga ketsam, qachon qaytib kelishimni o'zi belgilab beradi	2	1	0
5	Doimo o'zi nima gapirayotganini yoki bo'yurayotganini tezda unutib qo'yadi	2	1	0
6	Kayfiyatim yomon bo'lsa, menga tinchlanishni va quvnoq bo'lishni maslahat qiladi	2	1	0
7	Meni, yaxshi bola bo'lishim uchun, ko'plab qoidalarga amal qilishi kerak, deb hisoblaydi	2	1	0
8	Doimo kimlargadir mendan shikoyal qilib yuradi	2	1	0
9	Menga qancha erkinlik kerak bo'lsa shunchaga imkon beradi	2	1	0
10	Ayni bir ish uchun bir hil vaqtida rag'batlantiradi va maqtaydi. boshoa bir vazifa esa iazolaydi yoki tanbeheradi	2	1	0
11	Men bilan birlgilikda nimadir qilishni yaxshi ko'radi	2	1	0
12	Agar biror ish buyursa, o'shani tugatmaguncha boshqa ishga chalg'imay faqat o'sha bilan band bo'lishim kerak, deb	2	1	0
13	Arzimagan kamchiliklarim uchun ham achchig'i chiqib javrashni boshlaydi	2	1	0
14	Biror joyga borishni xoxlasam, undan ruxsat so'rashimni talab qilmaydi	2	1	0
15	Mening kayfiyatim bilan hisoblashgan holda, o'zining ko'p ishlaridan voz kechadi	2	1	0
16	g'amg'in yoki hafa bo'lsam meni quvontirishga va kayfiyatimni ko'tarishga harakat qiladi	2	1	0

17	Qilgan ayblarim uchun har doim jazolanishimni talab qiladi	2	1	0
18	Mening tashvishlarim, qiziqishlarim va hohish-istiklarim bilan kam qiziqadi	2	1	0
19	Menga har kuni kechqurun hoxlagan joyimga borishimga imkon beradi	2	1	0
20	Uning muayyan qoida, odat va amallari bor. Lekin ularga ba'zan amal qiladi, ba'zan amal qilmaydi	2	1	0
21	Doimo mening fikrlarim va qarashlarimni diqqat-e'tibor berib	2	1	0
22	Aytilgan ishni doimo ohirigacha baiarishimni kuzatib boradi	2	1	0
23	Ba'zan menda. go'yoki uning meni ko'rgani ko'zi yo'qdey	2	1	0
24	Menga nima voosa va ma'qul kelsa shuni oilishimga imkon	2	1	0
25	O'z qarorlarini o'ziga qulay va ma'qul bo'lgan ko'rinishda o'zgartiradi	2	1	0
26	Tez-tez meni biror narsam uchun maqtaydi	2	1	0
27	Doimo qaerdaligim va nima ish bilan bandligimni bilishni xoxlaydi	2	1	0
28	Mening o'zgarishimni, boshqacha bo'lismi xoxlaydi	2	1	0
29	Ko'nglimga mos bo'lgan ish bilan mashg'ul bo'lismiga imkon beradi	2	1	0
30	Ba'zida meni osongina kechiradi, ba'zida esa - yo'q	2	1	0
31	Meni yaxshi ko'rishini ochiq namoyish qilishga intiladi	2	1	0
32	Maktabda yoki ko'chada nima ishlar qilishimni doimo surishtirib-kuzatib boradi	2	1	0
33	Agar biror narsani aytiganidek qilmasam, bu haqda doimo hamma erda gapirib yuradi	2	1	0
34	Menga ko'p erkinlik beradi. «Mumkin emas», «Qilishing kerak», «Bo'lising kerak» iboralarini kam ishlataladi	2	1	0
35	Agar biror yaxshi yoki yomon ish qilib qo'ysam, uning bunga qanday munosabatda bo'lismini oldindan aytish qiyin	2	1	0
36	Har qaysi masala bo'yicha meni o'z fikriga ega bo'lishi kerak deb hisoblaydi	2	1	0
37	Qanday bolalar bilan do'stlashayotganimni doimo sinchkovlik bilan kuzatib boradi	2	1	0
38	Agar o'zim gap boshlamasam, yoki unga yoqmaydigan va hafa qiladi an ish qilmasam men bilan eaplashmavdi	2	1	0
39	Doimo meni osonlikcha kechiradi	2	1	0
40	Maqtashi yoki jazolashida biror izchillik yo'q: ba'zan bunday harakatlari iuda ko'p, ba'zan iuda oz bo'ladi	2	1	0
41	Menga kerak bo'lganda, men uchun doimo vaqt topa oladi	2	1	0
42	O'zimni qanday tutishim kerakligini doimo ta'kidlab va eslatib turadi	2	1	0
43	Aslini olganda, meni juda yomon ko'rayotgan bo'lishi ham	2	1	0

44	Ta'tilni (kanikulni) yoki davomli bo'sh vaqtimni qanday o'lkazishimni men o'zim reialashtirishimea imkon beradi	2	1	0
45	Ba'zan hafa qiladi, ba'zan esa mehribon va minnatdor bo'ladi	2	1	0
46	Nima haqida savol bermay, doimo to'g'ri, ochiq va samimiy javob beradi	2	1	0
47	Narsalarни yoki joyni u aytgandek qilib yig'ishtirib qo'yanimni tez-tez tekshirib turadi	2	1	0
48	Nazarimda, men bilan mutlago hisoblashmaydi	2	1	0
49	O'z xonamni yoki uyning o'zimga ajratilgan bo'lagini yig'ishtirish-yig'ishtirmasligim, u erda nimalar borligi bilan ishi yo'q - bu to'liq mening ixtiyorimda, bunga birov aralashmaydi.	2	1	0
50	O'z hohishlari va ko'rsatmalarini aniq ifoda etmaydi	2	1	0
51	O'z xonam yoki uyning menga, o'zimga ajratilgan bo'lagi (burchagi) bor	2	1	0

### Dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash tartibi.

O'smir har ikkala javob varaqasini (ota va ona uchun) to'ldirib bergenidan so'ng, barcha javoblar «baholash varag'i»da ota uchun alohida, ona uchun alohida umumlashtiriladi. Har qaysi parametr bo'yicha dastlbki ballarning yig'indisi hisoblanadi (POZ — pozitiv e'tibor (qiziqish), DIR — direktivlik (ko'rsatmalilik), HOS — dushmanlik (murosasizlik), AUT — avtonomlik (erkinlik) va NED — izchillikning yo'qligi (tartibsizlik). Keyin daslabbki ballar tegishli jadvalga asosan standart ballarga aylantiriladi. Standart ko'rsatkichlar I dan 5 gacha bo'lgan qiymatga ega, ularning o'rta chasi, ya'ni 3 me'yor (norma) hisoblanadi.

Agar muayyan parametr bo'yicha 1-2 ball chiqsa, u kuchsiz namoyon bo'lgan, agar 4-5 ball bo'lsa bu xususiyat yaqqol ifodalangan deb hisoblash mumkin. So'ngra maxsus varaqlarda ham otaga, ham onaga bo'lgan munosabat ko'rinishlari tuziladi.

	1	2	3	4	5	
(POZ — pozitiv e'tibor (qiziqish)						
DIR — direktivlik (ko'rsatmalilik),						
HOS — dushmanlik (murosasizlik),						
AUT — avtonomlik (erkinlik)						
NED — izchillikning yo'qligi (tartibsizlik)						

## SHkalalarning interpretatsiyasi (sharhi).

### 1. Onaning o'g'il tomonidan baholanishi.

#### Pozitiv e'tibor shkalasi.

Avalo, shuni nazarda tutish kerakki, o'smirlar odatda onani nisbatan tanqidiy nazar bilan qabul qiladilar. SHunga qaramay, o'smir ko'pincha onalarining yordamiga va qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'ladi, ko'pincha onaning fikr-mulohazasini inobatga oladi, uning aytganiga rozi bo'lishga moyil. Ona-bola o'rtasidagi munosabat to'la o'zaro ishonchga asoslanadi. Onadagi hukmronlik, shubhalanuvchanlik, ishonchsizlik, ustinvorlikka intilish kabi hislatlar o'smir tomonidan inkor etiladi. Ayni vaqtda o'smir onadan haddan tashqari kelishuvchanlik (konformizm), murosavozlikni, «nima desa o'shangang yuradigan» bo'lishni kutishmaydi. SHunchaki oqilona hatti-harakat, do'stona munosabat va yaxshi hissiyotlarning o'zigina o'smir «onam menga pozitiv (ijobiy) munosabatda» deb aytilish uchun kamlik qiladi. Onada umuman ayollarga xos bo'lgan cheklanganlik, ojizliklar tufayli o'smirlar katta yoshdag'i kuchli, mustaqil odamning o'ta homiyligiga muhtojlik sezadilar.

#### Direktivlik shkalasi.

O'smirlar onalarining o'zlariga nisbatan direktivligini o'g'ilning ona oldida ayborligi hissini singdirishga urinishi, onaning o'g'ilga nisbatan turli da'volari, talablari va «ona o'g'li uchun hamma narsadan kechayotgan, hamma narsani qurban qilayotgani» yuzasidan zorlanishlari, hamma narsa uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, bolasi uchun hamma narsani qilgani, qilayotgani va bundan keyin ham qilishi haqidagi da'volari orqali qabul qilishadi. Ona tomonidan uning jamiyatdagi maqomi va atrofdagilaming bahosi o'g'ilning muayyan «etalon, namuna»ga mos kelishiga bog'liqligi haqidagi mulohazalar, bunda o'g'il tomonidan o'zligini namoyon qilishning boshqa variantlarini inkor qilish yuzasidan qat'iy sikrlariga asoslaniladi. SHunday qilib, ona qanday yo'llar bilan bo'lmasin, keyin mulzam bo'lib qolmaslik ma'sadida o'g'ilni noma'qli hatti-harakatlardan tiyish harakatida bo'ladi. Odamda ijobiy hissiyotlar o'yg'otadigan yaxshi, samimiy, ochiq munosabatda bo'lish, mehribonlik va muhabbatning oddiy, sodda ko'rinishlari ona va o'g'il o'rtasida mavjud bo'lgan direktivlik munosabati bilan mutlaqo mos tushmaydi, chiqishmaydi, shuning uchun yuzaga chiqmaydi. Oqibatda ona-o'g'il munsabatida rasmiy-ko'rsatmali yo'nalish ustinvorlik qiladi.

#### G'arazlilik shkalasi.

Onaning o'smirga bo'lgan g'arazli munosabati uning tajovuzkorligi va haddan tashqari qattiqqo'lligi bilan ifodalanadi. Ona shaxsiyatining faqat o'ziga yo'nalganligi, uning manmanligi, o'ziga bino qo'yishi, dimog'dorligi odatda o'g'il tomonidan qabul qilinmaydi. Buning oqibatida o'g'ilga o'zining o'mi va mavqeiga putur etkazayotgan raqib sifatida qaraladi, shuning uchun o'g'ilga nisbatan «esini kiritib qo'yish», qattiq jazolash va hattoki yaqson qilish yuzasidan harakatlar amalga oshiriladi. Jumladan, o'smirga nisbatan hissiy sovuqlik niqoblanadi va ko'pincha vazminlik, kamtarlik, «odob-tarbiya doirasidan chiqmaslik», erkalatmaslik va hattoki o'g'ilning ra'yi-hohishiga itoat etish sifatida taqdim etiladi. Ayni vaqtda o'smirga nisbatan yaqqol ifodalangan shubhalanuvchanlik, ishonchsizlik, o'g'ilga va atrofdagilarga ortiq darajadagi tanqidchilik namoyon bo'ladi, bundan maqsad o'g'ilni va uning atrofidagilarni boshqalar nazarida pastiga

urishdir. SHu bilan birga doimiy ko'rinishda (asosan gap va da'vo ko'rinishida) o'g'ilga nisbatan ijobiy faollik, uning taqdiri yuzasidan mas'uliyat namoyish etiladi.

#### Avtonomlik shkalasi.

Onaning o'g'il bilan munosabatdagi avtonomlik o'g'il tomonidan onaning «kattaligi», o'z hukmronligiga berilganligi, hattoki bu boradagi ozgina «vosvosligi» sifatida qaraladi, bunda fe'l va munosabatlardagi boshqa variantlar butunlay istisno qilinadi. Bunda ona o'g'ilga o'z hissiyotlari, kechinmalari, qarashlari, intilishlariga ega bo'lgan shaxs («odam») sifatida qaramaydi, u ko'r-ko'rona hukmronlik kuchini nomoyon etadi, unga hamma xech narsaga qaramay tobe', itoatda bo'lishlari, bo'yshishlari majbur, deb hisoblaydi. Bunda ona hurmat-e'tiborinining o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan moslashgan shakli, shuningdek vaziyatni hisobga olgan qat'iylik, cho'rtkesarlik o'rinali bo'lmay qoladi (o'tmay qoladi). SHuningdek, o'g'illarning fikricha, hissiy bog'langanlikni ham, munosabatlarning do'stona shaklini ham onadagi bolaning ishlari bilan qiziqmasligi, ulardan ajralganligi, behabarligi bilan bog'lab bo'lmaydi. O'smir o'z holiga, maqomiga tashlab qo'yilgan. U o'z muammolarini asosan ona ishtirokisiz hal qiladi.

#### Izchillikning yo'qligi.

Tarbiya borasidagi izchillikning yo'qligi o'smir tomonidan bir-biri bilan informativ ahamiyatlilik darajasiga qarab, almashinib turadigan kuchning va da'vegarlikning ustinvorligi, moslashgan shakllarda esa itoatkorlik, nazokatlilik, fidoiylik, ishonchsizlik, shubhalanuvchanlik kabi psixologik yo'nalishlar sifatida qabul qilinadi.

Bunda bu xususiyatlar keskin (yo maksimal yoki minimal) ko'rinishda namoyon bo'ladi – tebranishlar amplitudasi juda katta bo'lib, oraliq va o'ratcha ko'rinishlar deyarli bo'lmaydi.

#### 2. Otaning o'g'il tomonidan baholanishi.

#### Pozitiv e'tibor shkalasi.

O'g'il tomonidan pozitiv e'tibor qo'pol ko'rinishdagi kuch va tayziq ishlatishning, o'zaro munosabatlardagi yakkahokimlikning yo'qligi sifatida qaraladi.

O'smirlar pozitiv e'tibor deb shunday holatni tan olishadiki, bunda ota bolaning e'tiborini qozonish uchun qotib qolgan qoida- va aqidaparastlik, «ota hurmatini o'miga qo'yishni» talab qilish, turli axloqiy bayonotlardan foydalanmaydi. O'smir tomonidan ota avvalo o'zaro ishonch bo'lganda qabul qilinadi. Bunday munosabatlar bo'lganda haqiqat munozara va tortishuvlar, bunda turli asoslarga suyanish bilan hamda mantiqan to'g'ri, sog'lom fikrga asoslanish orqali yuzaga chiqadi. Bunda qanda ko'rinishda bo'lmasin, har qanday konformizm (murosavozlik, kelishuvchanlik, yon bosish) istisno qilinadi, har kim o'z fikrini hadiksiramay erkin ifoda etishi mumkin.

#### Direktivlik shkalasi.

Ota o'g'il bilan munosabatdagi direktivlikni o'zining ustunligi, haqiqiy faktlarga asoslanib o'g'ilning ho'rmat-e'tiborini qozonishga intilish, munosabatlarda o'zini baland (yuqori, ulug') tutish orqali namoyon etadi. Uning o'g'il ustidan

hukmronligi asosan uni boshqarish, uning hatti-harakatini o'z vaqtida tuzatish, to'g'ri yo'naliishga solib ko'yish bilan ifodalanadi. Bunda zulmkorlik, da'vogarlik bo'lmaydi. Bolani holis va samimiy holda, lekin qat'iyilik bilan o'smirni ota tomonidan belgilangan muayyan «qolip»ga solishga intilish namoyon bo'ladi. O'smirga, uning soydasi, yaxshi bo'lishi, farog'ati uchun ota bir qadar yon bosishga majbur bo'layotgani, bu faqatgina homiylik bo'lmay, shu bilan birga hamma muammolami tinch yo'l bilan hal qilishga intilish ekanligi muttasil ta'kidlanadi.

#### G'arazlilik shkalasi.

Zulmkor otalar doimo umum ko'pchilik tomonidan qabul qilingan fikrlarni ma'qullaydilar, turli amal, aqida va qoidalarga haddan ziyod amal qiladilar, boshqalarning «yaxshi ota bo'lisch» yuzasidan talab va tavsiyalarini bajarishga, ular bilan yaxshi munosabalda bo'lischga harakat qiladilar. Bunday ota o'smirni mazkur jamiyatda va madaniy muhitda «namunali bola» qanday bo'lishi kerak bo'lsa, huddi shunday qilishga intilib tarbiyalar ekan, bunda o' qattiqqo'llik, o'ta talabchanlikni namoyish etadi, bolaning qobiliyati, layoqati, imkoniyati, intilishlari va fikrlari bilan hisoblashmaydi.

Otalar o'g'illariga kengroq bilim berishga, ularda ko'plab turli qobiliyatlarini rivojlantirishga intilib, ko'pincha ularning yosh organizmi uchun haddan tashqari og'ir bo'lgan majburiyatlarni yuklaydilar. SHu bilan birga, atrofdagilarga to'liq tobeklik va qaramlik, ulardan hadiksirash va ular oldida ojizlik, ularga qarshilik qila olmaslik xususiyatlarini namoyon etadilar. Ayni vaqta ular o'smirlarga nisbatan qattiqqo'l va zulmkor, ulardagi mayda-chuyda narsalarga ham katta e'tibor beradigan bo'lislari mumkin. Bunday sharoitda o'smir doimo o'z faoliyatiga ota tomonidan past baho berilishini kutib va bundan hadiksirab, jazodan, otaning «sen qanday qilib bu ishni qilding yoki shunday holga tushib qolding, axir men seni odam qilish uchun hech narsani ayamayapman-ku» qabilidagi tanbehlaridan cho'chib yashaydi. SHu ernen o'zida bolaning faoliyati va yutuqlariga past baho berish, ularni mensimaslik, ularga ishonchszilik bilan qarashni namoyon etadi. Bu esa o'smirdagi intilishlarni, faollikni pasaytiradi yoki so'ndiradi.

#### Avtonomlik shkalasi.

Otaning o'smir bilan munosabatidagi avtonomligi bunga yuzaklik bilan yondoshishida, unga e'tiborsizligi va beparvoligida namoyon bo'ladi. O'zar o'muloqat kuch, tayziq o'kazish va zulmkorlikka asoslangan bo'ladi. Ota o'g'lini, u biror nojo'ya ish qilib qo'yganidagina «payqaydi», bunda hattoki bo'lib o'tgan hodisani atroflicha har tomonlama tahlil qilishga ham uning vaqt bo'lmaydi. Ota o'zi bilan shu qadar ovora bo'lib qolgan va bandki, o'smiring hayoti va muammolari bilan qiziqishga, ular bilan shug'ullanishga vaqt yo'q. U bular haqida faqatgani bevosita o'g'li yordam so'rab yoki maslahatlashmoqchi bo'lib murojaat qilganidan keyingina biladi, shunda ham uning tushuntirish va izohlariga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Uni o'g'lining qiziqish va mashg'ulotlari deyarli qiziqtirmaydi, bular haqida boshqa biror kishida eshitib qolsa va bu buning uchun yangilik bo'lsa «lya, shunaqa ekanmi?» deb qo'ya qoladi. O'g'lining tanishlari, do'stlari, maktabdag'i o'qishiga beparvolik bilan qaraydi, faqatgina o'zini bu masalalar uni ham qiziqtirayotgandek, tashvishlantirayotgandek qilib ko'rsatadi.

Ko'pincha o'g'li unga murojaat qilsa achchig'i chiqadi. Uning fikricha, «o'g'lining o'zi hamma narsani bilishi, aqli etishi kerak».

Izchillikning yo'qligi.

Ota tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy tadbirlarda izchillilikning, tartibning yo'qligini o'smirlar birinchi navbatda u yoki bu vaziyatga nisbatan otaning munosabatini bashorat qila olmaslikda, bunga otaning bahosini oldindan bilolmaslikda ko'radilar. SHunga ko'ra ular, u yoki bu qilgan ishlari uchun otaning munosabatini – arzimagan ish uchun ham qattiq jazolanishlari mumkinligini yoki boshqa bir jiddiyroq ish uchun, o'smirning o'zini oqlab bergan tushuntirishlarini hamda bu ish boshqa takrorlanmasligi haqidagi va'dalarini hisobga olib, engilgina tanbeh olishlari mumkinligini oldindan bilmaydilar, garchi shunda <sup>10</sup>Osmonda <sup>uchadigan farmlari</sup> ehtimoli bo'lsa ham. Bunday ota arzimagan ayb uchun ham o'g'lining <sup>11</sup>zionini <sup>khursatiga</sup> hiqildog'iga keltirishi», yoki o'g'lining o'zini oqlab yoki aybini engillashtirish maqsadida aytgan so'zlariga ishonib jazolamasligi mumkin va hokazo. Ba'zan uning amalga oshiradigan tarbiyaiy vositalari va amallari hamda ularning darajasi o'smir tomonidan qilingan ishning, aybning katta-kichikligiga <sup>12</sup>Gullard <sup>13</sup>ning <sup>14</sup>khursatung kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

Ota va onalarning tarbiya masalasida tutgan o'mini baholashda o'smirlar quyidagi holatlarni farqlaydilar. Otalarda onalarga nisbatan 12 Erda yuradigan qilishga intilish kamroq bo'ladi, chunki ular o'g'ilning e'tiborini va hurmatini kuch va tayziq ishlitmagan holda qozonishga moyil bo'ladilar. Onalar esa ko'pincha o'smir bilan munosabatda «bolaning farog'ati uchun» avtoritarizmga yo'l qo'yadilar. Ayni vaqtida o'smirlar onalardagi pozitiv qiziqish sifatida o'zlariga nisbatan bo'lgan tanqidiy munosabatni va o'ta homiylikni tan oladilar. otalarda esa mustaqillik, erkinlik va qarashlardagi qat'iylik ustinvorlik qiladi. Direktivlik shkalasi bo'yicha onalarda otalardan farqli ravishda birinchi o'ringa homiylik (g'amxo'rlik) chiqadi, chunki ular hissiy usullar bilan ta'sir o'tkazishga moyil bo'ladilar. SHuningdek, onalar maqsadlariga erishish uchun murosaga qilishga ham tayyor bo'ladilar, otalar esa bunday vaziyatda kuch va o'z obro'lariiga tayanadilar. Onalardagi g'arazlilik otalardagi huddi shunday shkaladan shunisi bilan farqlanadiki, ulardagi bu hislat o'z erkinliklari va mustaqilliklari uchun kurashning oqibatidan kelib chiqadi, otalarda esa bu ko'pincha atrofdagilar bilan murosa qilishga intilish oqibatidir.

Onalar va otalarning avtonomligi moslashishga imkon bermaydigan zulmkor, «ko'r-ko'rona» kuchga va xo'jayinlikka asoslangan. Biroq bunda onalarda o'smirlarga nisbatan talab-taqiqlarning yo'qligi, otalarda esa o'smirdan qattiq chegara bilan ajralganlik namoyon bo'ladi. Bunda otada ham, onada ham homiyilik qilish tendentsiyasi bo'lmaydi, garchi otalar ba'zan istisno tarzida o'z ishlarini bir chetga qo'yib, o'smirlaming iltimoslarini eshitishlari mumkin bo'lsa ham.

Izchillikning yo'qligi o'smirlar tomonidan har ikkala ota-onada ham favqulotda-qarama-qarshi shaklda namoyon bo'ladigan, o'hshash holatlar uchun amplitudasi katta bo'lgan munosabatlar ko'rinishida qabul qilinadi. Bunda onalarda kuch va ishonchsizlikning ikkinchi qutbida yon bosish va giperproektivlik, otalarda esa — ishonch va konformizm votadi.

### 3. Onani qizi tomonidan baholanishi.

#### Pozitiv e'tibor shkalasi.

O'smir-qizlar tomonidan pozitiv munosabat bolaga ona tomonidan doimo e'tibor, g'amho'rlik, yordamga muxtoj bo'lgan, bir o'zi xech narsa qila olmaydigan yosh bolaga qaragandey munosabat ko'rinishida qabul qilinadi.

Bunday onalar qizlarining biror og'ir yoki janjallli holatda yordam so'rab qilgan murojaatlarini bir tomondan ko'pincha ma'qullahshadi, ikkinchi tomondan esa qizlarining erkinliklarini cheklab qo'yishadi. SHu bilan birga qizlar onalardagi «bolasiga ma'qulini qilishga intilish», hattoki «yugurdaklik» hamda nima qilib bo'lsa ham qizining har qanday xoxishini ado etishga harakat qilish kabi hislatlarni ham qayd qilishadi.

#### Direktivlik shkalasi.

Onalarning direktivligini ifoda etishda qizlar qattiq nazorat, muayyan da'vogarlik va talablarga asoslangan holda sal-pal o'z kuchi va mavqeini ishlatalishni va bunda qizining o'z fikrini bildirishini ma'qullamaslikni qayd etishadi. Bunday onalar ko'proq jazoning qattiqroq bo'lishiga suyanishadi, qaysarlik bilan o'zlarini doimo haq deb hisoblashadi, qizlarini esa vaziyat va muammolar haqida mulohaza qilishga juda yoshlik qiladi, aqli etmaydi, deb hisoblashadi.

#### G'arazlilik shkalasi.

Onalarning o'smir qizlarga bo'lgan g'arazli-dushmanlarcha munosabati onaning oilaviy muhitga ishonchisizlik bilan munosabati va uning a'olariga nisbatan, jumladan boshqa bolalarga nisbatan uzoqlashishi (alohidalik, begonalik) ko'rinishida tasvirlanadi. SHubhalı hatti-harakat va ijtimoiy me'yorlarni inkor qilish bunday onalarni odatda oilaning boshqa a'zolaridan ajralganlikka va o'zini boshqalardan yuqori qo'yishiga olib keladi. Bu holat o'smir-qiz tomonidan nodo'stona munosabat kabi qabul qilinadi.

#### Avtonomlik shkalasi.

Onlarning avtonomligi ularning bolaga, uning holati va talablariga biror ko'rinishdagi bog'langanligini inkor (rad) etadi. SHuningdek, o'smir-qizga nisbatan homiylik, g'amho'rlik ham bo'lmaydi. Bunday onalar qizlari tomonidan talabchan bo'lmanan, bo'shang, kechirimli sifatida baholanadi. Ular amalda bolalarini rag'batlantirishmaydi, maqtashmaydi, hotirjam ohangda, beparvolik, erinchoqlik bilan tanbeh-doshnom berishadi, qizlarning tarbiyasiga e'tibor berishmaydi, jumladan turli pand-nasihatlarni, «aqlli gaplar»ni qilishmaydi.

#### Izchillikning yo'qligi.

Onalaridagi bunday holatni qizlar tarbiya metodlari, shakkllari, ko'rinishlarini keskin o'zgarishi va almashinishi (juda qattig idan juda yumshog'iga va aksincha) hamda ruhan hamohanglikdan hissiy ko'ra olmaslikkacha (yoqtirmaslik) holatlari orqali ko'rinishadi.

### 4. Otani qiz tomonidan baholanishi.

#### Pozitiv e'tibor shkalasi.

+izlar otadagi pozitiv e'tiborni otaning o'ziga ishonchi, qattiqqo'llik o'rniga o'ziga ishonch bilan mehribonlik, ochiqlik, samimiyligida deb biladilar. +izlar otadagi mulloqo erkinlik berib o'z holiga qo'yish yoki qattiq turib jazolash kabi

hislatlarni qabul qilmaydilar. Ularning nazarida pozitiv e'tibor asosida muloyimdo'stona munosabatlar yotadi. Bunda qizlar nima qilishi mumkin-u, nima taqiqlanishi aniq-oydin belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin. Bunday holat otaning taqiqlari faqat umumiy mehr-muhabbat muhitini orqali qabul qilinadi.

#### Direktivlik shkalasi.

O'smir-qizlar otaning direktivligini uning o'ta qattiqko'lligida, ba'zan qo'lini musht qilib tugishida, ba'zan qizining jamiyatdagi yoki oiladagi o'mini (burchini) ko'rsatib berishida deb tushunadilar. Direktiv ota o'sayotgan qizga go'yoki haq yo'lни ko'rsatish uchun, unga jamiyatda va muayyan madaniy muhitda qabul qilingan fe'l-atvor qoidalarini o'rgatishga, uning ongiga odob-axloq tushunchalarini singdirishga harakat qiladi.

#### G'arazlilik shkalasi.

Bu erda otaning shunday yoqimsiz tipi haqida gap boradiki, u bir tomonidan «namunali qiz» etaloniga suyangan holda bolasiga nisbatan haddan tashqari talabchan bo'lsa, ikkinchi tomonidan hissiy-sovuq, o'zidan uzoqlashtiruvchi (begonalashtiruvchi) munosabatda bo'ladi. Bularning hammasi ota bilan qiz o'rasisidagi munosabatlarning buzilishiga va buning oqibatida qizda asabiylilik, noturg'unlik xususiyatlarning paydo bo'lishiha olib keladi.

#### Avtonomlik shkalasi.

O'smir-qizlar otalarning avtonomligini ustinvorlik (etakchilik) uchun qilingan harakat shaklida ko'rshadi, bunda otalarning etakchilik mavqeい qizlar etisha olmaydigan balandlikda (uzoqlikda) bo'ladi. Ota qizidan chegaralangan, oilaning muammolaridan o'tib bo'lmas devor bilan ajratilgan holatda qabul qilinadi. Otaga uning atrofida nimalar sodir bo'layotganining mutlaqo ahaniyati yo'q, uning harakatlari ko'pincha yaqinlarining ehtiyojlari va talablari bilan bilan uyg'unlashmagan, yaqinlarining talab-ehtiyojlari inkor qilinadi, inobatga olinmaydi.

#### Izchillikning yo'qligi.

Bu erda ota, munosabatlarini, fe'lini, oldindan aytib bo'lmaydigan, kutilmagan hatti-harakatlami sodir etishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida ifodalanadi. Uning harakatlarida bir hildagi ehtimollik bilan bir-biriga qarama-qarshi psixologik qo'rinishlar namoyon bo'lishi mumkin va ularning tebranishlar amplitudasi juda katta bo'ladi.

SHunday qilib, onalar va otalarning tarbiya masalasidagi tutgan yo'nalishlaridagi farqlar o'smir-qizlar nazarida quyidagicha ko'rindi. Onalarda pozitiv e'tiborda otalardan farqli ravishda, oldingi o'rinda o'zaro ishonch va itoatkorlik turadi. Otalarda esa o'ziga ishonch, qattiqlik va hukmronlikning yo'qligi, tarbiya masalalarida kuch va tayziq ishlatmasligi turadi. Onalarning direktivligi asosan egotsentrik qarashlar (o'zini yuqori qo'yish) va qizining hatti-harakatlarini qattiq nazorat qilishda ko'rindi, otaning direktivligi esa shular bilan birgalikda yana atrosgdagilarning fikriga hisbga olish hamda o'zining haqligiga ishonch bilan belgilanadi. g'arazlilikda, hissiy begonalikda onalarda irodasizlik bilan atrosgdagilarning fikriga tobeklik, ular bilan hisoblashish, murosavozlik ko'rindi; bu o'z navbatida otaning etakchilik (ustunlik) qilishga intilishi oqibatida

ham sodir bo'lishi mumkin. Otarlarda esa g'arazlilikda birinchi o'ringa qiziga nisbatan zulmkorlik, o'zining haqligini mavqeい hamda kuchi bilan asoslash kiradi. Onalar tomonidan avtonomlik oddiy, ijobiy insoniy munsabatlarning yo'qligi, qizining muammolari va qiziqishlariga beparvolik, otalarda esa ularning oiladagi so'zsiz etakchiligi (hokimligi) va ularning qizlar bilan bermalol muloqat qila olishlariga imkoniyat bermasliklari kiradi. Izchillikning yo'qligi otalar uchun ham, onalar uchun ham ularda namoyon bo'ladigan qarama-qarshiliklar nuqtai-nazaridan bir hilda qabul qilinadi. Farq faqat otalardagi manmanlikning va onalardagi itoatkorlik va ishonchsizlikning namoyon bo'lishida.

### 13 - mashg'ulot.

#### MAVZU: O'SMIR VA O'SPIRINLARDA EGOTSENTRIZMNI ANIQLASH

**Maqsad:** Mazkur proektiv Test asosida o'smirlar va katta maktab yoshi o'quvchilaridagi egotsentrizm darajasini aniqlash.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

Egotsentrizm – individning tegishli axborot ta'sirida ham biror bilish ob'ektiga nisbatan bo'lgan o'zining boshlang'ich qarashlarini o'zgartirishga qodir bo'lmasligi: voqeа – hodisalarga boshqa odamlar ko'zi bilan qaray olmaslik, boshqalar nuqtai nazarini tushuna bilmaslik. Ushbu hususiyat odatda 12 – 14 yoshlarga kelib, yo'qolib boradi yoki, aksincha, o'smirlik davrida egotsentrik tipdagi shaxsga xos xususiyatlar shakllanishi va mustahkamlanishi mumkin.

Metodika T.I.Pashukova tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, 40 ta tugallanmagan gapdan iborat. Tekshiriluvchi hayoliga kelgan birinchi fikrni yozib, gapni tugallashi talab qilinadi.

#### Natijalar tahlili:

Egotsentrizm indeksini aniqlashga yo'naltiriladi. Egotsentrizm indeksini topish uchun tekshiriluvchi nechta gapda birlidagi birinchi shaxs kishilik olmoshi va uning har xil shakllari – «men», «mening», «meni», «menga» va boshqalar qo'llangani hisoblab chiqiladi. SHuningdek, tegishli olmoshlar ishlatalmagan, ammo aniq nazarda tutilgan gaplar, oxirigacha etkazilmagan, lekin tegishli olmoshni o'z ichiga olgan gaplar miqdori hisoblanadi. Nechta gapda yuqorida ta'kidlangan holatlar qayd etilsa, ularning miqdori egotsentrizm indeksi sifatida qabul qilinadi.

Eslatma: № 1: 10 tadan ortiq gapni yakunlamagan tekshiriluvchining javoblari tahlil etilmaydi.

#### Natijalarini baholash quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

Sinf	Jins	Past	O'rta	YUqori
5 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 11	12 – 27	28 – 40
	qiz bolalar	0 – 10	11 – 26	27 – 40
6 – sınıf	o'g'il bolalar	0 – 13	14 – 28	29 – 40
	qiz bolalar	0 – 14	15 – 26	27 – 40

7 - sınıf	o'g'il bolalar qiz bolalar	0 - 12 0 - 13	13 - 27 14 - 25	28 - 40 26 - 40
8 - sınıf	o'g'il bolalar qiz bolalar	0 - 8 0 - 9	9 - 22 10 - 23	23 - 40 24 - 40
9 - sınıf	o'g'il bolalar qiz bolalar	0 - 7 0 - 8	8 - 20 9 - 23	21 - 40 24 - 40
Kollej-I kurs	o'g'il bolalar qiz bolalar	0 - 7 0 - 7	8 - 20 8 - 21	21 - 40 22 - 40

Eslatma: № 2: diagnostika jarayonida tekshiriluvchiga ko'rsatmada tashqari nimanidir tushuntirish, uning gaplariga nişbatan baho berish yoki munosabat bildirish hamda tadqiqotning haqiqiy maqsadlarini ma'lum qilish qat'iy man etiladi.

#### 14 - mashg'ulot.

#### MAVZU: TALABALAR JAMOASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR

Maqsad: Mazkur Test asosida jamoada psixologik muhitni o'rghanish..

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer.

Ko'rsatma: Hurmatli o'rtoq! Quyida keltirilgan psixologik xususiyatlarni jamoangizda qanchalik namoyon bo'lismiga qarab baholang. Buning uchun sizning munosabatingizga mos keladigan javoblarni A va B variantlardagi har bir band bo'yicha quyidagi mezonlar bo'yicha baholang.

Baholar: 3-ushbu xususiyat jamoada doimo namoyon bo'ladi

2-xususiyat ko'p hollarda namoyon bo'ladi.

1-xususiyat ayrim hollarda namoyon bo'ladi

0-har ikki jamoa xususiyatlari bir xil tarzda namoyon bo'ladi

T/r	A banddag'i psixologik muhit xususiyatlari		B banddag'i psixologik muhit xususiyatlari
1.	Jamoada ko'tarinki kayfiyat hukmon	3 2 1 0 1 2 3	Jamoada tushkun kayfiyat hukmon
2.	Munosabatlari xayrihohlik va simpatiya ruhidagi	3 2 1 0 1 2 3	Munosabatlari nizoli va antipatiyaga boy
3.	Jamoadagi jamoalar orasida munosabat o'zaro hamkorlik va tushunish darajasida	3 2 1 0 1 2 3	Jamoalar orasida nizo kuzatiladi
4.	Jamo a'zolariga vaqtini birga o'tkazish va	3 2 1 0 1 2 3	Muloqotda befarqlik, hamkorlikda ishslash

	hamkorlikda yogadi	ishlash		yoqmaydi
5.	O'rtoqlarini yutuq va muvaffaqiyatsizliklarida hamdardir. Jamoa a'zolari sidqidildan qo'llab- quvvatlaydi	3 2 1 0 1 2 3	O'rtoqlarining yutuq va kamchiliklari	
6.	Boshqalarning fikriga hurmat bilan qaraydilar	3 2 1 0 1 2 3	Hamma o'z so'zini ahamiyatli hisoblaydi va o'rtoqlarining fikriga qo'loq solmaydi	
7.	Jamoaning yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini o'zini shaxsiy masalalaridek qabul qiladi	3 2 1 0 1 2 3	Jamoaning yutuq va muvaffaqiyatsizliklariga a'zolarning xayrixohligi yo'q	
8.	Jamoaning og'ir paytlarida bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun tamoyiliga amal qiladi	3 2 1 0 1 2 3	Og'ir damlarda jamoada lanjlik, sarosima, bir- birini tushunmaslik va ayblastash kuzatiladi	
9.	Rahbariyatning e'tibori jamoada faxr tuyg'usini uyg'otadi	3 2 1 0 1 2 3	Jamo taqdirlash va rag'batlantirishlarga befarg	
10.	Jamo faol, etaricha quvvatga ega	3 2 1 0 1 2 3	Jamo faol emas, sust	
11.	YOsh xodimlarga xayrixoh, ularni jamoaga moslashishiga yordam ko'rsatadi	3 2 1 0 1 2 3	YOsh xodimlarni begonadik qabul qiladi, ularga samimiyl qaramaydi.	
12.	Jamoaning barcha a'zolari adolatl mutosabatda, bir- birini qo'llab- quvvatlaydilar va himoya qiladilar.	3 2 1 0 1 2 3	Jamoada "imtiyozga ega", "beparvolik", menga nisbatan iltifotsiz degan fikr hukmron	
13.	Jamoani rivojlantirish yuksak tuyg'um hisoblandi	3 2 1 0 1 2 3	Jamoani ko'tarish qiyin, har biri o'z manfaatini o'yadi	

Natijalarni qayta ishslash: A va B jamoadagi natijalar har bir (1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13) savollar bo'yicha natijalar umumlashtiriladi.  
So'ngra S=A-B orasidagi farq topiladi

Agar S>25 dan yuqori bo'lsa jamoadagi psixologik muhit ijobiyl ko'rinishga ega.

S<25 kichik bo'lsa, psixologik muhit beqaror hisoblanadi.

Jamo bo'yicha o'rtacha baho hisoblashda: S=S/m formuladan foydalilanadi. Bu erda M-jamo a'zolari soni. Jamoadagi muhitni salbiy, yoqimsiz deb

baholaydiganlarning miqdoriy ko'rsatkichi foiz hisobida quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\frac{n(C-)}{M} \cdot 100\% \quad n (C-) - jamoadagi psixologik muhitni yoqimsiz deb baholagan kishilar miqdori. M-jamoa a'zolari soni$$

## 15 - mashg'ulot.

### MAVZU: O'QITUVCHI BILAN O'QUVCHI MUNOSABATI

**Maqsad:** O'qituvchi-o'quvchi» metodi asosida jamoada psixologik muhitni o'rghanish..

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Yo'riqnomा:** Har bir keltirilgan mulohazani diqqat bilan o'qing va o'qituvchingiz bilan munosabatingizga mos kelishi hamda mos kelmasligiga ko'ra «HA» yoki «YO'Q» deb javob bering.

1. O'qituvchim shogirdlarining yutuqlarini oldindan ko'ra oladi.
2. O'qituvchimga murojaat etish men uchun qiyin.
3. O'qituvchim adolatli inson.
4. O'qituvchim menga bilim berishga mohirona yondashadi.
5. O'qituvchimning o'quvchilar bilan munosabatlarda aniqlik etishmaydi.
6. O'qituvchimning so'zi men uchun qonun.
7. O'qituvchim men bilan qunt bilan ishlaydi.
8. Men o'qituvchimdan minnatdorman.
9. O'qituvchim menga nisbatan talabchan emas.
10. O'qituvchim doimo yaxshi maslahatlar beradi.
11. Men o'qituvchimga to'liq ishonaman.
12. O'qituvchimning menga qo'ygan bahosini qadrlayman.
13. O'qituvchim bir xil ishslashga o'rjanib qolgan.
14. O'qituvchim bilan ishslashdan mammunman.
15. O'qituvchim menga kam vaqt ajratadi.
16. O'qituvchim mening xususiyatlarimni bilmaydi.
17. O'qituvchim mening kayfiyatimni bilmaydi.
18. O'qituvchim mening so'zlarimni doimo tinglaydi.
19. O'qituvchimni yaxshi o'rgatishiga ishonaman.
20. Men o'qituvchimga so'z aytishga jur'at etolmayman.
21. O'qituvchim kichkina aybim uchun ham jazolaydi.
22. O'qituvchim mening kuchli va kuchsiz tomonlarimni yaxshi biladi.
23. Men o'qituvchimga o'xshashni xoxlayman.
24. Men o'qituvchim bilan oshkora suhbatlasha olaman.

#### Natijalar taxlili:

- |                         |                      |                   |
|-------------------------|----------------------|-------------------|
| 1. Gnostik jihatlar:    | «Ha»-1,4,7,10,19,22, | «Yo'q»-13,16      |
| 2. Emotsional jihatlar: | «Ha»-8,11,14,23      | «Yo'q»-2,5,17,20  |
| 3. Xulqiy jihatlar:     | «Ha»-3,6,12,18       | «Yo'q»-9,15,21,24 |

Anketa kaletiga mos kelgan javoblarga 1 ball beriladi. Agar Sizning ballingiz keltirilgan qiymatlarni biriga teng bo'lsa ushbu faoliyat jihatlari namoyon bo'lishini quyidagi tartibda baholash mumkin: 6-8 ball-yuqori darajada; 3-5 ball-o'rta darajada; 0-2 ball-past darajada

**1.Gnostik.** Bu jihat etakchilik qilgan pedagogning faoliyati asosan shogirdlarga bilim berishga, ularning egallayotgan sohasi bo'yicha savodxonligini oshirishga, ko'proq ma'lumotlar bilan qurollantirishga qaratilgan. Ularning nuqtai nazaricha o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi shogirdlarini xulq-atvori, atrofdagilar bilan munosabatidan ko'ra bilim birish muhim deb hisoblaydi.

**2. Emotsional.** Bu jihat etakchilik qilgan o'qituvchi o'quvchilarni narsa va hodisalarga, atrofdagilarga munosabat ko'nikmalarini shakllantirish muhim degan xulosaga egalar. Ular uchun o'qituvchi o'quvchini hayotiy holatlariga tayyorlash, shaxslararo munosabatlarga kirishishga o'rgatish. Ularda o'zaro ishonch va hurmat tuyg'ularini shakllantirish lozim degan mulohaza bor.

**3. Xulqiy.** O'quvchilarni birinchi navbatda to'g'ri-noto'g'ri nima, ularni xatti-harakatlarini tartibga solish, mas'uliyat va javobgarlik hissini shakllantirish, o'zaro hurmat, qadr-qimmat va insonlarni e'zozlash lozimligini anglatadi.

## 16 - mashg'ulot.

**MAVZU:** “4 – si ortiqcha “metodikasi ( Ozerskiy bo'yicha )

**Maqsad:** Kerakli belgilarni asosida umumlashtirishi va umumlashtiruvchi so'zni qo'llay olishini o'rganish .

**Jihoz:** 5 – ta turli rasmlar to'plami. Xar-bir to'plamda 4-ta predmet rasmi tasvirlangan bo'lib, rasmlardan biri ma'lum belgi bo'yicha ortiqcha bo'lishi lozim. Test blanklari, flomaster, sekundomer.

**Ko'rsatma:** Rasmlarni diqqat bilan ko'rib chiq. Bu erda qaysi predmetning rasmi ortiqcha. Qolgan predmetlarni bir so'z bilan qanday nomlash mumkin.

**Tekshirishning borishi:** Tekshiriluvchilarga navbatma-navbat turli mavzudagi 5-ta rasm to'plami ko'rsatiladi.

1 – rasm to'plami: - "sabzovot – mevalar". Olma, nok, sabzi, gilos.

2- rasm to'plami: - "O'yinchoqlar- o'quv quroli". Qalam, qo'g'irchoq, kitob, daftар.

3- rasm to'plami: - " Uy hayvoni – yovvoyi hayvonlar". Sigir, tulki, ot, ho'roz

4- rasm to'plami: - "Jonli va texnik xarakat vositalari". Mototsikl, ot, mashina, poezd

5- rasm to'plami: - " Hashorotlar - baliqlar". Qo'ng'iz, baliq, pashsha, kapalak

**Natijalar taxlili:** Har-bir vazifani bajarishi ballar bilan baholanadi.

-- agar kerakli belgi bo'yicha umumlashtirsa – 2 ball beriladi.

-- agar umumlashtiruvchi so'zni qo'llay olsa yana – 1 ball qo'shib beriladi.

Ballarning umumiyligi miqdori 15 ball. 1 daraja – 15 ball; 2 daraja – 14-12 ball; 3 daraja – 11 – 9 ball; 4 daraja -8-6 ball; 5 daraja – 5 ball.

Rasmlar nomeri	Kerakli belgi bo'yicha Umumlashlashtirish	Umumlashtiruvchi so'zni qo'llay olishi
1-rasm		
2-rasm		
3-rasm		
4-rasm		
5-rasm		
Ballar miqdori		

### 17- mashg'ulot.

**MAVZU:** "6 yoshli bolalarmi umumiyligi saviyasini aniqlash "

**Maqsad:** Bolalarmi mакtabga etukligini aniqlash.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

#### Ko'rsatma:

Bosma xolda Aa Bb Vv Gg Dd Ee Jj Zz Ii Kk Ll  
 YOzma xolda \_\_\_\_\_

Bosma xolda Mm Nn Ng ng Oo Pp Rr Ss Tt Uu Ff  
 YOzma xolda \_\_\_\_\_

Bosma xolda Xx Ch ch Sh sh O'o' Qq G'g' Hh  
 YOzma xolda \_\_\_\_\_

1. Og'zaki nutkini tekshirish \_\_\_\_\_ ball

2. Xarflarni tanishini tekshirish \_\_\_\_\_ ball

3. Sonlar va hisoblash bo'yicha bilimini tekshirish \_\_\_\_\_ ball

4. Umumiyligi iktidorligi va zexnini tekshirish \_\_\_\_\_ ball

1.Nechta bo'ladi?



=

4 5 6 7 8

2.Nechta bo'ladi?




52




= 4 5 6 7 8


4. Qaysinisi ko'p?



3. Qaysinisi baland?



5. Soat necha bo'ldi? 12 3 9



6. Navruz bayramining ramzi kaysi?



7. Qaysinisi ko'p?



8. Qaysinisi tez yuradi?



9. Qaysinisi katta



18- mashg'ulot.

**Mavzu:** O'quv motivini baholash metodikasi

**Maqsad:** O'quvchilarni o'quv motivlarini o'rganish..

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

Ko'rsatma: Mazkur metodika 6 – 8 yoshdag'i bolalarning o'quv motivatsiyasi, mакtabga bo'lган munosabati, o'qish bilan bog'liq vaziyatga nisbatan emotsiонаl reaktsiyasini aniqlashga qaratilgan. (metodika N.G.Luskanova tomonidan taklif etilgan).

**Anketa savollari.**

1. Senga mакtab yoqadimi yoki unchalik yoqmaydim?

- unchalik yoqmaydi.
- yoqadi
- hecham yoqmaydi.

2. Ertalab uyg'onib, doim xursandchilik bilan mакtabga kelasanmi yoki ko'pincha uyda qolishni istaysanmi?

- ko'pincha uyda qolishni istayman
- ba'zida borishni, ba'zida qolishni istayman
- xursandchilik bilan mакtabga boraman

3. Agar o'qituvchi ertaga xohlaganlar kelib, xohlaganlar kelmasligi mumkin desa, sen mакtabga borarmidng?

- bilmadim
- uyda qolardim
- mакtabga borardim

4. Biror bir dars bo'lmasligi senga yoqadimi?

- yoqmaydi
- ba'zida yoqadi, ba'zida yoqmaydi
- yoqadi

5. Uy vazifalaring yo`q bo'lishini xohlarmidng?

- xohlardim
- xohlamasdim
- bilmadim

6. Mакtabda faqat tanaffus bo'lishini xohlarmidng?

- bilmadim

- xohlamasdim
- xohlardim

7. Sen ota – onangga maktab hakida ko'p gapirib berasanmi?

- ko'p gapirib beraman
- kam gapirib beraman
- umuman gapirib bermayman.

8. O'qituvching o'miga boshqa mehribonroq o'qituvchi kelishini xohlarmidинг?

- bilmadim
- xohlardim
- xohlamasdim

9. Sinfda o'rtoqlaring ko'pmi?

- kam
- ko'p
- umuman yo'q

10. Senga sinfdoshlarin yoqadimi?

- yoqadi
- unchalik yoqmaydi
- yoqmaydi.

#### Natijalarini baholash:

1. 25 – 30 ball. O'quv motivatsiyasi yuqori. Bunday bolalar o'zining bilish motivi kuchli ekanligi, barcha topshiriqlami yaxshi bajarishga intilish bilan ajralib turadi.

2. 20 – 24 ball. O'quv motivatsiyasi o'rtacha. Bunday o'quvchilar guruhi o'quv faoliyatini ancha muvaffaqiyatlama oshirilgan bolalardan tashkil topadi.

3. 15 – 19 ball. Maktabga munosabat ijobiy, ammo bolani ko'proq o'qish bilan bog'liq bo'limgan tomonlar qiziqtiradi. Bunday o'quvchilar maktabda o'zlarini yaxshi his etadilar, biroq maktabga asosan o'rtoqlar, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lish uchun boradilar.

4. 10 – 14 ball. O'quv motivatsiyasi past. Bunday bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, darslarda bekorchi narsalar bilan shug'ullanib, o'ynab o'tiradilar.

5. 10 balldan past. Maktabga nisbatan salbiy munosabat, moslashmaganlik mavjud. Bunday o'quvchilar o'quv faoliyatini bajarishga qiynaladilar, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatda muammolarga duch keladilar, ularda ayrim hollarda nerv – psixik salomatlikning buzilishi kuzatiladi.

Eslatma: Anketani ikki usulda qo'llash mumkin.

1 – usul. Savollar eksperimentator tomonidan o'qib eshittiriladi va javob variantlari taqdim etiladi, bolalar o'zi tanlagan javobni yozib qo'yadi.

2 – usul. Savollar har bir bolaga alohida – alohida yozma ko'rinishda tarqatiladi, bolalar tegishli javoblarni belgilaydilar.

Metodika haqida qo'shimcha ma'lumot: so'rovnomadagi savollar 200 nafar 6 – 8 yoshdag'i o'quvchi bilan o'tkazilgan so'rov asosida bolalarning maktabga, o'qish jarayonida bo'lgan munosabatini to'liqroq aks ettiruvchi savollar sifatida ajratib olingan.

## 19- mashg'ulot.

### Mavzu: Differentsial-diagnostik so'rov nomasi

**Maqsad:** Proforientatsiya ishlarni tashkil qilishda, yoshlarni kasb-hunarga yo'llash va ularga tegishli maslahatlarni berishda so'nggi yillarda keng qo'llanilib kelinayotgan diagnostik vositalardan biri psixolog olim E.A.Klimov tomonidan taklif etilgan "Differentsial-diagnostik so'rov nomasi"dir (DDS). Uning yordamida xizmatga qabul qilinayotgan nomzodni qanday yo'nalishdagi sohalarga tavsiya qilish maqsadga muvosiq ekanligini aniqlash mumkin.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Ko'rsatma:** "Faraz qilaylik tegishli ta'limni olganingizdan so'ng Siz har qanday ishni bajara oladigan bo'lasiz. Agar Sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasining ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan qat'i nazar) tanlashingizga to'g'ri kelgundek bo'lsa, unda Siz qaysi birini ma'qul ko'rgan bo'lardingiz?

O'z javoblariningizni, berilgan blankda, tegishli kataklarda qayd etilgan Siz tanlagan javob variantingiz tartib raqami va harfini doira ichiga olib qo'yish bilan belgilab boring. Imkon qadar tezroq ishlashga va javoblariningizda saminiy bo'lishga harakat qiling".

**"Men ma'qul ko'rman".**

1 a. Hayvonlarga qarash (ulami boqish, parvarish qilish).	yoki	1 b. Mashina priborlariga xizmat qilish (ularni ku-zatib turish, boshqarish.)
2 a. Bemor kishilarga yordam berish, ulami davolash.	yoki	2 b. Jadvallar, sxemalar, hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish.
3 a. Kitob bezaklari, plakatlar, badiiy otkritkilar, gramplastin-kalar sifatini kuzatib borish.	yoki	3 b. O'simliklar holati, o'si-shini kuzatish.
4 a. Materiallarni (yog'och, gazzlama, metal plastmassa va h.k) qayta ishslash.	yoki	4 b. Mahsulotlarni iste'-molchilarga etkazish (reklama qilish, sotish).
5 a. Ilmiy-ommabop kitob, maqolalarni muhokama qilish.	yoki	5 b. Badiiy kitoblarni (yoki pesa, kontsertlarni muho-kama qilish).
6 a. Biron-bir zotli kichik hayvonni boqish, parvarish qilish.	yoki	6 b. O'rtoqlaringiz (yoki o'zingizdan kichik bolalarni) biron-bir faoliyat (mehnat, o'qish, sport)ni bajarish uchun shug'ullanirish.
7 a. Rasm, tasvirlardan nusxalar ko'chirish (yoki musiqa asboblarni)	yoki	7 b. Biron-bir yuk tashuvchi (ko'taruvchi) vositalarni (kran,

sozlash, tuzatish).		traktor, teplovoz va boshqa.) boshqarish.
8 a. Odamlarga (ma'lumot byu- rolarda, sayohatlarda va boshq.) ularga kerakli ma'lumotlarni berish, tushuntirish.	yoki	8 b. Ko'rgazmalarini, pesh-taxtalarni bezashda (yoki pesa, kontsertlarni tay-yorlashda) ishtirop etish.
9 a. Buyumlar, narsalar (kiyim, texnika)ni, uy-joyni ta'mirlash, tuzatish.	yoki	9 b. Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarni qi-dirib topish va tuzatish.
10 a. Hayvonlarni davolash.	yoki	10 b. Hisob-kitob ishlarini bajarish.
11 a. O'simliklarning yangi nav- larini yaratish.	yoki	11 b. Sanoat mahsulotlari (mashinalar, kiyimlar, uy, oziq-ovqat mahsulotlari va boshq)ning yangi turlarini loyihalashtirish, yaratish.
12 a.Odamlar o'tasidagi nizo, janjallarni hal qilish (ishon-tirish, tushuntirish, rag'batlan-tirish).	yoki	12 b. CHizmalar, sxemalar, jadvallami o'rganish (tek-shirish, aniqlash, tartibga keltirish).
13 a. Badiiy havaskorlik to'- garaklari ishlarini o'rganish, kuzatish.	yoki	13 b. Mikroblar hayotini o'rganish.
14 a. Tibbiyot asbob-uskunalarini ishlatish, ularni nazorat qilib turish.	yoki	14 b. Odamlarga yaralanganda, shikastlanganda, kuyganda va boshq. meditsina yordami ko'rsatish.
15 a. Kuzatilayotgan, voqealar, hodisalar o'chanayotgan ob'ektlar va boshqalar haqida aniq hisobotlar yozib borish.	yoki	15 b. Voqealar (kuzatilayotgan yoki ular haqida o'qigan)ni badiiy ifodalash.
16 a. Kasalxonada laboratoriya analizlarini qilish.	yoki	16 b. Bemorlarni qabul qi-lish, ularni tekshirish, ular bilan suhbatlashish va ularni davolashga yo'llash.
17 a. Xona devorlarini, nar-salar sirtini bo'yash va bezash	yoki	17 b. Binolarni ta'mirlash yoki mashina priborlarini yig'ish.
18 a. Tengdoshlarining yoki kichik yoshdagи bolalarni (teatr, muzey-larga, madaniy sayohatlarini, ekskursiyalarini va boshq.) tashkil etish.	yoki	18 b. Sahnada o'ynash, kontsertlarda ishtirop etish.
19 a. CHizmalar bo'yicha detal- larni buyumlar (mashina kiyimlar)ni tayyorlash, binolar qurish.	yoki	19 b. CHizmachilik bilan shug'ullanish, chizmalar, xaritalardan nusxalar ko'chirish.
20 a. O'simliklar kasalliklari va	yoki	20 b. Klavishli mashinalarda (yozuv

bog'-o'rmon zararkunandalariga qarshi kurashish.	mashinkasi, kompyuter, teletayp va boshqalar)da ishlash.
--	--

### Differentsial-diagnostik so'rov natijalarini qayta ishlash

DDS savollari shunday tartibda guruhlanganki, ularga berilgan javoblar faoliyatning turli sohalarini farqlash imkonini beradi. Bu o'rinda kasb turlari shartli ravishda quyidagicha qisqartirib olindi: - I - ustunda - "Odam - tabiat"- O-Tt; II - ustunda - "Odam - texnika"- O-Ta; III- ustunda - "Odam - odam" - O - O; IV- ustunda -"Odam - Belgilar tizimi"- O - Bt; V - ustunda "Odam - Badiiy obraz" -O-Bo.

Kasblarni shaxsga qo'yadigan talablaridan, shuningdek, odamlarning individual-psixologik xususiyatlari qanday kasblarga mos kelishligi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda psixologik adabiyotlarda odamlar shartli ravishda quyidagi tarzda klassifikatsiya qilinadi:

- Odam - Tabiat (O - Tt) qishloq xo'jaligi, agronom, biolog, veterinar, zoolog, geolog, ximik va sh.k.);
- Odam - Texnika (O - Ta) texnik-texnolog, quruvchi, elektrik, mexanik, mashinasoz, texnik va sh.k.);
- Odam - Odam (O - O) o'qituvchi, tarbiyachi, hamshira, vrach, jurnalist, huquqshunos, kutubxonachi, savdo xodimi va boshqalar);
- Odam - Belgilar tizimi (O - Bt) iqtisodchi, hisobchi, rejalomchi, texnik - dasturchi, operator, muharrir, matematik, kompyuterchi va sh.k.);
- Odam - Badiiy obraz (O - Bo) bezakchi-pardozchi, musiqachi, artist, rassom, rejisser, tanqidchi va boshq.).

## 20- mashg'ulot.

### Mavzu: TEMPERAMENT FORMULASI

**Maqsad:** A.Belovning temperament "pasportini" to'ldirishni yo'li bilan temperament formulasini o'rganish..

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Ko'rsatma:** Temperamentni o'rganishning juda ko'p xilma-xil metodlari mavjud. A.Belov temperament "pasportini" to'ldirishni, keyin esa ancha oddiy matematik ishlov berish yo'li bilan temperament formulasini chiqarishni taklif etadi. "Pasport" ni to'ldirishida nima deb javob berishni, siz odatda har kuni (qandaydir alohida, favqulotda xollarda emas) o'zingizni qanday tutishingizni hisobga olish kerak.

Temperament "pasporti" da siz ijobjiy javob beradigan sifatlarni (+) belgisi bilan qayd qiling. Agar u yoki bu tipdag'i temperament "pasporti" dagi ijobjiy javoblarning miqdori 16-20 tani tashkil qilsa, sizda temperamentning mazkur tipiga xos belgilar yaqqol ifodalanganligi ma'lum bo'ladi. Bordi-yu, ijobjiy javoblar 11-15 ta bo'lsa, demak sizga mazkur temperamentning sifatlari muayyan

darajada xos xisoblanadi. Agar ijobjiy javoblar 6-10 tadan oshmasa, sizda mazkur tipdag'i temperament sifatlari juda oz darajada mavjud bo'ladi.

Endi temperamentning formulasini aniqlang:

$$\Phi T \approx X\left(\frac{Ax}{A} \cdot 100\%\right) + C\left(\frac{Ac}{A} \cdot 100\%\right) + \Phi\left(\frac{Af}{A} \cdot 100\%\right) + M\left(\frac{MA}{A} \cdot 100\%\right)$$

bunda Ft-temperament formulasi;

- ⑧ X-xolerik temperament;
- ⑧ S-sangvinik temperament;
- ⑧ F-flegmatik temperament;
- ⑧ M-melonxolik temperament;
- ⑧ A-barcha tiplar bo'yicha plyuslarning umumiy soni;
- ⑧ Ax-xolerik "pasporti"dagi plyuslar soni;
- ⑧ As-sangvinik "pasporti"dagi plyuslar soni;
- ⑧ Af-flegmatik "pasporti"dagi plyuslar soni;
- ⑧ MA-melonxolik "pasporti"dagi plyuslar soni;

Pirovardida temperament formulasi, jumladan, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:  $ftq35\%X+30\%S+14\%F+21\%M$ .

Bu - mazkur temperamentning 35 foizi xolerik, 30 foizi sangvinik, 14 foizi flegmatik va 21 foizi melonxolik ekanligini bildiradi.

Agar temperamentning qandaydir bir tipi bo'yicha ijobjiy javoblarning soniga oid nisbiy natija 40 foiz va undan yuqori bo'lsa, sizda temperamentning mazkur tipi *ustun darajada* ekanligini bildiradi. Agar bu natija 30-39 foizni tashkil etsa, u holda mazkur tipning sifatlari ancha *yagqol* ifodalangan bo'ladi. Agar natija 20-29 foizni tashkil etsa, mazkur tipning sifatlari *o'rtacha* ifodalangan bo'ladi. Natija 10-19 foizni ko'rsatsa, temperamentning bu tipiga xos xususiyatlar *oz darajada* ifodalangan, deb aytish mumkin.

## 21- mashg'ulot.

### Mavzu:      Temperament      Testi

**Maqsad:**      Temperamentning sifatlarini muayyan darajada o'rganish..

**Jihoz:**      Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Ko'rsatma:**      Quyidagi har to'rt gapdan bittasini tanlang. Agarda shu xususiyat o'zingizga aynan mos kelsa ikkita (+ +) belgisini, mosroq kelsa bitta (+) belgisini javob varaqasiga qo'ying

1. a) betoqat, beholovat;

- b) quvnoq va xushchaqchaq;
  - v) sokin va sovuqqon;
  - g) uyatchan va tortinchoq.
2. a) sabotsiz va jahldor;
- b) serharakat va ishchan;
  - v) qat'iyatli va sinchkov;
  - g) yangi shart-sharoit izlovchi;
3. a) chidamsiz;
- b) boshlagan ishingizni ohriga etkazmaysiz;
  - v) ehtiyotkor va mulohazali;
  - g) yangi tanishlar bilan muloqotga kirishishingiz qiyin.
4. a) keskin va betgachopar;
- b) qadringizni yaxshi bilasiz;
  - v) kutishga qodirsiz;
  - g) o'z kuchingizga ishonmaysiz.
5. a) jur'atli va tashabbuskor;
- b) yangiliklarni tez ilg'ab olishga layoqatli;
  - v) kamgap, ortiqcha gap sotishni yoqtirmaysiz;
  - g) yolg'izlikda o'zingizni engil his qilasiz.
6. a) qaysar;
- b) qiziqish va ishtiyoqlaringiz o'zgaruvchan;
  - v) tanaffuslar bilan sokin va bir tekisda gapirasiz;
  - g) ko'pincha omadsizlikdan tushkun va parishonxotir yurasiz.
7. a) bahslarda hozirjavob;
- b) tez xovotirga tushuvchan;
  - v) o'z jahlingizni bosa olasiz;
  - g) tez o'zingizni yo'qotib qo'yasiz.
8. a) tavakkalchi;
- b) yangi shart-sharoitga tez moslashasiz;
  - v) boshlagan ishingizni oxiriga etkazasiz;
  - g) tez charchaysiz.
9. a) uzuq-yuluq ishlaysiz;
- b) har qanday yangi ishni ishtiyooq bilan qabul qilasiz;
  - v) kuchingizni bekorga sarflamaysiz;
  - g) past ovozda sokin gaplashasiz.
10. a) kek saqlaydigan va xadiksiraydigansiz;
- b) qiziqtirmay qo'yan ishdan tez xafsalangaz pir bo'ladi;
  - v) ish tartibingizni qat'iy rejalar asosida olib borasiz;
  - g) suhbatedning fe'l-atvoriga beihtiyor moslashasiz.
11. a) tez berilib, poyma-poy so'zlaysiz;
- b) bir ishdan boshqasiga tez ko'chasiz;
  - v) ishtiyoqlaringizdan oson tiyilasiz;
  - g) tez yig'laysiz.
12. a) bir hilda turmaydigan va tez qiziqvchansiz;
- b) diqqat talab qiladigan ishlarni bajarishga qynalasiz;
  - v) maqtov va tanbehlarga unchalik e'tibor bermaysiz;

- g) o'zingizga ham, o'zgalarga ham katta talab qo'yasiz.
13. a) ba'zan tajovuzkor jangariga aylanib qolasiz;  
b) kirishuvchan va ko'ngilchansiz,xatti-xarakatlariningizni cheklamaysiz;  
v) tagida zaxarxandalik yotgan gaplarni ham muloyim,iltifotli ifodalaysiz;  
g) shubha va gumonsirashga moyilsiz.
14. a) etishmovchilikka betoqatsiz;  
b) chidamli va ishga qobiliyatlisiz;  
v) faqat o'z qiziqishlaringiz bilan ish bajarasiz;  
g) dardchil va ko'nglingiz nozik.
15. a) ma'nodor imo-ishoralar bilan gapirasiz;  
b) xatti-xarakatlar va imo-ishoralar yordamida ochiq baland ovozda gapirasiz;  
v) ishga sekin kirishasiz va bir ishdan ikkinchisiga ham sekin o'tasiz;  
g) achchig'ingiz burningizning ustida turadi.
16. a) tez xarakatga tushishni va bordaniga hal qilishni istaysiz;  
b) kutilmagan va qiyin sharoitlarga hamisha tayyor turasiz;  
v) hammaga birday muomalada bo'lasiz;  
g) ko'nglingizni ochmaysiz, kirishimli emassiz.
17. a) yangiliklarni bajonudil qabul qilasiz;  
b) kayfiyattingiz har doim tetik;  
v) hamma narsada tartibni xush ko'rasiz;  
g) tortinchoq va sustkashsiz.
18. a) keskin va qizg'in xarakatlar qilasiz;  
b) tezda o'zingizni bosib, aqlingizni yig'ib olasiz;  
v) notanish sharoitga qiyinchilik bilan ko'nikasiz;  
g) itoatkor va ko'ngilchansiz.
19. a) bir qarorga kelishingiz qiyin;  
b) muvaffaqiyatga erishish uchun bor kuchingiz bilan tirishasiz;  
v) kamxarakat, so'lg'insiz;  
g) odamlardan hamdardlik kutasiz.
20. a) kayfiyattingiz birdan o'zgaradi;  
b) ba'zan yuzaki qarashga, rad etishga moyilsiz;  
v) o'zingizni tuta bilasiz;  
g) mehr yoki e'tiborsizlik qilishsa chuqur qabul qilasiz

## 22- mashg'ulot.

Mavzu: "Psixogeometrik" Test

Maqsad: SHaxsga aloqador bir qancha muhim xarakterologik sifatlarni aniqlash

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer.

Ko'rsatma: Tavsiya etilgan geometrik figuralardan qaysi biri Sizga yaqinligini belgilang va unga «1» raqami qo'ying. Qolganlarni ham yoqishiga qarab, 5 gacha

baholab chiqing. Endi Sizga xos bo'lgan psixologik xususiyatlar va fazilatlarni bilib oling.

**Kvadrat.** Asosiy qadriyatlari: tartib, ish, an'analar, reputatsiya.

**Uchburchak.** Asosiy qadriyatlari: xokimiyat, liderlik, amal, mavqe, g'alaba, manfaat.

**Aylana.** Asosiy qadriyatlari: insonlarga xizmat qilish, oila baxti va manfaati, bolalar, muloqat.

**To'rtburchak.** Asosiy qadriyatlari: o'zgarish, dinamika, azart.

**Zigzag.** Asosiy qadriyatlari: erkinlik, ijod, o'zgarish.

### 23- mashg'ulot.



**Mavzu:** O'spirinlarda diqqatning ko'lamini o'rGANISH

**Maqsad:** "Qirqimlar" Testi asosida diqqatning ko'lamini o'rGANISH

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Ko'rsatma;** Standart qog'ozlarda yarmi qirqib olingen 15 ta rasm tasviri keltirilgan har bir rasm raqamlar bilan bilan belgilangan yuqoridagi rasmlarni pastidagi rasmlar bilan aniq birlashtirilsa doira xosil bo'ladi. Rasmlarni juftini topish uchun 6 minut vaqt belgilangan.

**Tajribani borishi.** Bu metodikani har bir sinaluvchiga alohida va guruhlarda ham olib borsa bo'ladi. Lekin ularni bir-biriga halaqit berishi, ko'chirishi nazorat qilib turiladi.



**Natijalar taxlili.** Olingen natijalar 9 balli shkala asosida quyidagicha taxlil qilinadi.

Bahołash ballari	9	8	7	6	5	4	3	2	1
------------------	---	---	---	---	---	---	---	---	---

To'g'ri javoblar soni	15	14	16	12	10-11	9	6-8	1-5	3
-----------------------	----	----	----	----	-------	---	-----	-----	---

## 24- mashg'ulot.

**Mavzu:** SHaxs psixologiyasida xarakter va yo'nalganlik muammosi

**Maqsad:** V.Smekal va M.Kuchera tomonidan i/lgari surilgan metodika asosida faoliyat motivlarini o'rganish.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

V.Smekal va M.Kuchera tomonidan ilgari surilgan yondashuvga binoan barcha faoliyat motivlarini uch asosiy yo'nalishga ajratish mumkin: o'ziga, odamlarga, faoliyatga:

1. O'ziga yo'nalganlik - ya'ni Oliy nufuzga ega bo'lish motivlarining ustunlik qilishi, o'z shaxsining xislatlarini to'liq idora qilish va tahlil qila olishga intilish. O'ziga yo'nalgan kishi ko'proq o'z hissiy kechinmalari, fikru xayollari bilan band bo'lib, atrofdagilar bilan kam qiziqadi; xatti — harakatlarining boshqalar tomonidan tan olinishiga, qadranishiga, qo'llab — quvvatlanishiga ehtiyoj sezadi; tanqidni uzoq eslab yuradi, tanqiddan, odamlarning nazaridan yiroqda yurishni yoqtiradi. Barcha xatti — harakatlarining jamoatchilik tomonidan baholanishiga juda sezgir, xato xatti — harakat qilishdan qo'rqadi. Kasbiy faoliyatiga kelsak, jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va shu sohada o'z mehnati, kasbga sodiqligi bilan obro' —e'tibor qozonishga intiladi.

O'ziga yo'nalgan kishi agar keng ma'naviyatlari, fahm — farosati baland inson bo'lsa, undan xudbinlik kayfiyatidagi xulq — atvorni kutish qiyin. Bunday kishilar, ko'pincha, chuqur mulohazali, o'tkir zehnli insonlar bo'lishadi. Obrazli qilib aytanda, «pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa — birovga» degan maqloga qat'iy amal qiladigan, bir oz kamgap ko'rinsalarda, ichki dunyolarida o'zlar bilan tinimsiz «gaplashib», o'zlarini «tergab» turadigan, sermulohaza kishilardir. SHu jihatdan, bunday xulq — atvor ulami boshqalar, ayniqsa, odamlarga yo'nalgan kishilar uchun ko'rmsiz, yopiq yoki «sovuvq» basharali qilib ko'rsatishi mumkin.

2. Odamlarga yo'nalganlik — har qanday sharoitda ham odamlar bilan yaqin va iliq muomalada bo'lishga intilish xususiyati.. Bunday kishilar shaxslararo munosabatlarning barcha tomonlariga katta ahamiyat beradilar. Ko'pincha, ular uchun hayotda eng qadrli narsa — boshqalar bilan munosabatda, hamkorlikda bo'lish imkoniyatidir. Kuchli darajada odamlarga yo'nalganlik — doim xushchaqchaq, odamlar nazarida bo'lish, har tomonlama muloqotda bo'lish, cheksiz sohalarda aloqada, yaqin munosabatda bo'lishdir. Bunday kishilar uchun odamlarsiz dunyo mazmunsiz bo'lib, kundalik hayotda o'z mehnati yoki o'qish jamoalari bilan bog'liq bo'lishga, iliq hissiy munosabatlarni davom ettirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Kasbiy faoliyatda o'z kasbdoshlari bilan qalin munosabatda, hamijihat bo'lishga intilishlarida bu yo'nalganlik o'z aksini topadi. Mehnat jamoalarida o'zaro yordam va ishonch hislariga katta e'tibor berishadi. Bu

yo`nalishdan yuqori ko`rsatgichlarga ega bo`lgan kishilar ko`proq odamlar bilan ishlaydigan sohalarni tanlaydilar va shu sohadagi kasblarni engil o`zlashtiradilar.

**3. Faoliyatga yo`nalganlik** — mehnat faoliyatini bilan bog`liq bo`lgan masalalarini hal etishga qiziqish, topshirilgan vazifani imkon qadar puxta qilib bajarishga intilish xususiyati. Bunday kishi mehnatni tashkil etishning odatdagisi usulidan tezda zerikib qoladi va shu sababli, doimiy ravishda ish jarayonini o`zgartirib, mukammallashtirib borish orzusi bilan yuradi. Vazifani to`liq va mukammal bajarishga moyillik, javobgarlik hissi, shu bilan birga ishdan, mehnat faoliyatidan zavq olish, mehnatni qadrlash, unga vujudi bilan kirishib ketish, mehnatiga e`tiqod va shu sababli o`z sohasini chuqur va mukammal o`rganishga moyillik bu yo`nalishdagi kishilarga xos xislatlardadir Bunday kishilar ish yuzasidan asosli va chuqur hamkorlik qilishga intiladilar. Odamlar uchun foydali bo`lgan umumiy maqsadga erishish yo`lida o`z fikrlarini ilgari surishga qodir bo`lib, qat`iy va ma`lum bir kasb doirasida mustaqil va ijodiy fikrlarini bilan ajralib turadilar.

Inson motivlari majmuasini, ta`kidlanganidek, uch guruhgaga taqsimlash nisbatan sodda talqin bo`lib, o`zbek milliy muhitida yuqori sinf o`quvchilarini kasbiy psixologik tashxis etishda dastlabki yondashuvlardan deb qabul qilinishi mumkin. Aynan shu yo`nalishda ishlab chiqilgan metodikalardan biri bizning diqqatimizni o`ziga tortdi va ushbu tadqiqot maqsadlariga mos kelganligi sababli, 27 savoldan iborat bo`lgan shaxs yo`nalganligini aniqlash psixologik Testi rus tilidan o`zbek tiliga ijodiy tarjima qilindi. Ushbu metodika dastlab chexiyalik mutaxassislar V.Smekal va M.Kuchera tomonidan taklif etilgan bo`lib, keyinchalik 1967 yilda B.Bass tomonidan rus tilida chop etilgan. Biz esa uning A.F. Kudryashov taqriri ostida 1992 yil nashr etilgan to`plamda qayta chop etilgan nusxasidan foydalandik va milliy muhitga moslashtirdik. Ma`lum tadqiqiy izlanishlardan so`ng ushbu metodika ko`p nusxada chop etildi.

Metodika g`oyasiga binoan, har bir savol uchun 3 tadan javob variantlari (A, V, S tarzida) berilgan bo`lib, tarjima qilishda ularning nsixologik mazmuniga aloqida e`tibor berildi. Savollar shunday tuzilganki, ularning mazmuniga qarab, uchala javob variantlaridan bittasi shaxsning o`ziga, ya`ni o`z shaxsий xislatlariga yo`nalganligini

bildirsa, yana biri jamoatchilikka, odamlar bilan yaqin munosabatlarda bo`lishga yo`nalganlikni bildiradi. Uchinchchi javob esa, shaxsning faoliyatga, ishga bo`lgan munosabatini aniqlashga qaratilgan.

### Tadqiqotni o`tkazish jarayoni

Ushbu metodika yakka tartibda ham, guruxiy usulda ham o`tkazilishi mumkin. Sinfdagisi o`quvchilar guruhi o`tkazilayotganda har bir o`quvchiga bittadan savolnoma kitobchasi va bittadan javob varaqasi tarqatib chiqiladi. So`ngra, tarqatilgan savolnomaning boshida keltirilgan tushuntirish xatini diqqat bilan o`qib chiqishlariga da`vat etiladi. O`quvchilar birin-ketin o`qib bo`lgach, 2—3 kishidan o`z tushunganlarini gapirib berishlari so`raladi. Hamma bajarilishi kerak bo`lgan vazifani tushunganiga ishonch hosil bo`lganidan so`ng, vazifa yana bir marta dona - dona qilib tushuntiriladi:

«Demak, ushbu Test 27 savoldan iborat bo`lib, ularning har biriga uch

variantda javob keltirilgan.

Birinchi savolni va unga berilgan javoblarni o'qing: Men,qachonki:

A. Qilayotgan ishimni atrofdagilar qo'llab -quvvatlashsa, V. Biror ishni o'zimga ma'qul, ko'nglimdagidek qilib bajarsam, S. Atrofimda yaxshi do'stlarim borligini his etsam, o'zimda katta qanoatlanish hosil kilaman»

Javoblar orasidan Sizning ichki dunyongizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz - «V»), Endi javob varaqasining birinchi satridan tegish harfini («V»ni) topib, uning chap yoniga («to'g'ri keladi» degan so'zlar ostiga) belgi («+») qo'ying.

Birinchi savolni yana bir marta o'qing. Endi qolgan ikki javob variantlari («A» va «S») orasidan Sizning nazariningizga eng kam to'g'ri keladiganini yoki Siz uchun qimmati eng past bo'lganini tanlang (faraz qilamiz - «A»). So'ngra javob varaqasining yana o'sha birinchi satridan tegishli harfini («A»ni) topib, uning o'ng yoniga («to'g'ri kelmaydi» so'zlar ostiga) belgi («+») qo'ying. Uchinchi javob varianti esa (bizning misolda -«S») hech qaerda belgilanmaydi.

Keyingi savolga o'ting.

Demak, har bir satrga ikkitadan «+» belgisini qo'yishingiz kerak bo'ladi: birinchisi - A, V yoki S variantlaridan birining «to'g'ri keladi» ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi - shu variantlarning «to'g'ri kelmaydi» katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchala variant javoblar tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va o'zingizga savol berib, oqilona javob berishni mashq qiling. Eng to'g'ri javob hayolga birinchi kelgan javobdir.

Tushuntirish xati o'quvchilar bilan to'liq muxokama etilishi va barcha o'quvchilar qanday ish bajarishlarini aniq tasavvur qilishlariga erishish lozim. Eng muhimi o'quvchi o'z - o'zini imtihon qila olishi, o'zining hislatlarini ongli ravishda tahlil qilishga o'rgatib ulgurishi kerak. YA'ni bola har bir savolga javob berishda o'zidan so'ray olishi kerak. SHundagina olingan ma'lumotlar jiddiy va haqqoniy bo'ladi.

## 2 —rasm

O'ziga	odamlarga	faliyatga
X= _____	Y= _____	Z= _____
9 32+	35+	38+
8 30-31	33-34	36-37
7 28-29	31-32	34-35
6 25-27	29-30	32-33

5	23-24	28	30-31
4	21-22	26-27	29
3	19-20	24-25	27-28
2	16-18	22-23	25-26
1	15-	21-	24-

### Malumotlarni qayta ishlash jarayoni

Javob varaqalarini qayta ishlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

1. Olti ustunning har biridagi «+»lar soni alohida-alohida sanab chiqiladi va pastdagi «jami» deb nomlangan satning tegishli katakchalariga ko'rsatilgan tartibda yozib chiqiladi.
2. Mazkur uch juft yig'indi qiymatlarning o'zaro ayirmalari topiladi (bu sonlar manfiy ham musbat ham bo'lishi mumkin) va «ayirma» deb nomlangan satnga yozib chiqiladi.
3. Har uchala ayirmaga 27 soni qo'shilib (agar ayirma manfiy bo'lsa, uning miqdori 27 dan ayirilib), bolaning uch yo'nalish bo'yicha baholari chiqariladi va ular ham javob varaqasining tegishli katakchalariga yozib qo'yiladi. Bu ko'rsatgich, ya'ni oxirgi uch qiymat katta mazmunga ega bo'lgan muhim yuklamani o'zida mujassam etadi: 1—ustun --«o'ziga», 2 —ustun - «codamlarga» va 3 —ustun - «faoliyatga» yo'nalganlik bo'yicha olingan ma'lumotlarni aks ettiradi.

Yuqoridagi «xom» ma'lumotlar endi javob varaqasining orqasidagi grafikka ko'chiriladi (2 —rasmg'a q.) va yakka tartibda o'quvchiga yoki ota —onalarga maslahat berish maqsadida ham ishlatalishi mumkin. Amaliyotchi psixologlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, yoshlar guruhidan olingan ushbu metodikaning har bir shkalasiga tegishli standart normalar javob varaqasining orqasida keltirilgan grafikning tegishli bo'linmalariga kiritildi YA'ni, maxsus jadvallar orqali stenlarga aylantirish va «xom» ma'lumotlarni baholash tizimlariga tenglashtirish kabi talaygina faoliyatni tushirib qoldirib, ushbu usulni qisqa va tushunarli holga keltirilgani tashxis amaliyotini ancha osonlashtiradi, degan umiddamiz.

### 25- mashg'ulot.

**Mavzu:** O'spirinlar tafakkurining o'ziga hosligini o'rganish

**Maqsad:** O'spirinlar aqliy darajani aniqlashda(SHTUR-ADAMT) maktab Testidan foydalanish

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Nº 4—A topshiriqlar to'plami.**

*Ko'rsatma: Sizga beshta so'z beriladi. Ulardan to'rttasi bitta umumiy belgiga ega. Beshinchi so'z ularga mazmunan mos kelmaydi. O'shani topib belgilash kerak. Tanlagan so'zingiz nomerini javob varaqasiga yozing. Faqat bitta so'zni va nomierni belgilang.*

- 1.a) old qo'shimcha, b) old ko'makchi, v) so'z yasovchi qo'shimcha, g) tugallanma. d) o'zak.
- 2.a) to'g'ri chiziq, b) romb, v) to'g'ri to'rburchak, g) kvadrat, d) uchburchak.
- 3.a) parallel, b) karta, v) meridian, g) ekvator, d) qutb.
- 4.a) ocherk, b) roman, v) hikoya, g) mavzu, d) povest.
- 5.a) quldor, b) qul, v) dehqon, g) ishchi, d) hunarmand.
- 6.a) uchburchak, b) kesma, v) uzunlik, g) kvadrat, d) doira.
- 7.a) muqaddima, b) kulminatsiya, v) axborot, g) echim, d) xotima.
- 8.a) adabiyot, b) fan, v) tasviriy san'at, g) arxitektura, d) badiiy hunarmandchilik.
- 9.a) aorta, b) vena, v) yurak, g) arteriya, d) kapillyar.
- 10.a) ifodalash, b) taqqoslash, v) tavsiflash, g) ertak, d) so'zlab berish.
- 11.a) peyzaj, b) mozaika, v) suraL, g) o'yma naqsh, d) mo'yqalam.
- 12.a) tsitoplazma, b) oziqlanish, v) o'sish, g) ta'sirlanish, d) ko'payish.
- 13.a) yomg'ir, b) qor, v) yog'ingarchilik, g) qirov, d) do'l.
- 14.a) tezlik, b) tebranish, v) kuch, g) og'irlik, d) zichlik.
- 15.a) tovar, b) shahar, v) yarmarka, g) natural xo'jalik, d) pul.
- 16.a) Kuba, b) Yaponiya, v) Vietnam, g) Buyuk Britaniya, d) Islandiya.
- 17.a) maqol, b) she'r, v) poema, g) hikoya, d) povest.
- 18.a) barometr, b) flyuger, v) tennometr, g) kompas, d) azimut.
- 19.a) karbonat angidrid, b) nur, v) suv, g) kraxmal, d) xlorofill.
- 20.a) uzunlik, b) metr, v) massa, g) hajm, d) tezlik.

**26- mashg'uot.**

Mavzu: Sinf jamoasidagi muxitni baxolash

**Maqsad:** Ushbu metodika orqali bolaning sindf jamoasi to'g'risidagi tasavvurlariga xolisona baho berishini o'rganish.

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer.

**SINF JAMOASIDAGI MUHITNI BAHOLASH ANKETASI**

- I. Sinfga daxtdoligizingizni qanday baholaysiz?*  
a) Men o'zimni jamoaning a'zosi sanayman;

- b) Ko'pchilik faoliyat turlariga ishtirok etaman;
- v) Bitta faoliyat turi bilan shugullanib, boshqasiga ishtirok etmayman;
- g) Jamoa a'zosi ekanligimni his etmayman;
- d) Sinfning boshqa bolalari bilan muloqot qilmayman;
- e) Bilmadim, javob berishga qiynalaman.

2. *Tasavvur qiling, sizga boshqa sinfda o'qish imkoniyati tug'ildi?*

- a) Ha, o'tishni juda xohlayman.
- b) Qolgandan ko'ra butunlay o'tib ketardim;
- v) Hech qanday farqni ko'rmayman;
- g) Butunlay o'z sinfimga qolgan bo'lardim;
- d) O'z sinfimda qolib o'qishni juda xohlayman;
- e) Bilmadim, javob berishim qiyin.

3. *Sinfingizdagagi o'quvchilar o'rtasidagi munosabat qanday?*

- a) Boshqa sinfdagilarga qaraganda zo'r;
- b) Ko'pchilik sinflarnikiga nisbata zo'r;
- v) Taxminan, ko'pchilik sinflarniki singari;
- g) Ko'pchilik sinflamikiga nisbatan yomon;
- d) Har qanday sinfnikiga nisbatan yomon;
- e) Bilmayman.

4. *O'quvchilarining tarbiyachi bilan munosabati qanday (sinf rahbari bilan)?*

- a) Har qanday sinfdagidan zo'r;
- b) Ko'pchilik sinflarga nisbata zo'r;
- v) Taxminan, ko'pchilik sinflar singari;
- g) Ko'pchilik sinflarga nisbatan yomon;
- d) Har qanday sinfga nisbatan yomo;
- e) Bilmayman.

5. *Sinfingizdagagi o'quvchilarining o'qishga munosabatlari qanday?*

- a) Har qanday sinfdagidan zo'r;
- b) Ko'pchilik sinflarga nisbatan zo'r;
- v) Taxminan, ko'pchilik sinflar singari;
- g) Ko'pchilik sinflarga qaraganda yomon;
- d) Har qanday sinfga qaraganda yomon;
- e) Bilmayman.

Bolaning har bir savol bo'yicha ballari jamlanib, quyidagi me'yorlar bo'yicha talqin etiladi:

- **25-21 ballar** – bolalar uchun sınıf jamoasi anchagina yoqimli va jozibador. Sinfdagagi muhit bolani to'liq qoniqtiradi. U jamoadagi boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlarni qadrlaydi.
- **20-16 ballar** – bola sınıf jamoasiga yaxshi moslashgan. Uning uchun sinfdagi muhit qulay va yoqimli. Bola uchun sınıf jamoasi qadrlidir.



13. YAshay olmay qolishga duch kelishim mumkin.
14. Ayrim insonlarning hal etib bo'lmas vaziyatlarda o'z joniga qasd qilmasliklari taajubli.
15. O'zini "tamom" deb his qilish oqibatda ixtiyoriy hayot bilan vidolashuvga olib keladi.
16. Agar zarur bo'lganda hayotdan kechish hohshini qo'llab-quvatlash mumkin bo'ladi.
17. Men yolg'iz holda qolganimda o'lim bilan o'ynashishni ma'qullayman.
18. Ko'pincha inson to'g'risidagi birinchi taasssurot belgilovchi bo'ladi.
19. Hayot bilan vidolashishning har- hil usullarini sinab ko'rghanman.
20. Har qanday keskin vaziyatlarda doim o'zimni boshqara olaman.
21. Men maktabda yaxshi xulqim bilan ajralib turganman.
22. O'z holatimni yomonlashtirish maqsadida atrofdagilarni alday olaman.
23. Atrofimda juda ko'p nopol insonlar bor.
24. Bir safar o'zimni o'ldirishning bir qator usullarini tanlaganman.
25. Meni juda ko'p aldashga yoki yanglish fikrlarga kelishimga urunganlar.
26. Og'ir tushkunlikdan so'ng nimagadir birdan o'lishni hohlayman.
27. Jahonda yadro urushi yuz bersa ham hayotni davom ettirgan bo'lar edim.
28. Inson xattoki, o'limni tanlagan holda ham o'zi hohlagandek hayot kechirishga haqli.
29. Inson atrofidagilar oldida o'zini foydali ekanligini ko'rsata olmasa, u ko'p narsa yo'qotadi.
30. O'lim oldi xatini hech kimga hech qachon yozmaganman.
31. Bir safar o'zimni o'ldirishga urunganman.
32. Echimi yo'q vaziyatlar hech qachon bo'lmaydi.
33. Hech qanday og'riqsiz o'zimni o'ldirishga urunganman.
34. Odam o'z fikrlarini boshqalardan sir saqlashi lozim, xatto ish mengacha etib bormasa ham
35. Agar inson ruhi bu dunyoni o'zi tark etsa u engil tortadi.
36. Har qanday xatti-xarakatimni oqlay olaman.
37. Biron narsa qilib, menga xalaqit bersalar ham o'ylaganimni amalga oshiraman.
38. Inson davolab bo'lmaydigan kasallikdan, azob-uqubatlardan xalos bo'llish uchun uning o'zi ixtiyoriy hayotdan ketishi kerak.
39. Bir qator tanishlarimning ruhiy sog'lomligidan shubhalanaman.
40. Bir safar o'zimni o'ldirishga qaror qilganman.
41. Menda baxt hissi yo'qligidan bezovtalananaman.
42. Xattoki kichkina narsalarda ham qonunni buzmaslikka intilaman.
43. Ba'zan uxlasm-u, ammo uyg'onmasam degan tuyg'u paydo bo'ladi.
44. Bir safar yuz bergen uyat tufayli o'z jonimga qasd qilish hohishi paydo bo'lgan.

45. Xattoki juda qiyin vaziyatlarda ham, u menga arzimas bo'lsa ham xayot uchun kurashaman.

#### Natijalarni qayta ishlash.

"Soxtalik" shkalasi: "ha"-11,12,18,21,23,25,29,34,39; "yo'q"-42. Baxdash ko'effitsienti (N) javoblarining kaliit bilan mos kelganligining maksimal miqdori bilan belgilanadi. Ko'rsatkichlar 0-darajagacha bolgan qiymatlarni oladi. Agar ko'rsatkichlar Iga yaqin bo'lsa, bunda tekshiruvchilarning o'ziga ortiqcha baho berganligidan va noadekvat baholanganidan dalolat.

O yaqin bo'lsa, u holda past daraja va nisbatan ishonchli javob berilganligidan dalolat beradi .(N <0,6+0,16 ko'rsata olganda) va natijalarning ishonchlilikini bildiradi.

-“Ha”: ,2,3,5,7,9,13,14,15,16,19,22,24,28,31,33,35,36,37,38,40,41,43,44

-“Yo'q”: 4,6,8,10,17,20,26,27,30,32,45.

Baholash ko'effitsienti (Sr., suitsidga tavakkal qilish) makomikdiriy ko'rsatkichiga mos kelgan javoblarning o'zarlo nisbati bilan aniqlanadi (40):  $Sr = \frac{N}{35+0.07}$

N- kaliit bilan mos kelgan javoblar miqdori.

Ko'rsatkichlar 0 dan 1 gacha bolgan qiymatlarni oladi. Tekshiriluvchining ko'rsatkichi I ga yaqin bo'lsa, u holda suitsidga tavakkal qilish hohishi yuqoriligini, suitsidal reaksiyalar yuqoriligini anglatishga yaqin bo'lsa-qo'y darajada ekanligini anglatadi.

#### Tekshiriluvchining olgan baxosi:

- “4” – suitsidal reaksiyalarning namoyon bo'lishi uzoq vaqtli travmalar va psixikaning reaktiv holatlari tufayli yuz beradi.
- “3” – suitsidal reaksiyalarga moyillik imkoniyatlari uncha yuqori barqarorlikka ega emaslik .
- “2” – Suitsidal reaksiyalarga moyillikni yuqori darajada namoyon bo'lismiga xos. Ular murakkab vaziyatlarda o'zlarini yo'qotishga hayrihoh xulq-atvorini namoyon qiladilar.
- “1” – tekshiriluvchida suitsidal reaksiyalarni namoyon qilish juda yuqori darajada.

## 28- mashg'ulet.

**Mavzu:** Bu kash metodi

**Maqsad:** O'smirlarda kasb tanlash motivini aniqlash

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

**Ko'rsatma:** Kuyida xar qanday kashni xarakterlovchi tasdiqlar keltirilgan. Ularni diqqat bilan o'kib chiqing va ular Sizni shu kasbni tanlashingizga qay

darajada ta'sir etganligini baxolang. O'z javoblariningizni tegishli katakchaga «+» belgisini qo'yish bilan belgilang.

O'zingiz yoqtirgan kasb<sub>u</sub>mutaxassislikni yozing \_\_\_\_\_

T. F-	T a s d i q l a r
1	Turli xil odamlar bilan muloqatda bo'lishni talab qiladi
2	Ota-onamga yogadi
3	Katta ma'suliyat xissini talab qiladi
4	Yangi yashash joyiga ko'chib o'tish imkoniyatini beradi
5	Mening qobiliyatlarimga mos keladi
6	O'zimizda bor bo'lgan asbob anjomlar, jixozlar bilangina kifoyalanish imko-nini beradi
7	Odamlarga foyda keltirish imkoniyatini beradi.
8	Aqliy va iismoniy rivojlanish imkoniyatini beradi
9	Katta xaq to'lana digan ish
10	Uyimga yaqin joyda ishlash imkoniyatini beradi
11	Obro'li xisoblanadi
12	Kasb mahoratini o'stirish uchun imkon beradi
13	Xozirgi maviud sharoitda vagona mumkin bo'lgani shu
14	Raxbarlik ishiga qobiliyatllilikni namoyon qilish imkoniyatini beradi
15	Oqizigarli, o'ziga jalb qiladigan
16	Maktabda yoqtirib o'qigan fanimga yaqin
17	Boshqalar uchun mehnatning yaxshi natijalariga tezda erishish imkoniyatini beradi
18	Meni o'rtoklarim tanlashgan
19	Ishdan tashqari vaqtida xam kasbiy malakalardan foydalanish imkoniyatini beradi
20	Ijodkorlikni namoyon qilish uchun katta imkoniyatlar beradi

### NATIJALARINI BAXOLASH

Javoblar quyidagicha baxolanadi: «juda kuchli» - 5, «kuchli» - 4, «o'rtacha» - 3, «kuchsiz» - 2, «mutlaqo ta'sir qilmagan» - 1.

1, 5, 8, 15, 20 - tasdiqlar «I» - ichki individual axamiyatta ega bo'lgan motivlar

2, 7, 12, 14, 17 - tasdiqlar «S» - ichki ijtimopy - axamiyatli motivlar

3, 6, 11, 13, 18 - tasdiqlar «+» - tashqi ijobjiy motivlar

4, 9, 10, 16, 19 - tasdiqlar «->» - tashki salbiy motivlar

Qaysi motiv bo'yicha umumiy ballar yig'indisi eng ko'p bo'lsa, bu sinaluvchida shu motivatsiyani kuchliliginini bildiradi.

## 29- mashg'ulot.

**Mavzu:** Talabalarning tafakkur jarayonlarini o'rganish

**Maqsad:** Sonlarni mantiqiy qatori Testi asosida talabalarning tafakkur jarayonlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.

### Nº 5—A topshiriqlar to'plami.

**Ko'rsatma:** Sizning e'tiboringizga muayyan qoida asosida joylashtirilgan sonlar qatori havola etiladi. Sizning vazifangiz uch nuqta o'miga shu qatorni to'g'ri davom ettirishi mumkin bo'lган navbatdagi raqamni topib yozishdan iborat. Ayrim topshiriqlarni bajarish uchun hayolan (dilda) yoki yozma ravishda bir qancha arifmetik amallarni - qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lislarni bajarishga to'g'ri keladi.

1)	6	9	12	15	18	21
2)	9	1	7	1	5	1
3)	2	3	5	6	8	9
4)	10	12	9	11	8	10
5)	1	3	6	8	16	18
6)	3	4	6	9	13	18
7)	15	13	16	12	17	11
8)	1	2	4	8	16	32
9)	1	2	5	10	17	26
10)	1	4	9	16	25	36
11)	1	2	6	15	31	56
12)	31	24	18	13	9	6
13)	174	17	57	54	18	15
14)	54	19	18	14	6	9
15)	30	29	49	44	11	8
16)	3	4	8	17	33	58
17)	47	39	32	26	21	17
18)	92	46	44	22	20	10
19)	256	37	64	31	16	2
20)	1	2	4	7	28	33

## 30- mashg'ulot.

**Mavzu:** Talabalar diqqatining ko'laminini o'rganish

**Maqsad:** Chalkash chiziqlar testi asosida talabalar diqqatining ko'laminini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer.


**Kerakli jihoz:** Har-bir sinaluvchiga bittadan standart qog'ozda "chalkash chiziqlar" testi beriladi.

**Ko'rsatma:** "chalkash chiziqlar" testida 25 ta startdan chiqqan chiziqlar

finishiga etib borishi kerak. Etib borgan finish chiziqlar tartib bilan raqamlari yozib boriladi. Masalan: 1-17, 2-14, 3-22 va xokazo. Topshiriqni faqat ko'rish nigohi asosida olib boriladi. Qalam yoki qo'l barmoqlari yordamida emas. Sizga 7 minut vaqt beriladi. Savollar bo'lmasa, tayyorlaning va boshladik.

**Tajribaning borishi.** Bu metodikani har bir sinaluvchiga alohida va guruh shaklida ham olib borsa bo'ladi. Lekin ularni bir-biriga xalaqit berish yoki ko'chirishi nazorat qilib turiladi.

**Natijalar taxlili.** Olingan natijalar 9 balli shkala asosida taxlil qilinadi.



### 31- mashg'ulot.

**Mavzu:** O'quvchilarining diqqat-e'tiborini o'rghanish

**Maqsad:** "Siz tinglashni bilasizmi"-? testi asosida o'quvchilar diqqat-e'tiborini darajasini o'rghanish.

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

Quyida berilgan savollarga berilgan javoblaming o'zingizga mosini.bittasini tanlab belgilang.

- Sizningcha suxbatlashishdan maqsad nima?**
  - Suxbatdoshni yaxshiroq o'rghanish
  - Biror masala bo'yicha o'z fikrini bildirish
  - Fikr almashinish va muhokama qilish
- Sizga bolalar «Bulutlar qaerda uxmlaydi?», «Buvilar kichkina bo'lishganmi?» tarzida savollar berishadimi?**

- a) Ha, tez-tez
- b) Xech qachon
- c) Ba'zan

3. Ertalab ishga yoki o'qishga ketayotib, qo'shiq xirgoyi qilasizmi?

- a) Ha, doimo bir xil ashulani
- b) Ha, odatda har hil ashulani
- c) Yo'q, hech qachon

4. Yig'ilish oxirida ma'ruzachiga savollar berasizmi?

- a) Ha, doimo nimanidir so'rashga to'g'ri keladi
- b) Ha, ba'zan, uning fikri bilan qo'shilmaganimda
- c) Hech qachon

5. Do'stingiz yoki kasbdoshingiz bilan suhbatlashgandan so'ng o'sha muammino yuzasidan o'z qarashlaringizni o'zgartirganmisiz?

- a) Ko'pincha shunday bo'ladi
- b) Ba'zan
- c) Hech qachon

6. Kim bilandir suhbatlashayotganda:

- a) Ko'proq siz gapirasiz
- b) Ko'proq suhbatdoshingiz gapiradi
- c) Ikkilangiz teng gapirasiz

7. Narxi bir hil bo'lganda siz nimani xarid qilishni afzal ko'rasiz?

- a) Kitobni
- b) Videokassetani
- c) Kino –teatrga biletni

8. SHerigingiz Sizga aloqasi bo'limgan o'z muammosi xususida gaplashmoqchi. Siz nima deb o'ylaysiz?

- a) «qimmatli vaqtini yo'qotdim-a»
- b) «endi unga ta'sirim kuchliroq bo'ladi»
- c) «unga yordam beryapman»

9. Quyidagi jumlalarning qay biri sizning nuqtai nazaringizga to'g'ri keladi?

- a) Ayni muammmo yuzasidan mutaxassisgina aniq fikrga ega bo'lishi mumkin
- b) CHiroyli gapirishni bilgan odam hohlagan mavzusida ham gapireshi mumkin
- c) Ko'pincha mutaxassislarga o'z muammolari va g'oyalalarini bayon etish uchun notiqlik malakasi etishmaydi

10. Suhbat chog'ida xayolingiz chalg'ib ketsa, nima qilasiz?

- a) Gapirayotganni to'xtatib, o'sha erni qaytarishni so'rayman
- b) Suhbat oxirida so'rash uchun o'zim uchun noaniq joyni eslab qolaman
- c) Umuman menga hamma narsa ayon

11. Ertalab radio orqali eshitgan axborot yoki qo'shiqni qaytara olasizmi?

- a) Xa, doimo
- b) Xa, lekin esga tushirish uchun vaqt kerak
- c) Eslay olmayman

12. Estrada qo'shiqchisiningda sizga ko'proq nimasi yoqadi?

- a) Ovozi
- b) Tashqi ko'rinishi
- c) Sahnada o'zini tutishi

13. Kontsertlarga tushish siz uchun:

- a) Zavqli va maroqli
- b) Ko'pdan qolgandan ko'ra borganim yaxshi
- c) YAxshi ko'rgan xonanda bilan uchrashuv

**14. Siz mexmondasiz, u erda sizdan boshqa yana 5-6 kishi bor. Siz gap boshlaganingizda, ko'pincha:**

- a) Sizni hech kim tinglamaydi
- b) Hamma sizga mahliyo bo'ladi
- c) Siz suhabatning tashabbuskori emassiz

**15. Siz jamiyatda ro'y berayotgan barcha xodisalardan xabardorsiz. Chunki siz:**

- a) Muntazam televizor ko'rasiz
- b) Radio eshitasiz
- c) Gazeta o'qiyasiz

**15-20 ball.** Siz o'zgalarni tinglamaysiz. Balki siz o'zgalarni tinglashdan oladigan foydaning qadrini bilmassiz, lekin siz bilim va tajriba uchun bu ishning foydasini bilishingiz zarur.

**25-30 ball.** Siz o'ttacha tinglovchisiz. Siz uchun suxbat ma'lumot manbai va mulokot uchun etarli asos emas. Sizdan ko'p narsani o'rganish mumkin, lekin o'zingiz xam boshqalardan ko'p narsa olishingiz mumkinligini, tankid va e'tirozlar ham foydali ekanligini unutmang, ko'proq boshqalarni tinglang.

**35-45 ball.** Sizda noyob sifat – o'zgalarni tinglash va moyorida gapirish bor. Siz bilan suhbatlashish juda yaxshi, chunki suhbatdosh sizdan doimo naf oladi. Siz o'zgalarning holatlarini tushunishga ham moyilsiz, ana shu noyob sifatni saqlang.

### **32- mashg'ulot.**

**Mavzu:** YOshlarni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarlik darajasini o'rganish

**Maqsad:** "Nikoxga ma'naviy tayyorgarlik" testi asosida o'quvchi yoshlarni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorgarlik darajasini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** Berilgan savollarga o'z qarashlarining nuqtai nazaringizdan javob bering. Xar-bir savolga javoblaringizni ballar asosida ifodalang. Jumladan: butunlay qo'shilaman – 5 ball; qo'shilaman – 4 ball; biror narsa deyish qiyin – 3 ; qo'shilmayman – 2; mutloq qo'shilmayman – 1 ball.

No	Savollar mazmuni
1	Agar odamlar oila-oila bo'lib yashashni bas qilsalar, unda hayot nihoyatda jozibasiz bo'lib qolgan bo'lar edi
2	Oilaviy hayotning yaxshi bo'lishida maxsus bilimlardan ko'ra omadning ahamiyati kattadir
3	Erta boshlangan jinsiy hayot – nafaqat sog'liqqa balki bo'lajak oilaning muvaffaqiyatiga ham katta ziyon keltiradi.
4	Agar turmush o'rtoq'i bilan yumshoq munosabatda bo'linsa, uning holati e'tiborga olinaversa, unga achinilsa, hamdardlik qilinaversa, o'z ko'zlaganing erishishing juda qiyin
5	Topshirilgan ishni oxirigacha bajarish – bu men uchun burchdir
6	Ota-onalar va ularning voyaga etgan farzandlari bilan bo'ladigan nizolar

	bartaraf qilinib bo'lmaydigan muqarrar nizolardir
7	Men o'z tengdoshlarim bilan bo'ladijan nizolarni bartaraf eta olaman
8	Xotin (er) oldida o'z odatlaridan qaytishi yoki ularni o'zgartirishi kerak emas, chunki bu tabelikka olib keladi
9	Xar kim o'z bahtini yaratuvchisidir – degan ibora oilaviy xayotga butunlay taaluqli
10	Men, oila ko'proq xayotdan qoniqqanlikka olib kelishiga ishonaman
11	Agar odamda ezgulik, xushmuomalalik bor bo'lsa, demak oilaviy xayot uchun juda ko'p narsa bordir
12	Agar oilaviy xayot xuddi orzu qilinganidek yaxshi tashkil qilinmayotgan bo'lsa, unda xech qanday chora uning buzilishining oldini ola olmaydi, shuning uchun yaxshisi ajralishgan ma'qul
13	Men doimo ota-onamni tushunishga xarakat qilaman, agar ularning talablari xaqligiga ishonsam, ularga bo'y sunaman
14	Kishining ayrim beparvoligi va engiltakligi hatto oilaviy hayotni mustahkamlaydi ham
15	Kimki o'zini oilaviy xayotga to'la tayyorman desa, tezda o'zini qayta baholashiga to'g'ri keladi. Chunki doimo nimanidir o'rghanish va o'zida nimanidir o'zgartirishga to'g'ri keladigan narsalar mavjud
16	Qarama-qarshi jins vakillari bilan muloqotda bo'lar ekan, odamga o'zini atay xushmuomala va sertaklluf tutishining zarurati yo'q

**Natijalar taxlili:** Savollarning (tasdiqlar) toq va juft raqamli javoblaridan olingan ballar alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

S1 – toq savollar yig'indisi.

S2 – juft savollar yig'indisi. Natijalar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$K = \frac{C_1 - C_2}{16} \times 100\%$$

Agar topilgan son , ya'ni K – 50% dan past – shaxsnинг oilaviy xayotga ma'naviy tayyorgarligi past darajadi.

Agar K – 50% dan ko'p bo'lsa - oilaviy xayotga ma'naviy tayyorgarligi yuqori bo'ladi.

### 33- mashg'ulot.

**Mavzu:** Pedagogik faoliyatni aniqlash metodi

**Maqsad:** YOsh o'qituvchilar faoliyatini "Pedagogik faoliyatni aniqlash metodi" asosida o'rghanish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** Tavsiya qilinayotgan fikrlarga siz "Ha" yoki "yo'q" degan javobingizni berishingiz mumkin.

1. Hayotdagи muvaffaqqiyat tasodiflarga ko'ra oldindan qilingan hisob — kitoblarga ko'proq bog'lik, bo'ladi deb o'ylayman.
2. Agar men o'zimning sevimli mashg'ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo'qoladi
3. Men uchun har qanday ishning oqibati, natijasidan ko'ra, uning bajarilish jarayoni muhim.
4. Men odamlarning o'z yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlarining yaxshi emasligidan ko'ra, ishdagi muvaffaqiyatsizliklaridan ko'proq qayg'uradilar deb hisoblayman.
5. Mening fikrimcha, ko'pchilik odamlar yaqin kunga mo'ljallangan maqsad bilan emas, balki uzoqqa mo'ljallangan maqsad bilan yashaydilar.
6. Agar imkoniyat bo'lsa ham, hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo'lsa ham kinoga biletisiz kira olmayman.
7. Mening hayotimda muvaffaqiyatsizliklardan ko'ra muvaffiqiyatli kunlar ko'p bo'lgan.
8. Menga amaliy, ishchan, ishbilarmon odamlardan ko'ra his—tuyg'uli (ko'ngilchan) odamlar ko'proq yoqadi.
9. Hatto oddiy ishda ham men uning ba'zi elementlarini takomillashtirishga harakat qilaman.
10. Muvaffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketgan vaqtlarimda ehtiyojkorlik choralarini unitib qo'yishim mumkin.
11. Bolaligimda meni ota —onam dangasa bola deb hisob lardi.
12. Men o'zimnint muvaffaqiyatsizliklarimga sharoit emas, ko'proq o'zimni aybdor deb hisoblayman.
13. Ota —onam meni qattiq nazorat qilishgan.
14. Menda qobiliyatga nisbatan sabr—toqat kuchli.
15. O'z maqsadlarimdan qaytishga, muvaffaqiyatga erisha olmasligim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo'ladi.
16. Men o'zimni o'ziga ishongan odam deb hisoblayman.
17. Muvaffaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening soydamga bo'lmasa ham tavakkal qilishim mumkin.
18. Men tirishqoq odam emasman.
19. Hamma ishlar tekis (me'yorida) ketayotgan bo'lsa, unda mening g'ayratim yana oshadi.
20. Agar men gazetada ishlaganimda unda turli voqealar haqida yozishdan ko'ra, ko'proq odamlar yaratgan yangiliklarni yozgan bo'lar edim.
21. Mening yaqinlarim odadida shaxsiy rejalarim bilan hamfikr bo'lmaydilar.
22. Mening hayotga nisbatan bo'lgan talablarimning darajasi o'rtoqlarimning shunday talablaridan pastdir.

23. Men o'z maqsadlarimga erishish yo'lida qatiyman.

"Ha" - 1, 2, 7, 8, 9, 15, 17, 19, 20, 22, 23. "Yo'q" - 3, 4, 5, 6, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 18, 21.

Kalitga mos kelgan har bir javob uchun 1 balldan beriladi.

#### *Natijalar tahlili*

Ballar yig'indisi 0 — 9 dan past bo'lganda, sizning faoliyatizingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko'rinxaydi.

10 — 13 ballgacha: Sizda muvaffaqiyatga intilish bor, lekin hayotda faoliyatizingizni tashkil qilinishida har doim ham muvaffaqiyatga ehtiyoj sezavermaysiz.

14 — 23 ballgacha: Sizning faoliyatizingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yuqori darajada, har doim muvaffaqiyat bo'lishiga ishonasiz, qat'ysiiz u yoki bu darajada murakkab, lekin bajarilishi mumkin bo'lgan ishlami qilishni yoqtirasiz. Sizni tekshirishsa yoki siz bilan musobaqalashsa, o'zingizni yo'qotmaysiz, balki aksincha, oddiy vazifalarni bajarish sizni ruhlantirmaydi. Muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji ushbu darajasi o'qituvchilarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir, chunki bunday qiyinchiliklarga duch kelganda tirishqoqlik, qatiylik, imkoniyatlariga qarab ish tutishni ko'rish mumkin.

0 — 9 past. 10—13 o'rtacha. 14 — 23 yuqori.

#### **34- mashg'ulot.**

**Mavzu:** O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodi

**Maqsad:** Pedagogik xodimlari "O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini aniqlash" metodi asosida o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** «Mazkur savolnomada sizga u yoki bu darajada hos bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyatlar berilgan.

Bunda tabiiyki, ikki variantdan bittasini ,o'zingizga mos kelganini, javob varaqasida doira ichiga oling

a) to'g'ri, ko'rsatilgan xususiyat menga juda mos yoki ko'proq to'g'ri keladi.

b) noto'g'ri, bu xususiyat menga mutlaqo xos emas yoki menda bu xususiyat juda kam.

1. Men odamlardan uzoqda, bir o'zim yashashim mumkin

2. Men ko'pincha boshqalarga o'zimdag'i qattiq ishonchim orqali ta'sir etaman

3. Mening predmetim bo'yicha asosli bilimga ega bo'lish, kishining xayot kechirishini ancha engillashtiradi
4. Odamlar hozirgiga qaraganda ko'proq axloq me'yorlariga amal qilishlari kerak
5. Men har qanday kitobni kutubxonaga qaytarishdan oldin uni diqqat bilan o'qib chiqaman
6. Men uchun eng maqsadga muvofiq ish o'rini - ish stoli bo'lgan tinch xona
7. Odamlarning aytishicha, men hamma narsani o'zimga xos boshqacha usulda qilarmanman
8. Mening ideallarim orasida , predmetimning rivojlanishiga katta qissa qo'shgan olimlar katta mavqega ega
9. Atrofimdagilarning hisoblashicha, men umuman qo'pollik qilishga qodir emas ekanman
10. Men doimo o'z kiyimlarimga katta e'tibor beraman
11. Ba'zan ertalabları hech kim bilan gaplashgim kelmaydi
12. Men uchun muhim, atrofimdagı hamma narsa tartibli bo'lsin
13. Ko'pchilik do'stlarimning qiziqishlari, menining kasbim doirasida
14. Men o'z harakatlarimni uzoq tahlil qilaman
15. Uyda, stolda ovqatlanayotganimda o'zimni restorandagidek tutaman
16. Ko'pchilik bo'lib o'tirilganda men boshqalarga hazillashish va turli hangomalar haqida gapirishga imkoniyat beraman
17. Meni tezda bir qarorga kela olmaydigan odamlar g'ashimga tegadi
18. Agar ozroq bo'sh vaqtim bo'lsa, o'z soham bo'yicha biror narsani o'qishni afzal ko'raman
19. Menga ko'pchilik ichida noma'qulchiliklar qilish yoqmaydi, xattoki boshqalar shunday qilishsa ham, noqulay
20. Ba'zan men o'zi yo'q odamlar to'g'risida yoqimsiz gaplar gapirishni yoqtiraman
21. Men mehmon kutishni va ularning ko'nglini olishni yoqtiraman
22. Men kamdan kam jamao sifriga qarshi fikr bildiraman
23. Menga shaxsiy xususiyatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasbini yaxshi bilgan odamlar yoqadi
24. Men birovlarining muammolariga befarq qaray olmayman
25. Men doimo osonlik bilan o'z xatolarimni tan olaman
26. Men uchun eng og'ir jazo - yolg'izlikda qolishdir
27. Doimo reja tuzish , ba'zan qilingan xarakatlar uchun arzimaydi
28. Maktabda o'qiganimda o'z bilimlarimni maxsus adabiyotlardan o'qib to'ldirganman
29. Men o'zining aldanishiga yo'l qo'yadigan odamlarni aldagan odamni qoralamayman
30. Mendan yordam so'rashsa, ko'nglimda norozilik tug'ilmaydi
31. Ayrim odamlar meni juda ko'p gapiradi deb hisoblasa kerak
32. Men jamoat ishlaridan va u bilan bog'liq bo'lgan javobgarlikdan o'zimni olib qochaman
33. Meni xayotda eng ko'p qiziqtiradigan narsa bu - fan
34. Atrofdagilar o'ilamni ziyoli deb hisoblaydi

35. Uzoq safarga chiqishdan oldin men doimo o'zim bilan nimalarni olish kerakligini puxta o'yayman
36. Men boshqalarga qaraganda bugungi kun bilan ko'proq yashayman
37. Agar tanlash imkoniyati bo'lsa, o'quvchilarga predmet bo'yicha biror narsa gapirib berish o'rniغا sinsdan tashqari tadbir o'tkazishni afzal ko'raman
38. O'qituvchining asosiy vazifasi - o'quvchiga predmet bo'yicha bilim berish
39. Men etika, axloq va mardlik haqidagi kitoblarni va maqolalarni o'qishni yoqtiraman
40. Ba'zan menga odamlarning savol bilan murojaat qilishi asabimga tegadi
41. Jamoada (kollektivda) men bilan birga bo'ladigan odamlarning ko'pchiligi meni ko'rganidan xursand bo'lleshadi
42. Fikrimcha, ma'muriy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ish menga yoqadi
43. Agar mehnat ta'tilini malaka oshirish kurslarida o'qish bilan o'tkazsam kayfiyatim buzilmagan bo'lar edi
44. Mening xushmuomalaligim va muloyimliligm ko'pincha boshqalarga yoqmaydi
45. Menda boshqalarning muvaffaqiyatlariga hasad bilan qaragan vaqtlarim bo'lgan
46. Agar menga kimdir qo'pollik qilsa, men buni tezda unutishim mumkin
47. Doimo atrofimdagilar mening takliflarimga e'tibor berib qarashadi
48. Agar men qisqa muddatga kelajakka borib qolganimda edi birinchi navbatda o'z predmetim bo'yicha kitoblarni yig'ishtirgan bo'lar edim
49. Men birovlarining taqdirini xal bo'lishiha faol ishtirok etishni yoqtiraman
50. Men hech qachon kulib turib yoqimsiz narsalar haqida gapirgan emasman.

### Natijalar taxlili

So'rov natijalarini qayta ishslash uchun javoblarni kalit bilan solishtirib ko'rish kerak. Har qaysi javob ikki balli sistemada baholanadi: kalit bilan mos tushgan javobga 1 ball, mos tushmaganiga 0 ball beriladi. Har qaysi shaxsiy ko'rsatkich shu guruhdagi javob ballarining yig'indisidan iborat bo'ladi. Gruppa bo'yicha jami ball 10 dan oshmaydi, me'yordagi javoblar 3-7 ball arofida bo'ladi.

Natijalarni qayta ishslashni odatda ma'qullash motivatsiyasidan boshlanadi, chunki bunda to'plangan ballar me'yor darajasidan tashqarida bo'lsa, sinaluvchi ijtimoiy moslanishga intilgan va noto'gri javoblar bergen deb, keyingi guruhdagi savollar umuman qarab chiqilmaydi va mazkur so'rvonoma javoblari bekor qilinadi.

Kommunikator — 1b, 6b, 11b, 16b, 21a, 26a, 31a, Z6a, 41a, 46a

Tashkilotchi — 2a, 7a, 12a, 17a, 22b, 27b, 32b, 37a, 42a, 47a

Predmetchi — Za, 8a, 13a, 18a, 23a, 28a, ZZa, 38a, 43a, 48a

Ziyoli — 4a, 9a, 14a, 19a, 24a, 29b, 34a, 39a, 44a, 49a

Ma'qullash motivatsiyasi — 5a, 10a, 15a, 20b, 25a, Z0a, 35a, 40b, 45b, 50a

Kasbiy yo'nalganlikning umumiy bahosi: shu yo'nalishda etarli darajada rivojlanmagan - 3 balldan kam bo'lganda va kuchli rivojlangan - 7 balldan yuqori

bo'lganda. Ko'rgazmalilikni oshirish uchun uchun olingen ma'lumotlarni doira yoki ustunlardan iborat doira shaklidagi diagramma ko'rinishida aks ettirish mumkin. Faqat bir faktorning rivojlanganligi o'qituvchi shaxsining bir tomonlama yo'nalganligini, bir necha faktorning rivojlanganligi ko'p tomonlama rivojlanganini ko'rsatadi.

1. «Kommunikator» tipidagi shaxsda muloqotga kirishuvchanlik, murosa qila olish, mehribonchilik, o'ziga jalb qila olish, namunali ahloqlilik kabi xususiyatlар mavjud. SHu bilan birga ularda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga bog'liq holda hissiyotga beriluvchanlik va moslanuvchanlik kabi hislatlar bor.

O'qituvchi -«kommunikator» ekstrovertlilik, kelishuvchanligi, mehribonligi, hamdardligi, bolalarga muhabbat bilan ajralib turadi. U o'zining tarbiyaviy ta'sirini o'quvchi bilan chiqisha olishga asoslab, shaxsiy xayotdagи umumiy xususiyatlар, o'xshashliklar va qiziqishlarga asoslangan holda tashkil etadi. Tabiiyki, bunday ta'sirlar o'quvchinining kundalik turmushdagi fe'l-atvorini eng ko'p o'zgartiradi.

O'qituvchi-«kommunikator» uchun ortiqcha muloqatga moyillik, sergaplik, suxbatdoshi bilan oshkorallikka intilish, unga nisbatan yosh yoki tajribasiz sifatida qarash («erkalash»), «yopiq» mavzularda gap qo'zg'ash kabilalar xos bo'lishi mumkin. «Kommunikator» ko'proq — muloqat qilish funktsiyasiga tayanadi.

2. «Tashkilotchi» tipidagi shaxsda talabchanlik, tartibga moyillik, kuchli iroda, harakatchanlik kabi xususiyatlар bo'ladi. O'qituvchi «tashkilotchi» ko'pincha nafaqat bolalar o'tasida, balki o'qituvchilar orasida ham etakchi lik qiladi, odatda o'zining shaxsiy xususiyatlarini turli sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish jarayonida amalga oshiradi. SHuning uchun uning ta'si ri ishchanlik asosidagi hamkorlikda, ko'pchilikning mansaftini ifodalashda, intizomda va boshqalarda ko'rindi.

O'qituvchi- «tashkilotchi» xaddan tashqari faol bo'lib odamlarning shaxsiy hayotlariga aralashishga intilishi, ularga qanday yashash kerakligini o'rgatmoqchi bo'lishi, ko'pincha u shoshilmay atrofdagilarni o'zining ta'siriga olishga, ularni boshqarishga, mazmunidan qat'iy nazar ularning faoliyatini tashkil etishga intilishi mumkin. Ayrim hollarda o'qituvchi- «tashkilotchi» o'z ehtiyojlarini va faolligini birorta jamoat tashkilotida amalga oshiradi, bu erda ularning faoliyoti o'rinni bo'ladi. O'qituvchi- «tashkilotchi» — ijrochilik, jalb qilish, uyuşhtirish funktsiyasidan yaxshi foydalana oladi;

3. «Predmetchi» uchun kuzatuvchanlik, kasbiy mahorat, ijodiyotga intilish xos. O'qituvchi-«predmetchi» realist, u bilimlarning xayotda kerakligi va ahamiyatiga qattiq ishonadi, o'quvchilarini tarbiyalashda o'rganilayotgan predmet asoslari va usullaridan foydalanadi, uning dunyoqarashini olamning ilmiy tuzilishi asosida izohlash yordamida shakllantiradi, bunda to'garak ishlaridan ham foydalanadi.

O'qituvchi-«predmetchi» shaxsidagi o'zgarishlar o'zi o'qitayotgan predmet bo'yicha bilimlar bilan bog'liq. Bunday tipidagi o'qituvchilar har qanday holatga, shu jumladan oddiy, kundalik maishiy-turmush holatlariga ham «ilmilik» kiritishga urinishadi, o'rinsiz holda hatti-harakatlarning ilmiy ko'rinishlarini asoslashga urinishadi va odamlarni o'z bilimlari doirasi bilan baholashga

intilishadi. O'ziga xosligi bo'lganligi uchun bu tipdagilar maxsus guruhn'i tashkil etadi.

«Predmetchi» konstruktiv, metodik, o'rgatuvchi, yo'naltiruvchi funktsiyalarni yaxshi bajara oladi.

4. «Ziyoli» tip. yuqori darajadagi aqliy qobiliyati, umumiyl madaniyatliligi va ahloqliligi bilan ajralib turadi.

O'qituvchi-«ziyoli» yoki «ma'ri fatchi» printsipialligi bilan ajralib turadi, ahloq me'yorlariga amal qiladi, o'zini yuqori darajadagi aqliy imkoniyatlariga asoslangan faoliyati bilan namoyon etadi, o'quvchilarga odamiylik, insonparvarlik, ma'naviyat, mustaqillik va erkinlik tuyg'ularini singdirishga intiladi.

O'qituvchi-«ziyoli» («ma'rifatchi»), agar o'z kasbida ko'p yillar ishlagan bo'lsa, unda falsafiy mulohazalar qilish, donolik qilish va sharoitga qarab «axloqchilik» qilish sifatlarga ega bo'ladi, u o'z atrofida asosan yomon va tanqidga loyiq narsalarni ko'radi, o'tgan «yaxshi» zamonlarni maqtaydi, yoshlarni axloqsizlikda ayblaydi, agarda unda tahlil qilish qobiliyatlari bo'lsa o'z ichki olamiga yo'naladi, tashqi olamni kuzatadi va uning takomillashmaganligi va kamchiliklari haqida mulohaza qiladi.

O'qituvchi- «ziyoli» osonlik bilan o'z faoliyatida gnostik(o'qituvchining mutaxassis sifatidagi bilim darajasi), tarbiyaviy, axborot, targ'ibot, rivojlantirish, tadqiqot funktsiyalarini qo'llay oladi. Unda sharoitga moslasha olish, o'zini takomillashtira olish xislatlari yaxshi rivojlangan bo'ladi.

### 35- mashg'ulot.

**Mavzu:** Shaxsnинг tipologik xususiyatlarini aniqlash.

**Maqsad:** K.Yungning xarakter tipini aniqlash metodikasi asosida shaxsnинг tipologik xususiyatlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** «Mazkur savolnomada sizga u yoki bu darajada hos bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyatlar berilgan. Bunda tabiiyki, ikki variantdan bittasini ,o'zingizga mos kelganini, javob varaqasida doira ichiga oling

1. Qaysi biri siz uchun muximroq?

A) kichkina do'stlar davrasi; B) ko'pgina o'rtoqlar davrasi.

2. Qanday kitoblar sizga ko'proq yoqadi?

A) qiziqarli syujetli: B) odamlar ruxiy kechinmalari aks ettirilgan.

3. Ishda nimaga ko'proq yo'l qo'yishingiz mumkin?

A) kechikish: B) xatoliklar.

4. Agar yomon ish qilib qo'ysangiz?

A) juda qayg'urasiz: B) unchalik qayg'urmaysiz.

5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?

A) juda tez va oson: B) sekin, extiyotkorlik bilan.

6. O'zingizni arazkash deb xisoblaysizmi?

A) xa; B) yo'q.

- 7. CHin dildan kulishga moyilmisiz?**  
A) xa; B) yo'q.
- 8. Siz qandaysiz?**  
A) kam gap; B) ser gap.
- 9. Siz ochiqmisiz yoki sirlaringizni birovlardan yashirasizmi?**  
A) ochiqman; B) yashiraman.
- 10. O'z xis kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 11. Ko'pchilik davrasida bo'lganda siz?**  
A) xa; B) yo'q.
- 12. Tez-tez o'zingizdan norozi bo'lib turasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 13. Biror nimalarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 14. Sirlaringizni yozilgan kundalik tutishni yoqtirasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 15. Biror narsani qaroridan uni bajarishga tez o'tasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 16. Kayfiyattingizni tez o'zgartirasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 17. O'zgalarни ishontirib, ularga o'z fikrlaringizni o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?**  
A) xa; B) yo'q.
- 18. Sizning xarakatlaringiz?**  
A) tez; B) sekin.
- 19. Siz bo'lishi mumkin bo'lgan noxush xodisalardan tashvishlanasizmi?**  
A) tez-tez; B) ba'zan.
- 20. Qiyin xolatlarda Siz:**  
A) yordam so'rashga shoshilasiz; B) xech kimga murojaat qilmaysiz.

Demak: 0 – 35 ball – introversiya, 36 – 65 ball – ambiversiya, 66 – 100 ball – ekstroversiya

### 36- mashg'ulot.

**Mavzu:** Yolg'izlikni sub'ektiv his qilishni o'rganish metodikasi

**Maqsad:** Yolg'izlikni sub'ektiv his qilishni o'rganish metodikasi asosida shaxsning xususiyatlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** Quyidagi berilgan holatlarni qanchalik tez-tez his etishingizni ko'rsating.

Buning uchun "hech qachon", "kamdan-kam", "ba'zida", "tez-tez" javoblaridan biriga to'g'ri keluvchi ballni doira ichiga olib qo'ying.

## HOLATLAR

1. \*Men atrofdaqilar bilan yaxshi munosabatda ekanimni xis etayapman.
2. \*Men do'stona muloqotga muxtojiman
3. \*Men birorta odamga xam murojaat qila olmayman.
4. \*Men o'zimni yolg'iz xis etayapman
5. \*Men o'zimni do'stlarim guruxining bir qismi deb xis etaman.
6. \*Men atrofdaqilarga xos ko'pchilik xususiyatlarga egaman.
7. \*Endilikda mening o'y – xayollarim faqat o'z ichki xissiyotlarim va fikrlarim bilan cheklanib qolmayapti.
8. \*Xech kim mening fikrlarimga va gaplarimga qo'shilmayapti.
9. \*Men odamlardan tez uzoqlashadigan odamman.
  
- 10.\*SHunday odamlar borki, men ularga nisbatan chuqur tuyg'ular xis etaman.
- 11.\*Men o'zimni tashlab ketilgandek xis etayapman.
- 12.\*Mening ijtimoiy muxit bilan bo'lgan aloqalarim unchalik chuqur emas.
- 13.\*Xech kim mening xaqiqatdan qanday ekanligimni bilmaydi.
- 14.\*Men o'zimni boshqalardan ajralib qolgandey xis etayapman.
- 15.\*Men istagan paytimda do'st orttira olaman.
- 16.\*Meni juda yaxshi biladigan odamlar bor.
- 17.\*Men boshqalardan uzoqlashib qolganim bois baxtsizman.
- 18.\*Odamlar atrofimda biroy men bilan emas.
  
- 19.\*SHunday odamlar borki, men ular bilan suxbatlasha olaman.
  
- 20.\*SHunday odamlar borki, men ularga murojaat qila olaman.

### Natijalarni qayta ishlash va talqin etish

SHkalaning umumiy bali 20 bandning barchasidan to'plangan ballarni qo'shib chiqish yo'li bilan aniqlanadi. YUlduzcha bilan belgilangan bandlarda ballarni aniqlashdan oldin ularni teskari yo'nalishda qo'yib chiqish kerak. Bunda 1=4, 2=3, 3=2, 4=1 bo'ladi. YOlg'izlikning maksimal ko'rsatkichi 80 ball.

YOlg'izlik xissining quyidagi uch darajasi aniqlangan:

1 – daraja – yolg'izlik xissining yuqori darajasi, omillarning kamida bittasi bo'yicha yolg'izlik xissining o'ta kuchayib ketganligi. (54-80ball)

2 – daraja – yolg'izlik xissining o'rta darajasi, individ ijtimoiy – psixologik aloqalarining kamligini kompensatsiyalashga va yolg'izlik xissini susaytirishga qodirligi (28-54ball).

3 – daraja yolg'izlik xissining past darajasi, og'ir yolg'izlik xissining yo'qligi (0-28ball).

Natijalar sifat jixatidan taxlil qilinganda, atrofdagilar bilan psixologik aloqalar darajasiga e'tibor berish kerak. <<YOlg'izlik shkalasi>>dan kelib chiqib ushbu aloqaning uch o'lchamini baxolash mumkin:

1."YAxshi korishadi" - emotsional komponent (1,4,10,11,7,17)

2."Tushunishadi" - kognitiv komponent (2,6,9,13,16,19)

3."Qabul qilishadi" - ijtimoiy komponent (3,5,8,12,14,15,18,20)

Xar bir olchamga xos keluvchi savollar miqdori va ballar yig'indisi teng emasligini xisobga olib, natijalar xolisligini ta'minlash maqsadida barcha olchamlar uchun o'rtacha arifmetik qiymatni xisoblاب topish (ballar yig'indisini savollar – bandlar miqdoriga bo'lish) kerak.

Uchinchi o'lcham bo'yicha ballarning yuqoriligi <<tashqi>> psixologik aloqalar o'ziga xosligini belgilaydi va tashqi begonalashuvning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Birinchi va ikkinchi o'lcham bo'yicha ballarning yuqoriligi <<ichki>> psixologik aloqalar o'ziga xosligini belgilaydi va ichki begonalashuvning mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

### 37- mashg'ulot.

**Mavzu:** Ijobiy jamoaviy motivatsiyani shakllantirish metodi .

**Maqsad:** Yolg'izlikni sub'ektiv his qilishni o'rGANISH metodikasi asosida shaxsning xususiyatlarini o'rGANISH

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

Testdan jamoaiy va individual maqsadlarda foydalilanadi.

**Yo'rinqoma.** Sizga 25 ta (ijobiy va salbiy) omillardan iborat Test taqdim etilmoqda. Bu omillar jamoaiy motivatsiyani shakllanganlik darajasini baholashga imkon beradi. Sizdan ushbu omillarni diqqat bilan baholash uchun zarur ballni tanlashingizni so'raymiz. Tanlagan balingizni doira ichiga oling

Omillar	Ballar	Omillar
1. Jamoa juda ahil	7 6 5 4 3 2 1	Jamoada ahillik past darajada
2. Jamoa a'zolari juda faol	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolarida faollik etishmaydi
3. Jamoadagi shaxslararo munosabat ko'ngildagidek.	7 6 5 4 3 2 1	Jamoadagi shaxslararo munosabat yomon holatda
4. Jamoada nizolar yo'q	7 6 5 4 3 2 1	Jamoada nizolar mavjud
5. Jamoadagi hamkorlik	7 6 5 4 3 2 1	Jamoada hamkorlik etishmaydi

yuqori darajada		
6. Maqsadlar aniq va uyushgan holda	7 6 5 4 3 2 1	Xodimlarning maqsadlarida uyushqoqlik etishmaydi
7. Rahbarning obro'si e'tirof etilgan	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolari rahbarni tan olmaydilar
8. Rahbarning qobiliyatlarini hurmat qiladilar	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolari rahbarning imkoniyatlarini namoyon etishiga yo'l qo'ymaydilar
9. Rahbarning etakchilik sifatlarini tan oladilar	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolari rahbarning etakchiligini tan olmaydilar.
10. Jamo a'zolari bilan rahbar o'rtasida o'zar oshonchli munosabat mavjud	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolarining rahbar bilan munosabatida ishonchsizlik hukmron
11. Xodimlar jamoaviy qaror qabul qilishda ishtirok etadilar.	7 6 5 4 3 2 1	Xodimlar qaror qabul qilishda ishtirok etmaydilar
12. Xodimlarning ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar mavjud.	7 6 5 4 3 2 1	Xodimlarning ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoitlar mavjud emas.
13. Jamo a'zolarining topshiriqlarni bajarishda mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga intiladilar	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolarining topshiriqlarni bajarishda mas'uliyatni o'z zimmalariga olishga intilmaydilar
14. Jamoada yaxshi psixologik muhit mavjud	7 6 5 4 3 2 1	Jamoadagi psixologik muhit yaxshi emas
15. Jamoaning har bir a'zosini harakatlari yuqori darajada nazorat qilinadi	7 6 5 4 3 2 1	Jamoaning har bir a'zosini harakatlari past darajada nazorat qilinadi
16. Jamoada faol hayotiy pozitsiya mavjud	7 6 5 4 3 2 1	Jamoada faol hayotiy pozitsiya mavjud emas.
17. Jamo a'zolari o'zini o'zi tartibga solishga intiladi.	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolari o'zini o'zi tartibga solishga intiladi.
18. Jamo a'zolarining harakatlarida yuqori darajada uyushqoqlik bor	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolarining harakatlarida uyushqoqlik juda rast
19. Umumjamoaviy	7 6 5 4 3 2 1	Umum jamoaviy qadriyatlar

qadriyatlar shakllangan		shakllanmagan.
20. Jamoa ichida stress holatlar yo'q	7 6 5 4 3 2 1	Jamoa ichida stressli holatlar mavjud
21. Jamoada ishlash ishtiyobi mavjud.	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolari individual ishlashga intiladilar.
22. Rahbarlar xodimlarga ijobjiy munosabatdalar	7 6 5 4 3 2 1	Rahbarlar xodimlarga salbiy munosabatda bo'ladilar
23. Xodimlar rahbarga ijobjiy munosabatdalar	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolari rahbarga salbiy munosabatdalar.
24. Jamoada ichki axloqiy me'yorlar qabul qilingan	7 6 5 4 3 2 1	Jamoada ichki axloqiy me'yorlar qabul qilinmagan
25. Jamoa a'zolari qo'yilgan vazifalarni hal etishda mustaqillikni namoyon qilishga uquvli	7 6 5 4 3 2 1	Jamo a'zolarida qo'yilgan vazifalarni hal etishda mustaqillik etishmaydi

### Natijalarini qayta ishlash va talqin etish

Individual olingan natijalar yig'indisi topiladi. Bunda natijalarning minimal miqdori 25 va maksimal miqdori 175 ga teng bo'ladi.

Agar ushbu topshiriq jamoada o'tkazilganda, ularning natijalarini o'rtacha qiymati olinadi. So'ngra natijalar jamoada muhokama qilinadi

25 - 48 ballar- jamoada salbiy motivatsiya shakllangan.

49 - 74 ballar- jamoaviy motivatsiya kuchsiz.

75 - 125 ballar- jamoa faoliyatida motivatsiyaning ijobjiy natijalarga yo'nalgaligi etarlicha emas.

126 - 151 ballar- jamoa faoliyatda yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilgan  
152 - 175 ballar jamoa faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga to'liq moivatsiya shakllangan.

### 38- mashg'ulot.

**Mavzu:** Tarbiyasi qiyin o'smirlar

**Maqsad:** Tarbiyasi qiyin o'smirlar metodi asosida shaxsnинг xususiyatlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

Ma'lumki, tarbiyasi "qiyin" o'smirlarning o'zligini anglashda "Men" timsoli alovida o'rinn tutadi. SHuningdek, "qiyin"lik muvaqqat o'zgarishlar xususiyatlarini tark etib, patologik shakllanishlarni vujudga keltiradi va bu jamiyat tomonidan qoralanadi. O'zi va o'zidagi tarbiyasi "qiyin"likni anglagan o'smir psixologik

ximoya tizimini to'g'ri tashkil qilish uchun intiladi. O'zini o'zi chuqur anglamoq uchun "Men" tizimining tarkibiy qismlari, tashkil etuvchilariga xaqidagi zamonaviy psixologik tadqiqotlarni bilish talab etiladi.

"Men" tizimining taxlilida ikki xil fenomen: a) xarakatdagi, ya'ni o'zining sub'ektiv tomonlarini aks ettiruvchi substantsional "Men" va b) shaxsning o'zi xaqidagi tasavvurlari, ya'ni refleksiv "Men" yoki "Men" timsoli, "Men" kontseptsiyasini ajrata olish kerak. O'smir xulqidagi "qiyin"liklar uning shaxsiyatidagi muayyan o'zgarishlarga sabab bo'lib, "Men" timsolidagi o'zgarishlar "o'zini yo'qotish" va qayta "o'zini topish" tarzida kechadi. Biz ushbu masalani xal qilish uchun "20 ta muloxaza" testidan foydalandik.

**Ko'rsatma quyidagicha:** O'zgalarga emas, o'z-o'zingizga javob berayotgandek xis qiling va miyangizga kelgan fikrlarni ketma-ket bayon qiling. Biz original Testlarni o'tkazishdan farqli o'laroq, ularga vaqtini chegaralamadik. Olingan natijalarning taxlilida nafaqat javoblarning soni, balki "Men" timsolining rivojlanish darajasini oydinlashtirishga imkon beruvchi javoblarning sifati va moxiyatiga e'tibor qaratdik. "20 ta muloxaza" Testida ob'ektiv va sub'ektiv tasniflar orasidagi tafovut qiyoslanadi. Masalan: ob'ektiv tasniflar jumlasiga "men qizbolaman", "men o'quvchiman", sub'ektiv tasniflarga esa, "men chiroyliman", "men zo'rman", "men ikkichiman", "men daydiman"... Javoblarda o'smirlarga xos ijobji va salbiy xarakter xislatlarining ifodalanishi bilan bog'liq shaxsiy tasniflar uchraydi. Quyida patsientning javob varag'ini keltiramiz. Patsient A., qiz bola, 12 yosh, xizmatchi oilasida tug'ilgan.

1. Men omadsizman.
2. Men o'zgaruvchanman.
3. Men o'zimni eplay olmayman.
4. Men o'zimdan charchadim.
5. Men o'zimdan yaxshi sifatlarni topa olmayapman.
6. Men irodasizman.
7. Men ezma emishman.
8. Men o'zimni o'zgartirishga xarakat qilyapman.
9. Men yaxshi bo'lismimga ishonaman.
10. Menga xam baxt kulib boqadi.
11. Men kelajagimdan ba'zan qo'rqib ketaman.
12. Men yaxshi o'qishim kerak.
13. Men ko'ra olmaslik dardiga mubtalo bo'liganman.
14. Meni yaxshi ko'rishlarini istayman.
15. Meni ayblarimni tan olaman.
16. Meni yig'lagim kelayapti.

17. Men ba'zan o'zimga o'zim ishonmayman.

18. Men xammasi yaxshilik bilan tugashini xoxlayman.

19. Men baxtli bo'lishga loyiqman.

20. Men xammasiga xarakat qilaman.

Qayd etilgan xarakter xislatlaridan: irodasizlik (1, 3, 4, 16); kasallik (7, 13);

qo'zg'aluvchan (11, 14); asabiy zo'riqish (5, 8, 12, 15); o'zgalar ta'siriga berilish (2, 7); o'zidan qoniqmaslik xissi (17); qaysarlik (14, 19).

SHunday qilib 20 ta muloxaza , testi yordamida o'smirlarning o'zgalar oldida o'zlarini baxolash imkoniyati va o'zlariga munosabat darajasining "qiying"lik ko'rsatkichlarini aniqlashtirish mumkin bo'ldi. O'zini o'zi anglash darajasi qanchalik ko`p, bunda o'zini o'zi qiyoslashning kognitiv murakkabliklari ortadi.

### 39- mashg'ulot.

**Mavzu:** Ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining shaxsiy sifatlarini baholash

**Maqsad:** Ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining shaxsiy sifatlarini baholash metodikasi asosida shaxsning xususiyatlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** Sizga taklif etilayotgan ushbu tasdiq-mulohazalarni diqqat bilan o'qing va ularning har biriga quyidagi javoblar variantidan mosini tanlab, uni javob varaqasi katagida belgilang:

1. To'liq qo'shilaman — 2;
2. Qisman qo'shilaman — 1;
3. Qo'shilmayman — 0.

Agar Test savolnomasida keltirilgan tasdiq-mulohazani to'liq e'tirof etsangiz, javob varag'i kattakchasiga 2 raqamini, qisman e'tirof etsangiz 1 raqamini, agar mazkur fikrga mutlaqo qo'shilmasangiz 0 raqamini yozing.

#### *Test savolnomasi*

1. Qonunlarga so'zciz rioya qilish kerak.
2. Jamoa mansaati shaxsiy mansatlardan yuqori bo'lishi kerak.
3. Hozir mehnat jamoasi muammoni hal etish huquqiga ega emas.
4. Rahbarlarni saylash o'z ma'nosini yo'qotgan.
5. YOshlar orasida norasmiy harakatlarning rivojlanishga to'sqinlik qilish lozim.
6. Iqtisodning barcha sohalarida, shuningdek, ta'lim sohasida ham qat'iy tartibga erishish hukumat uchun zarur.
7. Xususiy tadbirkorlik ishi – sofdir odamlar uchun maqbul emas.
8. Siyosat borasida shaxsiy mulohaza bildirish ancha murakkab.
9. Hammasini o'zim bajarishga uringanim ma'qul.
10. Menga buyruq berishlarini yoqtirmayman.
11. YAxshi variant taklif qilgan holda tanqid qilish mumkin.

12. O'zing rahbarlik qilganingda qaror qabul qilish shaxsiy mas'uliyat talab etmaydi.
13. Men printisiplarimga to'g'ri kelmaydigan ishni bajara olmayman.
14. Ishsizlarga nafaqa berish shart emas, chunki bu ularni mehnatga rag'bat uyg'otmaydi.
15. Har bir kishi mas'uliyatli damlarda faqat o'z kuchiga ishonishi va o'z yo'lidan qaytmasligi lozim.
16. O'z rahbarining qarorlarini doimo qo'llab-quvvatlashing va bajarishing lozim.
17. Hozirgi zamon siyosati shunchalik murakkab va serqirraki, u bilan faqat professionallar shug'ullanishi kerak.
18. Odamlar kimgadir bo'yusunishi kerak.
19. Men qattiq qo'lllik bilan rahbarlik qilish tarafdoriman, ana shunda holdagini o'z g'oyalaring osonlik bilan amalga oshirishing mumkin.
20. Rahbarning ochiq-oydin shubhalari jamoani kuchsizlantiradi.
21. Men doimo to'g'ri qarorlar qabul qilaman.
22. Bolalar eng avvalo vaziyatlarga moslasha olishlari lozim.
23. Butun jamoa manfatalari uchun ba'zida alohida insonlarning farovonligini e'tiborga olmasa ham bo'ladi.
24. Menga nimani va qanday qilib bajarishimni doimo ko'rsatib turishlarini afzal bilaman.
25. Bolalar o'qituvchining xatti-harakatlarini tanqid qilishlari kerak emas.
26. Nima bo'lishidan qat'iy nazar men boshbodoqlikni yoqtirmayman.
27. Ayrim kishilardagi tilyog'lomalik va makr-hiyilani birdan payqayman.
28. Kimgadir e'tiroz bildirsang - o'zinga qo'shimcha qiyinchilik tug'dirasan.
29. Tushunmagan narsang haqida hech qachon gapirishing kerak emas.
30. Odamlarning ahmoqliklari meni asabiylashtiradi.
31. Birovlar uchun mas'uliyatni o'z zimmamga olishni yoqtirmayman.
32. Men doimo atrofdagilarga moslashib boraman.
33. Simpatiya uyg'otmagan odamlarga o'zingni xushmuomala qilib ko'rsatishing shart emas.
34. Tekinxo'rлarni jamiyatdan ajratib tashlagan yaxshi.
35. Ta'lim oluvchilarni itoatli bo'lishga o'rgatishlari lozim.
36. Menga kimgadir noxushlik keltirish ba'zan huzur bag'ishlaydi.
37. Printsip jihatdan hech kimga qarz bermayman.
38. Ba'zan o'z fikr-mulohazalarimni bildirishga qiynalaman.
39. Boshliqning fikri xodimlarning mulohazasidan ko'ra doimo ahamiyatli.
40. Rahbar bilan xodim o'tasidagi oshna-og'aynichilik munosabatlari tarbiyaga putur etkazadi.

**Test natijalarini qayta ishlash tartibi:**

1-20 bandlar bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi rahbarning ijtimoiy- axloqiy darajasini bildiradi.

21-30 bandlar bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi rahbarning ma'naviy kamolot darajasini belgilaydi.

31-30 bandlar bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi rahbarning hissiy etukligini ifodalaydi.

So'ngra oxirgi ikki yig'indi, ya'n'i ikkinchi va uchinchchi ballarning yig'indisi ( 21 - 40 bandlar bo'yicha ballar yig'indisi) hisoblab topiladi. Bu esa rahbarning ijtimoiy intellekti darajani bildiradi.

1-40 bandlar bo'yicha umumiy ballar yig'indi hisoblab topiladi. U rahbarning jamoadagi va guruhdag'i etakchilik imkoniyatini belgilaydi.

SHunday qilib, Test natijalari beshta ko'satkichni ifodalaydi, ya'n'i rahbarning quyidagi sifatlarini aks ettiradi:

- ijtimoiy-axloqiy etukligi ;
- ma'naviy etukligi;
- emotsiyonal etukligi;
- ijtimoiy intellekti;
- etakchilik darajasi.

Tabaqalashitirib baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy-axloqiy etuklik (1 - 20 bandlar bo'yicha ballar yig'indisi): 0 - 6 — past; 7 - 10 — o'rta; 11 - 15 — eng yuqori; 16 - 21 — juda yuqori; 22 - 26 — yuqori; 27 - 30 — o'rta; 31 - 34 — o'rtachadan past; 35 - 40 — past.

2. Ma'naviy etuklik (21 - 30 bandlar bo'yicha ballar yig'indisi):

0 - 2 — quyi; 3 - 4 — o'rta; 5 - 7 — eng yuqori; 8 - 10 — juda yuqori; 11 - 13 — yuqori; 14 - 15 — o'rta; 16 - 17 — o'rtachadan past; 18 - 20 — quyi.

3. Emotsional etuklik (31 - 40 bandlar bo'yicha ballar yig'indisi):

0 - 1 — eng yuqori; 2 - 4 — juda yuqori; 5 - 8 — yuqori; 9 - 12 — o'rta; 13 - 16 — o'rtachadan past; 17 - 20 — quyi.

4. Ijtimoiy intellekt (21 - 40 bandlar bo'yicha ballar yig'indisi):

0 - 2 — o'rta; 3 - 4 — yuqori; 5 - 8 — eng yuqori; 9 - 14 — juda yuqori; 15 - 21 — yuqori; 22 - 27 — o'rta; 28 - 33 — o'rtachadan past; 34 - 40 — quyi.

Etakchilik darajasini aks ettiruvchi sifatlarning integrativ baholasi(1 - 40 bandlar bo'yicha ballar yig'indisi):

71-80 ballar. Rahbar atrofdagilariga simpatiya uyg'otmaydi. Hamma narsani ipidan-ignasigacha bilmaydi, o'zining mustaqil fikriga ega emas, qat'iy buyruqqa amal qiladi. Odatda, uning vijdoni qiyalmaydi. Ehtimol, u o'z atrofida xarakter jihatdan o'ziga o'xshagan, hamfikr odamlarni to'plashi lozim.

61-70 ballar. U hamma ko'ravermaydigan va u haqda har kim eshitavermaydigan rahbarlar toifasidan. U o'zgartirishni xohlamaydi. Uning uchun eng maqbولي — qanday bo'lsa - hamma narsa shundayligicha qolgani ma'qul. U sinab ko'rishni tan olmaydi, tavakkal qilishni yoqtirmaydi. U adolatli, biroq konservativ. SHu bois uning xatti-harakatlari boshqalarga adolatsizlikdek tuyulishi mumkin. Atrofidagi odamlarning muammolari va real hayotiy masalalar bilan ko'proq qiziqishi kerak. Bu unga va jamoasiga ko'proq foyda keltirishi mumkin.

46-60 ballar. Bu rahbar «o'rta» toifaga mansub. Uning qiziqishlarida barqaror ustuvorlik yo'q. Standartlardan chetga chiqishga tanqidiy munosabatni bildiradi va istexzo bilan qaraydi. U intuitsiya va vijdon amriiga bo'ysunadi, o'z fikrini aniq bayon eta oladi. Boshqalarning e'tibor berishini va majburiylikni yomon ko'radi. Boshqa jihatdan esa, hamisha murosa qilishga intiladi. Eng asosiysini ikkinchi darajalidan ajrata bilsa, u yaxshi etakchi bo'la oladi.

15-45 ballar. Bu rahbar demokrat, mas'uliyatl. Uning axloqiy va ijtimoiy qiziqishlari aniq ifodalananadi. U endi boshlangan ishlarni, yangiliklarni qo'llab-

quvvatlaydi. Uning uchun barqaror narsaning o'zi yo'q. Biroq shoshib qaror qabul g'ilmaydi va hamma narsaga tanqidiy yondashadi. O'zining g'oyalarini himoya qiladi va murosaga borishi qiyin. Ammo bu toifadagi rahbarlar kam uchraydi, biroq aynan ular haqiqiy etakchiga xos sifatlarga ega.

0-14 ballar. O'ziga ishonmasligi qqol seziladi. Agar unga biror narsa yoqmasa tez ta'sirlanadi (bunday hodisalar uning hayotida tez-tez uchrab turadi) atrofdagilari u bilan munosabatga kirishishda qiyinalishadi. U o'z maqsadiga erishishda shijoatli va qat'iyatli. Uning fikricha, maqsad vositani belgilab beradi. Sabr-bardosh va xolisonalikning etishmasligi - uning eng asosi kamchiligidir. U ba'zan qandaydir g'oyalarni ilgar suradi, ammo uning sabr-toqaotsizligi uni hayotga joriy etishga xalqit beradi.

SHunday qilib, 15-45 ball to'plaganlar haqiqiy rahbarlik sifatiga, 25-35 ball to'plaganlar esa, eng maqbul rahbarlar toifasiga mansub hisoblanishadi.

#### 40 - mashg'ulot.

##### Mavzu: Shaxsning irodaviy xususiyatini o'rganish

**Maqsad:** Shaxsning irodaviy xususiyatini o'rganish testi asosida shaxsning xususiyatlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

**Ko'rsatma:** Berilgan savollarga to'g'ri va haqqoniy tarzda javob berishga harakat qiling, javoblar "ha", "yo'q", "bilmayman" tarzida bo'ladi.

1. Siz uchun qiziqarli bo'limgan ishni albatta oxiriga etkazasizmi? Agar shu ishni ma'lum muddatga tashlab qo'yib keyin unga qaytish uchun vaqt va imkoniyat etarli bo'lsa ham.
2. O'zingizga yoqmagan biror ishni bajarish uchun sizda paydo bo'lgan ichki qarshilikni hech qanday zo'rqiqlarsiz enga olasizmi?
3. Janjallli vaziyatga tushib qolsangiz (ishda, o'qishda, turmushda) vaziyatga to'g'ri, ob'ektiv baho berish uchun o'zingizni qo'lga olasizmi?
4. Agar parhez qilish buyurilgan bo'lsa, o'zingizga yoqadigan shirinlikdan voz kecha olasizmi?
5. Kechqurun rejalashtirilgan vaqtindan ertalab ertaroq tura olasizmi?
6. Guvohlik ko'rsatmasi berish uchun voqeа sodir bo'lgan joyda qolasizmi?
7. Xatlarga tezda javob yozasizmi?
8. Samolyotda uchish yoki tish shifokori huzuriga borishdan oldin paydo bo'lgan qo'rquv hissini qiyinchiliksiz enga olasizmi?
9. SHifokor tavsiya etgan eng noxush dorini ham qabul qila olasizmi?
10. Bergan va'dangiz sizga ko'plab tashvish keltirsa ham albatta bajarasizmi yoki o'z so'zining ustidan chiqadigan kishimisiz?
11. Notanish shaharga hech qanday ikkilanishsiz jo'nab keta olasizmi?
12. Kun tartibiga qat'iy rioya qilasizmi? Uyqu, ovqatlanish, ish, dam olish va boshqalar?

- Kutubxonadan "qarzdar" bo'lib qolishni xushlamaysizmi?
- Eng qiziqlari teleko'rsatuv ham sizni muhim va tezda bajarilishi zarur bo'lgan ishdan chalg'ita olmaydi. SHundaymi?
- Raqibingizning so'zları sizga qanchalik og'ir botsa ham janjalni to'xtatish uchun jim tura olasizmi?

*Natijalar taxlili.*

Har bir "ha" degan javob — 2 ball, "bilmayman" — 1 ball, "yo'q" — 0 ball. Natijalarni umumlashtirib, jami ballar hisoblab chiqiladi.

0 - 12 ball. Sizda irodaviy sifatlar taraqqiyoti yaxshi emas. Qanday ishlar oson va qiziqlari bo'lsa shularni bajarasiz. Burchingizga, majburiyatingizga panja orasidan qaraysiz. Bu sizga juda ko'p ko'ngilsizlik keltirishi mumkin.

13 - 21 ball. Sizda iroda kuchi o'rtacha. Biror qiyinchilikka duch kelib qolsangiz, uni asta - sekin engishga harakat qilasiz. Mabodo osonroq yo'l paydo bo'lib qolsa, darrov o'sha tomonga o'tib olasiz. Bergan so'zingizning ustidan chiqa olasiz. Yoqmagan ishni ham, o'zingizni u yoq bu yoqqa tashlab bo'lsa ham bajarishga harakat qilasiz. Hayotda ko'p narsaga ega bo'lishni xohlasangiz irodangizni mashq qildiring.

22 - 30 ball. Iroda kuchi sizda yuqori. Sizga ishonsa bo'ladi. Hech qachon noqulay vaziyatga tushib qolmaysiz. Y'Angi topshiriqli sharoit sizni cho'chitmaydi. Lekin sizning murosasizligingiz qat'iy, atrofdagilarni qiynab qo'yishi mumkin. Irodaning kuchliligi yaxshi, lekin ko'ngilchanlik, egiluvchanlik kabi xususiyatlar ham shaxs uchun g'oyat muhimdir.

#### 41 - mashg'ulot.

##### Mavzu: Kuzatish orqali temperamentni aniqlash metodi

**Maqsad:** Shaxsning irodaviy xususiyatini o'rganish testi asosida shaxsning xususiyatlarini o'rganish

**Jihoz:** Test, javob varaqasi, sekundomer

№	Xulq-atvor ko'rinishlari	Tem-pa Testi.			
		1	2	3	4
1	Muvozanatlashgan igi (o'zini tuta olishi)	Muvozanatlashmagan (o'zini tuta olishi qiyin)	Muvozanatlashgan (o'zini tuta oladi)	Juda muvozanatlashgan (o'zini juda yaxshi tuta oladi)	Muvozanatlashmagan (o'zini tuta olmaydi)
2	Hissiy kechinmalar	Kuchli,qisqa muddatli	YUzaki,qisqa muddatli	Susi	CHuqur , uzoq muddatli
3	Kayfiyat	Noturg'un, ko'pincha g'ayratli, tarang	Turg'un, xushchaqchaq	Turg'un, kuchli quvonganligi yoki xasa bo'lganligi bilinmaydi	Noturg'un, ko'pincha tushkunlik (pessimist) ustunroq
4	Nutqi	Baland ovozda	Biroz baland ovozda	Bir xil (monoton tusda)	Past ovozda, biroz qiyinalib nafas olganday tuyuladi

5	<b>CHidamligi</b>	Past	O'rtacha	Juda katta	Juda past
6	<b>Moslashishi</b>	YAxshi	A'lo	Sekin	Qiyin
7	<b>Muloqotga kirishuvchanligi</b>	Muloqotga kirishuv -chan (lekin o'zgaruvchan)	Muloqotga kirishuvchan	Muloqotga kirishuvchan emas	Muloqotga kirishuvchan emas
8	<b>Jahldorligi</b> (agressivligi)	Jahli tez, jahldor (agressiv)	Tinchliksevar	Jahlini yuta oladi, o'zini tuta oladi	Jahli chiqsa, kuchli hayajonli bo'ladi
9	<b>Tanqidga munosabati</b>	Qiziqqonlik bilan	Xotirjam	Befarq	Xasa bo'ladi
10	<b>Faolligi</b>	Ehtirosi faol	ishchan yoki gapdon	CHarchamas, mehnatkash	Faolligi o'zgaruvchan
11	<b>YAngilikka munosabati</b>	Ijobiy, tayyor	Befarq	Salbiy	Optimistik yoki pessimistik
12	<b>Xavfli vaziyatga munosabati</b>	Xavfli vaziyatga tayyor, avakkalchi	Hisobli, avakkalchi	Sovuqqonlik bilan, hayajonga, his-tuyg'uga berilmay vondashadi	Hayajonli
13	<b>Maqsadga intiluvchanligi</b>	Kuchli, butun vujudi bilan	Tez,qarshilik va lo'siqlardan o'zini tortgan holda	Sekin, lekinqat'iy	Sust,qarshilik lo'siqlarni o'zini tortgan holda
14	<b>O'zini baholashi</b>	Juda baland	Biroz baland	Ko'pincha to'g'ri	O'ziga past baho beradi
15	<b>Ta'sirchanligi</b>	O'rtacha	Katta emas	Past	Katta

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. 8-tom. "Ozod va obod Vatan erkin va farovon xayot pirovard maqsadimiz" T. 2000y.
2. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997.y.
3. B.R.Qodirov, K.B.Qodirov «Kasbiy tashxis metodikalari to'plami», Toshkent, 2003.y.
- 4.G' B.SHoumarov, SH.B.SHoumarov «Muxabbat va oila», Toshkent «Ibn Sino», 1994.y.
5. G.Q.To'laganova «Tarbiyasi qiyin o'smirlar» Toshkent "Universitet", 2005.y.
6. E.A. Rogov. « Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa. M. 1999.g.
- 7.N.A.Sog'inov «Ta'lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostik vositalardan foydalanish», T, 2001.y.
8. R.S.Nemov «Prakticheskaya psixologiya», Moskva «Vlados», 1998
9. R.YU.Toshimov, E.G'.G'oziev «Psixodiagnostika va amaliy psixologiya»

Toshkent, 2004

10. E.G'.G'oziev, K.Q.Mamedov «Kasb psixologiyasi» Toshkent, 2003.y.
11. E.G'.G'oziev, R.YU.Toshimov «Pedagogik faoliyatingizni baholashni uddalaysizmi?» Tash. 2001y
12. 9. N.G'.Kamilova. «Muammoli o'smir: tashxis,tadqiqot metodlari». T. 2004.y.
- 13.N.Sog'inov va boshqalar.«Oilani o'rganish psixodiagnostikasi metodikalari». T.1996 y.
14. SH.Ergashev taxriri ostida « O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda qo'llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari». T. 2006.y.
15. Psixologiyadan qisqacha izohli lug'at.T.1998.y.